

ABDUSHUKUROV BAXTIYOR BO'RONOVICH

**QADIMGI  
TURKIY  
TIL**

ISBN 978-9943-5636-5-0



9 789943 563650

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

Abdushukurov Baxtiyor Bo'ronovich

## QADIMGI TURKIY TIL

Университет  
кымы башкаруу  
сов 20  
20.12.2019 и

6080  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TosDO'AU  
AXBOROT-RESURS MARKAZI

"NAVOIY UNIVERSITETI" nashriyot-matbaa uyi

TOSHKENT - 2019

81.2 Turk  
A 15  
811.512.1  
...shukurov  
til u  
"letit"

**KBK 81.2Turk**  
**A 15**  
**UO‘K: 811.512.1**

**ISBN 978-9943-5636-5-0**

**Abdushukurov, Baxtiyor Bo‘ronovich**

**Qadimgi turkiy til [Matn]: o‘quv qo‘llanma / B.B.Abdushukurov. - Toshkent: “Navoiy universiteti” NMU, 2019. - 127 b.**

«Qadimgi turkiy til» o‘quv qo‘llanmasi 5120100 - Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim olayotgan talabalarga mo‘ljallangan. Unda qadimgi turkiy tilning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari haqida so‘z boradi. Mazkur qo‘llanmani yozishda qadimgi turkiy til bo‘yicha to‘plangan tajribalar, mavjud qo‘llanma, kitoblardagi materiallardan foydalanildi.

**Mas’ul muharrir:** H.Dadaboyev, filologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:** S.Ashirboyev, filologiya fanlari doktori, professor  
Q.Omonov, filologiya fanlari doktori, professor

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2019-yil 20-iyuldagi 654-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

© **Abdushukurov B.B.**

© **“NAVOIY UNIVERSITETI” nashriyot-matbaa uyi, 2019**

## **KIRISH**

Ona tilimizga ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho meros sifatida e‘tibor qaratish, uni asrab-avaylash, boyitish, nufuzini oshirish barchamizning asosiy vazifalarimizdan sanaladi. Shu ma‘noda, aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2016-yil 13-mayda imzolangan “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmonida hozirgi globallashuv davrida o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, bugungi holati va istiqboli bilan bog‘liq masalalarni chuqur o‘rganish borasidagi qator muhim vazifalar belgilab berildi. Farmonda qayd etilganidek, “O‘zbek tilining har tomonlama taraqqiy topishi va adabiy til sifatida maydonga chiqishida qadimgi turkiy til katta hissa qo‘shganini alohida ta’kidlash tabiiydir”<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, qadimgi turkiy til o‘zbek va boshqa turkiy tillarning shakllanishiga asos bo‘lgan. Ammo qadimgi turkiy tilning o‘zi ham ma‘lum taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan, shakllangan, ma‘lum bir qolipga tushgan. Ma‘lumki, qadimgi turkiy til davri turkiy xalqlar tili, tarixiylikning ildizlarini bilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning natijasida hozirgi adabiy tilning qonuniyatlarini teranroq anglash imkoni yuzaga chiqdi.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarga run, uyg‘ur, moniy, brahma, sug‘d, suryoniy yozuvlarida bitilgan obidalar kiradi. Run va uyg‘ur yozuvlari turkiy xalqlarga xosdir. Toshga o‘yib yozilgan run yozuvi yodgorliklari dastlab Yenisey havzasida, so‘ngra XIX asr oxirida Mo‘g‘ulistonning O‘rxun daryosi yaqinida topilgan bo‘lib, bu yozuvni dastlab daniyalik tilshunos olim V.Tomsen va rus turkologi V.Radlov aniqlagan. Hozirgi paytgacha run yozuvida bitilgan ko‘plab tosh, idish, buyum, tangalar, kitob va kitob varaqlari, ayrim qog‘ozlar ma‘lum. Talas va Yenisey bitiglaridagi yozuv O‘rxun obidalariga nisbatan harflarning shakliy variantlari ko‘pligi bilan farq qiladi. I.Kizlasovning fikricha, ushbu bitiglarda sakkiz xil alifbo amal qilgan.

Yaqin o‘tmishga nazar tashlaydigan bo‘lsak, sho‘rolar davrida tilimizga quyi darajadagi til sifatida qaraldi. “Devonu lug‘otit turk”da ulug‘langan, “Muhokamat ul-lug‘atayn”da tavsiflangan ona tilimiz yuksak minbarlardan, ilmiy va ma‘rifiy anjumanlardan chetlashtirildi. Bugun mustaqillik yillarida o‘zbek tili qaddini tiklayotgan, butun bir millatning

<sup>1</sup>“Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat Uzbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmon. 2016 yil 13 may. – B. 1.

milliy tili sifatida bo'yo ko'rsatayotgan bir davrda qayd etilgan farmonning qabul qilinishi uning qo'llanish doirasini kengaytirish, tarixiy ildizlarini chuqur o'rganish va ilmiy asosda rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi.

O'zbek tilining bugungi milliy til darajasiga ko'tarilishida XX asr boshlarida yashagan ziyolilarning o'rni katta. Farmonda ham o'z hayotini xalqimizning ma'naviy kamolotiga, ona tilining ravnaq topishiga bag'ishlagan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy kabi ma'rifatparvarlarimizning xizmatlari alohida tilga olinadi. Ular sho'rolar siyosati avjiga chiqqan paytda o'zbek tilining so'z yasash imkoniyatlaridan foydalangan holda xalqda milliy g'urur, ona tiliga hurmat tuyg'usini shakllantiradi.

Farmonda ta'kidlanganidek, "Ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, uning tarixiy ildizlarini chuqur o'rganish va ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish bugungi kunda o'ta dolzarb masalaga aylanmoqda"<sup>2</sup>. Shu ma'noda, qadimgi turkiy tilning o'zbek tilining adabiy til sifatida maydonga chiqishidagi o'rnini e'tirof etgan holda "Qadimgi turkiy til" fani shakllantirildi. Bu fan orqali talabalarga o'zbek tilning tarixiy ildizlari, V-X asrlarda yaratilgan manbalarning til xususiyatlari haqida bilim beriladi. G'.Abdurahmonov, A.Rustamovning "Qadimgi turkiy til" (1982) o'quv qo'llanmasi, N.Rahmonov, Q.Sodiqovlarning "O'zbek tili tarixi" (2007) darsligi e'lon qilingan. Biroq "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"<sup>3</sup>gi Farmonda belgilab berilgan vazifalar ularni boshqatdan ko'rib chiqishni, qadimgi turkiy tilning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini kompleks tadqiq etishni taqozo etadi.

Keyingi vaqtda turkologiya sohasida bir qator yangi tadqiqotlar yuzaga keldi. Eng qadimgi sug'd, ko'k turk (o'rxun-yenisey, turkiy run), eski uyg'ur (turk) yozuvlaridagi yodgorliklarni o'rganishga oid izlanishlar olib borilmoqda. Ko'k turk xoqonligi davrida yaratilgan Bug'ut mangutoshi, uning tiklanish tarixi, yodgorlikda saqlanib qolgan sug'dcha bitig talqini, sug'd tilidagi arablar istilosi bilan bog'liq nazariy qarashlar, ko'k turk bitig'lari, ko'k turk yozuvining o'ziga xos jihatlari, imlo xususiyatlari, ko'k turk xatida bizgacha yetib kelgan To'nyuquq, O'ngin, Kul tegin, Bilga xoqon, Suji bitiglarining matni talqini, turkiy yozma yodgorliklar asosida rasmiy uslubning yuzaga kelishi, taraqqiyot bosqichlari, hujjat turlari haqida

muhim ma'lumotlar qayd etilgan.

E'lon qilingan monografik tadqiqotlar, yoqlangan dissertatsiyalar, chop etilgan maqolalar shundan dalolat beradiki, o'zbek tilining takomili va adabiy til sifatida shakllanishida qadimiy turkiy tilning o'rni va ahamiyatini ko'rsatib berish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, o'quv qo'llanmaning tayyorlanishi Farmonda belgilab berilgan o'zbek tilining asl tabiati va xususiyatlarini to'la aks ettiradigan mukammal akademik va o'quv grammatikalarini yaratish, tovushlar tizimi va uning yozuvda aks etishi, joriy imlo qoidalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar tayyorlash, turli mavzu va yo'nalishlar bo'yicha lug'at va qomuslar, risola va darsliklar yaratish vazifasiga mos tushadi.

<sup>2</sup>"Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmon. 2016 йил 13 май.

## 1-§. QADIMGI TURKIY TIL DAVRI VA UNING MANBALARI

**Asosiy tushunchalar:** *bobo til, oltoy tili, mo'g'ul tili, tungus tili, turkiy tillar guruhi, sharqiy turkiy tillar, g'arbiy turkiy tillar, tungus-manjur tillari, eng qadimgi turkiy til, xun davri, r-l tillari, z-sh tillari, qadimgi turkiy til.*

Qadimgi turkiy til davri barcha turkiy urug' va qabilalarning umumiy tili sifatida VI-X asrlarni o'z ichiga oladi. Qadimgi turkiy til kelib chiqishi va rivojlanishi jihatidan oltoy va xun tili davrlari bilan uzviy bog'langan. Bu davr tili haqida B. Vladimirov quyidagi fikrlarni bayon qiladi: «...mo'g'ul tili turk va tungus tillari bilan birga o'zlarining bir umumiy ajdodiga ega bo'lganki, uni shartli ravishda oltoy tili deb atash mumkin. Oltoy tilining rivojlanishi jarayonida tashkil topgan mo'g'ul, turk, tungus tillari ma'lum. Bu davr turkiy tillar taraqqiyotining birinchi, eng qadimgi bosqichi bo'lib, fanda u oltoy til birligi nomi bilan yuritiladi. Bu davrda hali turkiy tillar mo'g'ul tillaridan mo'g'ul tillari esa, o'z navbatida, tungus-manjur tillaridan ajralib chiqmagan edi, ular bir til birligi sifatida qo'llanar edi. Shunday qilib, qandaydir eng qadimgi tilning bo'lganligi taxmin qilinadi. Bu tilga xos umumiy leksik, fonetik va grammatik belgi-xususiyatlar esa hozirgi mo'g'ul, turkiy va tungus-manjur tillarida saqlanib qolgan»<sup>3</sup>.

Mutaxassislarning fikricha, qadimgi davrlardan milodiy V asrgacha bo'lgan muddat “Eng qadimgi turkiy til” davri deb yuritiladi<sup>4</sup>. Adabiyotlarda bu davr oltoy va xun bosqichlariga ajratiladi. Oltoy davrining xarakteri, bu davrda yashagan xalqlar va ularning tili haqida aniq ma'lumotlar beruvchi tarixiy yodgorliklar yo'q. Bu davr tilining ayrim xususiyatlari o'lik tillarning eng qadimgi belgilari bilan hozirgi jonli tillarni tarixiy-qiyosiy usul asosida o'rganish orqali taxminiy ravishda aniqlanishi mumkin. Tarixiy taraqqiyot jarayonida tillarning qo'shilishi, ajralib ketishi natijasida oltoy davrining oxirlarida bu tillar tabaqalanadi va ikkita katta til guruhlariga bo'linadi, ya'ni tungus-manjur va turk-mo'g'ul tillar guruhlari ajralib chiqadi. O'z navbatida ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning o'sishi, ajralib chiqishi, farqlanish jarayonining davom etishi asosida bu

<sup>3</sup> Владимирцов Б. Работы по монгольскому языкознанию. - М.: Восточная литература, 2005. - С. 237.

<sup>4</sup> Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. - Тошкент, 2006. - Б.3

tillarning har qaysisi asta-sekin o'ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlarga ega bo'lib boradi. Buning natijasida xun davrining oxirlarida turk-mo'g'ul til birligidan turk tillari va mo'g'ul tillari ajralib chiqadi.

Turkiy tillarning eng qadimgi davrlardagi taraqqiyotining ikkinchi bosqichi xun davri hisoblanadi (eramizgacha III asrdan eramizning IV asrigacha). Bu davrda Markaziy Osiyodan Sharqiy Yevropagacha bo'lgan katta hududda qudratli Xun imperiyasi tuziladi. Bu imperiya juda ko'p turk-mo'g'ul, tungus-manjur va boshqa qabilalarni birlashtiradi. Eramizning I asr oxirlarida o'zaro ichki urushlar natijasida Xun davlati ikki qismga – G'arbiy xun va Sharqiy xun davlatlariga bo'lindi. Keyinchalik bular asosida g'arb va sharqda turklar boshchiligida bir qancha qabila ittifoqlari mustahkamlanishi ko'p jihatdan turkiy qabilalar va tillarning rivojlanishiga katta ta'sir qildi, ular umumiy belgilarini saqlagan holda, asta-sekin o'zlariga xos xususiyatlarni ham hosil qila boshlaydilar, natijada bu barcha turkiy tillarning ikki guruh – sharqiy va g'arbiy turkiy tillarga bo'linishiga olib keldi. Bu davrdagi turkiy tillarning xususiyatlarini ko'rsatuvchi tarixiy manbalar yo'q. V.V. Bartold chuvash tili bo'yicha tadqiqotlariga asoslanib, xun davridagi til chuvash tili bilan umumiylikka ega bo'lgan, buni venger tilidagi turkiy unsurlarning chuvash unsurlari bilan o'xshashligi ham tasdiqlaydi, degan fikrni ilgari suradi<sup>5</sup>.

Xun davrida turlicha turk, mo'g'ul, tungus-manjur qabilalari tillarining o'zaro bir-biriga ta'sir qilishi, qo'shilishi, chatishib ketishi va qayta tashkil topishi jarayonida o'sha vaqtda Markaziy va O'rta Osiyo hamda Sharqiy Yevropada yashagan qadimgi eroniy, xitoy, sanskrit va slavyan qavmlari tillarining ishtiroki ham bo'lgan.

Xun davrida turkiy tillar ham ko'pgina urug' va qabilalarning tillari sifatida mavjud bo'lgan va ularga xizmat qilgan. Bu davrda ularning *r-l* tillari (qadimgi avar, bulg'or va hozirgi chuvashlarning o'tmishdoshi) hamda *z-sh* tillariga (qadimgi o'g'uz, qirg'iz, qarluq va qipchoq) ajralishi yuz berdi. Fonetik qurilish va leksikadagi *-s/z* va *l-sh/j* tarzida moslashish hodisasining qoldiqlarini hozirgi oltoy va bir qator turkiy tillarda uchratish mumkin: *r-s/z*, *bas-bormoq* va *bir-bormoq*; *kāz* va *kār* (ko'rmoq), *l-sh/j*; *beš* va *belek-tirsak* (chuvashcha *pilek-beš*), *bish-bulg'a*- *aralash-tirmoq* kabi. Shu bilan birga, bu davrda mayda turkiy qabilalarning tabaqalanishi va bir-biriga qo'shilishi, birlashishi jarayoni ham davom etar edi.

VI asr o'rtalarida turklar kuchayib, yirik bir qabila ittifoqiga birlashdi, qo'shni qabilalarni yengib, 552-yilda o'zlarining mustaqil davlati – turk xoqonligini barpo qildi. 555-yilga kelib, Markaziy Osiyodagi xalqlar

<sup>5</sup> Бартольд В.В. Сочинения. Том 5. - Москва: Наука, 1968. - С. 347.

Manjuriya va Yenisey qirg'oqlarigacha bo'lgan yerlarni o'zlariga qaratib oldilar. Harbiy va siyosiy qudrati asta-sekin kuchayib borgan turk xoqonligi efitlitlar davlatini tor-mor qildi, Amudaryo va Orolgacha bo'lgan joylarni, VI asrning 70-yillarida esa Shimoliy Xitoydagi Chjou va Tsi davlatlarini bosib oldi. Xoqonlikning chegarasi Amudaryodan Hindistongacha cho'zilgan edi. Ammo qabilalar o'rtasidagi o'zaro urushlar, Xitoyning kuchayib ketishi va bu urushlarga aralashuvi natijasida VI asrning 80-yillarida turk xoqonligi parchalanib, Sharqiy turk xoqonligi va G'arbiy turk xoqonligiga bo'linib ketdi.

Sharqiy turk xoqonligi Markaziy Osiyoda o'z hokimiyatini o'rnatdi, VII asrning 2-choragida Xitoyga qaram bo'lib qoladi. 681-yilda Bilga xoqon qutlug' (Ilterin) va uning maslahatchisi Tonyuquq mustaqillikni qo'lga kiritdilar. Sharqiy turk xoqonligining keyingi kuchaygan davri 682-745-yillarga to'g'ri keladi. Qapog'on xoqon (691-716-yillar) davrida turklar Samarqandgacha borib yetdilar. Xoqon Bilga vafoti (734-yil)dan keyin kuchaygan o'zaro urushlar natijasida Sharqiy turk xoqonligi parchalanib ketdi, 745-yilda esa uyg'urlar tomonidan bosib olindi.

Markazi Yettisuv bo'lgan G'arbiy turk xoqonligi esa mustaqil davlat sifatida VII asrning 1-yarmida Sharqiy Turkistondan Kaspiy dengizgacha bo'lgan yerlarda o'z hukmronligini o'rnatdi. Qo'shni davlatlar bilan savdosotiq aloqalari rivojlanadi. Samarqand, Buxoro, Choch (Toshkent), Marv, Chorjo'y kabi katta shaharlar obod bo'ladi. Ammo Xitoy va shimoliy qo'shni davlatlarning hujumi, ichki o'zaro feodal urushlar natijasida G'arbiy turk xoqonligi tugatildi. Turkklarning bir qismi Sharqiy Turkistonda o'zlarining ittifoqini barpo qildi, Yettisuv va uning atroflarini esa turgeshlar qo'lga kiritadi. Keyinroq bu yerlar Oltoydan ko'chib kelgan qarluqlar qo'lga o'tdi. O'g'uzlar esa g'arbga tomon yurish qilib, VIII asrda Sirdaryoning quyi qismi, Qoraqumgacha bo'lgan hududda o'z davlatlarini barpo qildilar.

Turkiy tillar taraqqiyotining uchinchi bosqichi, ya'ni qadimgi turkiy davrdagi turkiy urug' va qabilalar, ularning tillariga oid juda ko'p yozma manbalar, tarixiy yodgorliklar mavjud. Jumladan, turk xoqonligi tarkibiga kirgan turkiy urug'lar va ularning tillari O'rxun-Yenisey yodgorliklari orqali aniqlangan. Mazkur yodgorliklarning ko'pchiligi rus olimlari tomonidan topilgan. Bular orasida, ayniqsa, sibirlik o'lkashunos N.Yadrinsev tomonidan 1889-yilda Mo'g'ulistondagi O'rxun daryosi bo'ylaridan topgan yodgorliklar katta ahamiyatga ega. Xuddi shunday yodgorliklarning kattagina bir qismi Yenisey daryosining yuqori qismi va Qirg'izistondagi Talas vodiysi, shuningdek, Baykal ko'li atroflari, Lena

daryo bo'ylaridan topilgan.

Bu bitigtoshlar VII-VIII (ba'zi manbalarda VIII-X asrlar) asrlarga tegishli bo'lib, turk xoqonligi davrida run yozuvida bitilgan. Ular grafik jihatdan bir-biriga ancha yaqin turadi. Qadimgi turkiy run yozuvi G'arbiy va Sharqiy turk xoqonligida keng tarqalgan edi.

Ummizning 745-yilida turk xoqonligini bosib olgan uyg'urlar davlati, asosan, ilgari Sharqiy turk xoqonligi tarkibiga kirgan qabilalarni tartashirgan. G'arbiy turklarning ajralib ketishi uyg'urlar davlatini kuchaylantirdi. Buning natijasida 840-yilda uyg'ur davlati qirg'izlar tomonidan bosib olindi. Qirg'izlar hukmronligi X asrgacha davom etdi. O'zining birligi, ittifoqini yo'qotgan ko'pgina uyg'ur qabilalari qirg'izlar hujumidan keyin g'arbga yo'l olib, o'z mustaqil davlatini tuzgan, bir qismi esa qarluqlar tomoniga ketgan.

Turkiy tillar leksik qatlamini tadqiq etishda run bitiglari eng qadimiy obidalaridan hisoblanadi. Ammo ayrim turkologlar bu yodgorliklarning turkiy tillar uchun "bobo til" sifatida qaralishini ma'qullamaydilar va hozirgi turkiy tillardagi arxaik elementlarning bitigtoshlarda uchramasligini asos sifatida keltiradilar. Bu yodnomalar tilining umumturkiy til emas, balki shu tilning kichik bo'lagi ekanligini o'rinli ta'kidlaydilar. Darhaqiqat, yozma manbalar davr tili xususiyatlarini imkon qadar to'liq aks ettiradi, ammo yodgorliklar tili davr tilining ayni o'zi emas. Bunda muallifning so'z qo'llash mahorati, fikrini to'liq aks ettira olish qobiliyati, nutqiy imkoniyati ham o'ziga xos o'rin tutadi. O'rxun-enasoy yozma yodgorliklari turkiy tillarning qadimiy xususiyatlarini mukammal aks ettira olmasa-da, turkiy tillarning tarixiy taraqqiyot bosqichiga oid muhim manba sifatida ahamiyatlidir.

O'rxun-Yenisey yodgorliklari, asosan, toshlarga o'yib bitilgan yozuvlardan, idish, tangalar kabi buyumlarda va qog'ozlarga yozilgan bitiklardan iborat bo'lib, bir qancha vaqtlar olimlar uchun o'qilishi jumboq bo'lib qoladi. Shunga ko'ra u qadimgi skandinav-german tillariga oid run, runiy (runa-sirli, yashirin demakdir) yozuvi nomi bilan ham yuritiladi. Sibirda surgunda bo'lgan shved ofitseri F.Stralenberg 1730-yilda hali tarixda noma'lum bo'lgan va hech kimsaga tushunarli bo'lmagan bu yozuvni yuqoridagidek nomlagan edi.

Bu yozuv haqida dastlab XVIII asrning boshlarida rus olimi S.Remezov, keyinroq shved olimi F.Stralenberg hamda nemis olimi D.Messerschmidtlar xabar bergan. Bu yozuv(lar)ning turkiy xalqlarga mansubligini birinchi marta fransuz olimi J.Abel Remyuza (1820), so'ngra rus olimi N.Yadrinsev (1889) isbotlagan. 1890-yilda N.Yadrinsev va 1891-

yilda V.Radlov rahbarligida O'rxun daryosi bo'yiga uyushtirilgan arxeologik ekspeditsiyalar natijasi sifatida 1892-yilda 2 ta atlas e'lon qilindi. Bu atlaslarda bosilgan matnlarni birinchi bo'lib daniyalik tilshunos V.Tomsen o'qishga muvaffaq bo'ldi (1893). U 1893-yil 15-dekabrda Daniya fanlar akademiyasi majlisida O'rxun daryosi bo'yidan topilgan yodgorliklarning sirini topganligini ma'lum qildi va bu yodgorlik turkiy xalqlar tilida yozilganligini bildirdi. V.Tomsendan so'ng V.Radlov Kultegin xotirasiga bitilgan ulkan toshdagi matnning transliteratsiya va transkripsiyasini tuzib, nemis tiliga tarjima qildi. Bu material qadimgi turkiy til qurilishi, fonetikasi, morfologiyasi va leksikasi yuzasidan dastlabki tasavvurni shakllantirdi. Shundan keyin ko'p yillar davomida bu yozuvlarni tarjima qilish, ularning til xususiyatlarini o'rganish va nashr etish sohasida salmoqli ishlar qilindi.

O'rxun-Yenisey yodgorliklari o'z navbatida, uch tarmoqqa bo'linadi.

1. **Yenisey yodgorliklari.** Bu hozirgi Yenisey va Tuva avtonom viloyatidan topilgan yodgorliklardir.

2. **O'rxun yodgorliklari.** Mo'g'uliston hududidagi O'rxun daryosi bo'yidan topilgan Kultegin, To'nyuquq yodgorliklaridir.

3. **Talas yodgorliklari.** Hozirgi Qozog'istonning Jambul viloyatidan topilgan yodgorliklardir.

Turk xoqonligi tarkibiga kirgan turklarning bevosita davomchisi, vorisi bo'lgan uyg'urlar juda katta meros – o'sha davr tilini aks ettiruvchi yozma yodgorliklar qoldirganlar. Bu yodgorliklar birin-ketin yozilganligi – tadriijiy jihatdan ikki davrga bo'linadi.

Birinchi davrga xos obidalar eng qadimgi yodgorliklar bo'lib, ular o'rxun yozuvi obidalar bilan umumiylikka ega bo'lgan bitigtoshlardan iborat. Bular ichida eng mashhuri Kultegin va To'nyuquq sha'niga qo'yilgan qabr toshlariga yozilgan yodgorlikdir. Bu toshlar O'rxun (Mo'guliston) va Yenisey daryolari bo'ylaridan topilganligi sababli fanda «o'rxun-yenisey yozuvlari» deb nomlanadi.

Qadimgi turkiy tilning run yozuvida bitilgan namunalari quyidagilardir:

1. **Kultegin bitigi.** Bu bitiktosh ikkinchi turk xoqonligi asoschisi Eltarish xoqonning kichik o'g'li Kultegin sharafiga qo'yilgan. U 731-yilda 47 yoshida vafot etgan. Yodgorlik uning akasi Bilga xoqon tomonidan 732-yilda o'rnatilgan. Matn muallifi esa Eltarish xoqonning o'g'li Yo'llug'tegin. Bitigtosh Mo'g'ulistonning Kosho-Saydam vodiysida O'rxun daryosining qirg'og'ida topilgan. Hozir ham o'rnatilgan joyida turibdi. Yodgorlikdagi asosiy matn turkiy tilda. Ters yuzida xitoycha matn ham bor.

Turkiysi o'rxun-yenisey xatida yozilgan.

2. **Bilga xoqon bitigi.** Bilga xoqon ikkinchi turk xoqonligi asoschisi Eltarish xoqonning to'ng'ich o'g'li. U 734-yilda 50 yoshida vafot etgan. Yodgorlik toshi 735-yilda uning o'g'li Yo'llug' tigin tomonidan o'rnatilgan.

3. **To'nyuquq bitigi.** Mazkur yodgorlik ikkinchi turk xoqonligi davrida yashab o'tgan davlat arbobi va sarkarda To'nyuquq xotirasiga tiklangan. Bitig muallifi To'nyuquqning o'zidir. U. Sertkayaning fikricha, bitig taxminan 732-734-yillar oralig'ida yozilgan. To'nyuquq shu kezda 85 yoshda bo'lgan. Yodgorlik Mo'g'ulistondagi Bain Sokto manzilida topilgan. Hozir ham tiklangan joyida turibdi. U 62 satrli bo'lib, bir-biriga qaratib tiklangan ikki to'rt qirrali toshga yozilgan.

4. **Kulichur bitigi.** Bitiktoshni 1912-yilda polshalik professor V.Kotvich Mo'g'ulistonning Ulan-Bator yaqinidagi Ixe-Xushotu manzilidan topgan va uning matnini A.Samaylovich bilan birga 1928-yilda nashr etgan. U Kulichur sharafiga tiklangan bo'lib, sanasi aniq emas. Tardush elini boshqargan Kulichur ikkinchi turk xoqonligida yashagan mashhur kishilardan sanalgan. Uning ismi Bilga xoqon bitigida ham tilga olinadi. Yodnomadagi yozuv toshning uch tomoniga bitilgan bo'lib, jami 29 satrni tashkil etadi. Kulichur 731-yilda vafot etgan deb taxmin qilinadi.

5. **O'ngin bitigi.** Bitiktosh Mo'g'ulistondagi O'ngin vodiysidan topilgan. Hozir ham o'rnatilgan joyida turibdi. Yodgorlik VIII asrning birinchi yarmida, taxminan, 732-yilda tiklangan. J.Klosonning yozishicha, bitig sarkarda Alp Eletmish xotirasiga tiklangan<sup>6</sup>.

6. **Moyunchur bitigi.** Bu bitigni fin olimi G.I.Ramstedt 1909-yilda Shimoliy Mo'g'ulistonda Selenga daryosi va Shineusu ko'liga yaqin yerda topgan. Bitig va uning tarjimasini 1913-yilda nashr ettirgan. Bitiktosh 759-yilda qo'yilgan deb taxmin qilinadi. Qadimgi turkiy tilning taxminan V-X asrlarda vujudga kelgan.

7. **Yenisey bitiglar.** Oltoy o'lkasi va Yenisey daryosi tevaragida topilgan ko'k turk yozuvidagi yodgorliklar “yenisey bitiglar” deb yuritiladi. Ularning soni ko'p, lekin hajman katta emas. Yiriklari 15-16 qatorli bo'lib, qabr toshlariga bitilgan.

8. **Irq bitigi** ko'k turk xatidagi yaxlit kitob holida saqlangan. Qadimgi turkiy tilda irq – “fol”, irq bitig “fol kitobi” degan ma'noni anglatadi. Manbani A.Steyn Xitoydagi Dunxuan yaqinidagi “Ming budda g'ori” nomli ibodatxona xizmatchisidan Londonga olib kelgan. Asarni

<sup>6</sup> Соликов К. Туркий эзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. - Тошкент, 2006. –Б.6-7.

dastlab V. Tomsen 1912-yilda nashr etgan<sup>7</sup>. Asar 65 bo'jimdan iborat. Unda tush ta'birlari turli hayvon va qushlarning obrazlari, har xil voqealar bilan bog'lab bayon etiladi.

9. **Suja bitigi** Mo'g'ulistondagi Suja dovonining janubidan topilgan. Bitig ko'k turk yozivida bo'lib, IX asrda ko'chirilgan.

Ikkinchi davrga tegishli yodgorliklarga esa sug'd yozuvi asosida shakllangan uyg'ur yozuvida bitilgan matnlar kiradi. Ular turli mazmundagi va til xususiyati jihatidan ham har xil bo'lgan asarlar, hujjatlardan (moniy), buddaviy va xristian yodgorliklari deb qaralsa ham, bir umumiy nom bilan uyg'ur yozuvi yodgorliklari deb yuritiladi.

Uyg'ur yozuvida bitilgan yodgorliklarning eng muhimlari quyidagilardir:

1. **“Xuastuanift” (moniyning tavbanomasi)** moniylik diniy falsafiy asari, o'n besh bo'limdan iborat. Ilk o'rta asrlarda asarning eroniy, sug'diy, turkiy, xitoycha versiyalari keng tarqalgan. Bu yodgorlikning turkiy versiyalari uyg'ur, moniy yozuvida bo'lib, ular Sankt-Peterburg, Berlin va Londonda saqlanadi. Turfondan topilgan Sankt-Peterburg nusxasi uyg'ur yozuvida, Turfondan va «Ming budda g'ori» ibodatxonasidan topilgan Berlin va London nusxalari moniy yozuvida bitilgan. Bu yodgorliklarni 1910-1911-yillarda ingliz olimi Le Kok Berlin, Londonda, 1963-yilda L.Dmitrieva lotin alifbosida ruscha tarjimasi bilan nashr ettirgan. Olimlarning fikricha, asar qadimgi eroniy tillarning birida yaratilgan. Keyinchalik moniy ta'limotini yoyish maqsadida boshqa tillarga o'girilgan. Uning turkiy versiyasi, taxminan, VIII asrda yaratilgan. Asar tilining ko'k turk yodgorliklari tiliga yaqinligi, uyg'ur yozuvli nusxaning xat uslubi, shuningdek, asarning moniy yozuvida ham tarqalganligi ana shundan guvohlik beradi<sup>8</sup>.

2. **“Maytri simit no'm bitig”** (Maytri bilan uchrashish kitobi). Turk-budda diniy-falsafiy yodgorliklaridan biri, asli sanskrit tilida yaratilgan. Buddha ta'limotining bilimdonlaridan biri Aryachantri sanskritcha nusxadan tohar tiliga o'giran. Toharchadan Partanarakshit Karnavajiki qadimgi turkiy tilga tarjima qilgan (VIII asr). Tohar tilidagi brahma xatida yozilgan ikki nusxasi Qorashaharda, uyg'ur xatidagi turkiy versiyalari Turfonda topilgan. Ular hozir Berlin va Urumchi qo'lyozma fondlarida saqlanmoqda.

3. **“Altin yoruq”**. Asli qadimgi hind-sanskritcha «Suvamaprabhasa» (oltin jilo). Buddha diniga oid bo'lgan sutra (muqaddas

kitob)ning turkiy tarjimasi bo'lib, qisqacha «Oltun yoruq» nomi bilan yuritiladi. U dastlab tabg'ach (xitoy) tiliga, xitoy tilidan X asrda beshbaliqlik Singku Seli Tutung tomonidan qadimgi turkiy (turk uyg'ur) tiliga o'girilgan. Bizgacha uning 10 ga yaqin nusxasi yetib kelgan. 1910-yili S.E.Malov Suchjou shahriga yaqin Vungshagudan topgan va 1913-1917-yillarda nashr ettirgan (V.V.Radlov bilan birga) nusxa boshqalarga nisbatan mukammalroq bo'lib, Sankt-Peterburgda saqlanadi.

4. **“Syuan-szan kechmishi”** budda muhitida yaratilgan asarlardan biri, uning xitoycha va qadimgi turkiy versiyalari mavjud. Turkiy versiya uyg'ur xatida bo'lib, hozirda bo'laklarga bo'lingan holda Parij, Pekin, Sankt-Peterburgda saqlanmoqda. Asarni X asrda yashagan olim va tarjimon beshbaliqlik Shingqu Sheli qadimgi turkiy tilga tarjima qilgan.

“Syuan-szan kechmishi” Tan sulolasi davrida yashagan sayyoh Syuan-szanning budda yashagan o'lkalarga safari xususidagi memuar bo'lib, o'zida o'nlab afsona va rivoyatlarni, budda falsafasi, qadimgi Sharq xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy turmushi, ular yashagan mamlakatlar geografiyasi, tarixiga oid ma'lumotlarni jamlagan.

O'z zamonasining mashhur buddahunosi, ulug' ustoz nomini olgan Syuan-szan (turkiy matnda Xuintso) budda yo'riqlari, qonun-qoidalari bitilgan bitiglarni olib kelish maqsadida Hindistonga safar qilgan. U 17 yil (629-645) davomida 120 dan ortiq o'lkalarda bo'lgan.

5. **“Sekiz yukmak”**. Turfondan topilgan bu yodgorlik matnini nemis olimlari V.Bang, A.fon Gaben va turk olimi G.R.Rahmatiyalar 1934-yilda Berlinda nashr ettirganlar. Bulardan tashqari, uyg'ur yozuvida yozilgan bir qancha obidalar, turli afsonalardan olingan parchalarning matnlari bitilgan yodgorliklar bor. Shuningdek, VIII-X asrlarga va keyingi davrlarga oid juda ko'p uyg'urcha yuridik-huquqiy hujjatlar ham mavjud. Bu yodgorliklarda ham adabiy til, ham xalq so'zlashuv tili xususiyatlari aks etgan.

G'arbiy turk xoqonligi davri (VI-VIII asrlar)da turkiy qabilalar o'troqlasha boshladi. O'troqlashgan turklar shaharda hunarmandchilik, savdo-sotiq bilan shug'ullanadi, cho'l va qishloq joylarda esa dehqonchilik qiladi. Buning natijasida turkiy qabilalarning etnik jihatdan o'zaro yaqinlashuvi va fors tillarida so'zlashuvchi xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari kuchayadi.

VIII asrda G'arb va Janubda – Movarounnahr hududi (Samarqand, Buxoro, Choch, Farg'ona, Xorazm)da yashagan aholi va sug'diy-eroniy xalqlar arablar tomonidan bosib olindi, Abbosiylar xalifaligiga qaram bo'lib qoldi. Bu yerdagi xalqlar esa islom dinini qabul qiladi. Bu tarixiy hodisa

<sup>7</sup> Абдурахмонов Г., Рустамов А. Қадимги туркий тил. –Т.: Ўқитувчи, 1982. –Б.4-5.

<sup>8</sup> Содиков Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. - Тошкент, 2006. –Б.10.



Movarounnahrda yashagan xalqlarning, shu jumladan, turkiy xalqlarning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga, fan va adabiyotning rivojiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, IX asrning 2-yarmidan, Somoniylar davridan boshlab turkiy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy siljishlar sodir bo'ldi. Jumladan, urug'-qabilachilik munosabatlari kuchsizlanadi, feodal munosabatlar rivojlanib bordi.

Shu asnoda turk xoqonligi davrida turkiy qabilalar to'liq tabaqalanadi. Markazlashish, o'zaro birlashish jarayonida qo'shilish va ajralib ketish asosida rivojlangan turkiy tillar uyg'urlar hukmronligi davrida umumturkiy adabiy til sifatida shakllandi. Bu adabiy tilning tashkil topishida qarluqchigil tillari, shuningdek uyg'ur tili asos sifatida qatnashdi, uning taraqqiyotiga ma'lum darajada ta'sir qiladi. X-XII asrlarda Qoraxoniylar hukmronligi davrida qo'llangan, ma'lum darajada me'yorga solingan turkiy adabiy til qisman o'g'uz-qipchoq tillari xususiyatlarini ham o'z ichiga olar edi. Eski o'zbek adabiy tilining xalq tili sifatida shakllanish davri ham mana shu vaqtlarga to'g'ri keladi.

#### Savol va topshiriqlar

1. Oltoy tili, qadimgi til, bobo til tushunchalari haqida ma'lumot bering?
2. "Eng qadimgi turkiy til", "Qadimgi turkiy til" davrlari qaysi asrlarni o'z ichiga oladi?
3. Ko'k turk manbalari qayerdan topilgan?
4. O'rxun-Yenisey yodgorliklariga qaysi manbalar kiradi?
5. Ko'k turk yodnomalari nimalarga bitilgan?
6. O'rxun-Yenisey manbalari ilm ahliga qachon ma'lum bo'ldi?

#### Test sinovi

##### 1. Oltoy, xun bosqichlari qaysi til davriga mansub?

- A) Qadimgi turkiy til S) Eng qadimgi turkiy til  
B) Eski turkiy til D) Oltoy tili

##### 2. Eng ko'hna turkiy yozma yodgorliklar qaysi til davriga oid?

- A) Eng qadimgi turkiy til S) Eski turkiy til  
B) Qadimgi turkiy til D) Oltoy davri

##### 3. "Sekiz yukmak" qayerdan topilgan?

- A) Mo'g'ulistondan S) O'rxun daryosidan  
B) Yenisey daryosidan D) Turfondan

##### 4. "Syuan-szan kechmishi" qaysi muhitda yaratilgan?

- A) budda muhitida S) islom muhitida  
B) moniy muhitida D) zardushtiylik muhitida

##### 5. "Xuastuanift" (moniylarning tavbanomasi)ning Turfondan

##### topilgan Sankt-Peterburg nusxasi qaysi yozuvda?

- A) uyg'ur S) so'g'd  
B) moniy D) oromiy

##### 6. O'rta va Markaziy Osiyoda yashaydigan qaysi xalqlar "turkiy xalqlar" nomi bilan yuritiladi?

- A) qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz B) turkman, uyg'ur, tatar  
S) boshqird, chuvash, ozarbayjon D) barcha javoblar to'g'ri

##### 7. Ko'k turk xatidagi yaxlit kitob holda saqlangan asarni toping?

- A) O'ngin bitigi B) Moyunchur bitigi  
B) Irq bitigi D) Oltun yorug

##### 8. Davlat arbobi va sarkarda To'nyuquq qaysi davrda yashab o'tgan?

- A) birinchi turk xoqonligi B) ikkinchi turk xoqonligi  
B) uyg'ur xoqonligi D) qirg'iz xoqonligi

#### ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. –Т.: Уйғувчи, 1982.
2. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008.
3. Малов С. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. -М.-Л., 1951.
4. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009.
5. Sanaqulov U. O'zbek yozma adabiy tili fonetik, morfologik me'yorlarning ilk shakllanishi va taraqqiyoti bosqichlari. – T.: Navro'z, 2015.
6. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзига келиши ва тикланиши. - Тошкент, 2006.

#### 2-§. QADIMGI TURKIY YOZUVLAR

**Asosiy tushunchalar:** *grafika, ilk yozuv, yozuv belgisi, rasmlil yozuv, tovush tili, "imo-ishoralar" tili, xitoy yozuvi, kursiv yozuv, misr yozuvi, oromiy yozuvi, so'g'd yozuvi, ko'k turk yozuvi, uyg'ur yozuvi, ideografik yozuv, shumer yozuvi, moniy yozuvi.*

Ma'lumki, grafika tilshunoslikning bo'limi bo'lib, unda ma'lum bir tilning yozuv sistemasi o'rganiladi. Yozuvning dastlabki bosqichi sifatida rasmlil yozuv e'tirof etiladi. Rasmlil yozuvga ibtidoiy san'at asos bo'lgan.

Yozuvning bu turi faqat olamni anglash ifodasi sifatida emas, balki insoniyatning badiiy ehtiyojini qondirish yoki sehr-jodu maqsadlarda qo'llangan. Yozuvning bu turi qachon paydo bo'lgani to'g'risida aniq dalillar yo'q bo'lsa-da, arxeologlar "ibtidoiy san'atning ilk izlari sifatida so'nggi tosh davriga mansub"ligini aytadilar. Neolit davrida esa ma'lum darajada ishlangan alifbo paydo bo'ldi.

Yozuv qanday paydo bo'lgan, degan savolga olimlar turlicha javob beradilar. XX asrning birinchi yarmida yozuvning paydo bo'lishi to'g'risida N.Marr va I.Meshchaninov ilk bor o'z qarashlarini ilgari surdilar. Ularning nazariyasi bo'yicha, tilning ikki turi bo'lgan: birinchisi – tovush tili, ikkinchisi yozuv tili. Ilk yozuv hatto tovush tilidan, boshqacha aytganda, "imo-ishoralar" tilidan oldin paydo bo'lgan. Ular yana shuni ta'kidlaydilar, ilk yozuv magik (ya'ni sehr- jodu) vazifani bajargan. Chex tilshunosi Ch.Loukotka ham bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, G'arb tilshunosligida ham N.Marr bilan I.Meshchaninovlarnikiga yaqin fikrlar paydo bo'ldi. Jumladan, G.Malleri Amerika hindulari tilida ko'pgina belgilar imo-ishoralar tilidan kelib chiqqanini isbotladi. Shu tariqa yozuv "tushuncha-so'z-yozuv belgisi" ko'rinishidagi yangi qo'shimcha aloqalarni yaratadi. Chjon Chjen-Min ham jamiki xitoy ierogliflari imo-ishoralar tilidan kelib chiqqanini dalillashga urindi. Ieroglifik yozuvning dastlabki namunalariidan bo'lgan xitoy yozuvida bitta element bilan yozilgan xat uchramaydi. Xitoy yozuvidagi hozirda mavjud bo'lgan belgilar rasmiy yozuv bilan baravar ravishda paydo bo'lgan. Shuning uchun xitoy yozuvidagi hamma ieroglifik belgilarni imo-ishoralarga bog'lash uchun asos yo'q. Bunga qo'shimcha dalil sifatida Misr va shumer yozuvlarini keltirish mumkin. Bu har ikki yozuvdagi belgilarga imo-ishoralar aslo ta'sir etmagani o'z isbotini topgan. Bu yozuvlarda narsa-buyumlar tasviri asosiy o'rin egallaydi. Dastlabki mukammal yozuvlar sifatida ana shu ikki ideografik yozuvni ko'rsatish mumkin. Bu yozuvlarning paydo bo'lishi to'g'risida ham G'arbda turli qarashlar bor. Jumladan, Misr yozuviga Mesopotamiya, ya'ni shumer yozuvi ta'sir etgan degan qarashlar mavjud. Ammo ko'pchilik olimlar, Misr yozuvi mustaqil ravishda rivojlangan, deb qaraydilar.

Misr yozuvidagi belgilarning eng diqqatga sazovor tomoni, yuqorida aytib o'tilganidek, unda narsa-buyumlar tasviri asosiy o'rin egallaydi. Yozuvdagi ana shu suratlar o'ninchi ming yillik - yozuv paydo bo'lgan davrdan boshlab milodiy III—IV asrgacha davom etib kelgan monumental yozuvda saqlangan. Kundalik turmushda qo'llana borgan sari, shuningdek, kitobatchilikda belgilar tez yozilishi natijasida ilk davrdagi suratli

atomatlarini yo'qotgan va harfli yozuvga yaqinlashgan. Suratli monumental yozuv va kursiv yozuv hozirgi yozuvdagi bosma va qo'lyozma shakllarga o'xshab ketadi. Misr yozuvi belgilari miqdori taxminan besh yuz atrofida bo'lgan. Misr yozuvi ikki usul - gorizontol holda o'ngdan chapga yoki vertikal holatda yuqoridan pastga, ustunlar ham o'ngdan chapga qarata yozilgan.

Shumer mixxatlari Efrat va Dajla daryolari oralig'ida miloddan oldingi to'rtinchi-uchinchi ming yilliklarda paydo bo'ldi. Misr yozuvi papiruslarga, shumer mixxatlari esa loy "taxtacha"larga bitilgan. Mixxatlar, shumerlardan tashqari, Urartu (Armaniston, mil. ol. I ming yillik), xetlar (mil. ol. I ming yillikda Kichik Osiyo), akkadlar va boshqa bir qator xalqlarda ishlatilgan. Mixxatlar Sharqda keng hududga tarqalgani uchun bu yozuv turini "Qadimgi Sharqning lotin yozuvi" deb ham ataydilar,

Keyingi yillarda shunday fikrlar paydo bo'ldiki, yozuvning ilk shakllari-biz so'nggi paleolit davriga oid deb qaralayotgan belgilar o'z shaklini tabiatdan, tabiatda paydo bo'lgan jonzotlardan, samoviy jismlardan olgan, shuningdek, ko'p belgilar ham imo-ishoralar tilidan kelib chiqqan ekan. Yozuvning bu bosqichi formulasi quyidagicha: belgi+nom+belgining talqini+so'z-tushuncha. Bu ham yozuvning paydo bo'lishi va taraqqiyotidagi muhim g'oya bo'la oladi.


Umuman, yozuvning ma'lum belgilari paydo bo'lishining biron sababi bor, sababsiz belgilar paydo bo'la olmaydi. Yozuvlarning kelib chiqishini bitta manbaga bog'lab bo'lmaydi. Ayrim olimlar aytganidek, rasm-rusmlar, "shomonlar"ning xatti-harakatlari ham ayrim belgilarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgani ehtimoldan xoli emas. Binobarin, har bir xalqning yozuvi paydo bo'lish sabablarini, avvalo, ichki omillardan, keyin tashqi omillardan qidirish maqsadga muvofiqdir<sup>9</sup>.

Qadimgi turkiy yodnomalar urxun, uyg'ur, sug'd, moniy, brahma, suryoniy yozuvlarida bitilgan.

### O'rxun yozuvi

Ko'k turk yozuvining ildizlari va shakllangan davri xususida tugal bir to'xtamga kelingan emas. Turkiyshunoslikda bu masalada qator, xatto bir-biriga zid fikrdar bildirilgan. Ayrim olimlar uning asoslarini qadimgi turkiy tamg'alar (urug'-qabila belgilari)ga bog'laganlar. Ularning fikricha, ko'k turk xati ayni tamg'alar asosida shakllangan. Boshqa bir qarashga binoan, ushbu yozuv oromiy alifbolari, aniqrog'i, sug'd xatining negizida paydo

<sup>9</sup>Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. - T.: O'zbekiston faylasullari milliy jamiyati, 2009. -B. 41-42



bo'lgan. Sug'd xatining takomillashgan shakli mazkur alifboning shakllanuvda asos bo'lib xizmat qilgan; unga ayrim o'zgartishlar kiritish, yangi belgilar orttirish yo'li bilan yozuv turkiy tilga moslashtirilgan. Bu madaniy jarayon ko'k turk xoqonliklari davrida, taxminan, VI yuz yilliklarda yuz bergan.

Yozuvning genezisi masalasida yana bir fikr diqqatga molik. Unga binoan, ushbu alifbo turkiy muhitda kashf etilgan, shuning uchun unda turkiy tilning fonetik-fonologik xususiyatlari yaxshi inobatga olingan. Shu bilan birga, u oromiy, sug'd, pahlaviy yozuvlarining kuchli ta'sirida bo'lgan.

Paleografik kuzatuvlar, qadimiy yozuvlarni o'zaro qiyoslash olimlarni yana bir fikrga olib kelmoqda. Jumladan, A.Amanjolvovning e'tiroficha, ushbu yozuvning tarixi miloddan burungi I ming yilliklarga tutashadi. Uning Old Osiyo yozuvlariga o'zakdosh bo'lgan qadimgi yunon va somiy-finiy yozuvlari bilan ayrim jihatdan bog'liqligi bor.

Ta'kidlash kerakki, ko'k turk alifbosining tizimi va yozuv prinsiplari tamoman o'ziga xos. U qadimgi hamda o'rta eroniy tillarning tovush qurilishiga moslashgan oromiy yozuvlaridan farq qiladi. Ma'lumki, oromiy yozuvlarida harflar bir-biriga ulanadi. Ko'k turk xatida esa harflar ulanmay, ayri-ayri yozilgan. Turkiy yozuv sug'd xatining so'nggi takomillashgan kursivli turidan shakllangan ekan, yangi yozuvda harflarni ajratib yozishning ma'nisi nima? Bu hodisa yozuv tarixida progress emas, orqaga qaytish bo'lmaydimi? Shunday bo'lgan deya faraz ham qilaylik. U holda turklar sug'd xati negizida boshqa bir alifbo - uyg'ur xatini yaratganliklarini qanday tushunmoq kerak? Ma'lumki, uyg'ur xatini yaratish jarayonida sug'd yozuvidan u qadar chekinish bo'lgani yo'q. Uyg'ur xati paleografik jihatdan sug'd xatining so'nggi tezkor shakliga juda yaqin turadi. Nazarimizda, uyg'ur xatining kashf etilishi va o'ta ommalashuvi, hatto keyinchalik ko'k turk xatini iste'moldan siqib chiqarishining sabablaridan biri ham uning kitobat ishida qulayligi bo'lgan.

Sug'd alifbosida 22 harf mavjud edi. Uyg'ur alifbosida unga bir belgi - <1> harfi orttirilib, 23 harfdan foydalanilgan. Lekin ko'k turk matnlaridagi harflar soni 38-40 atrofida (ayrim matnlarda bundan ham ortiq). Yuqoridagi faraz nazarda tutilgan taqdirda alifboda harflar sonining salkam ikki bor orttirib yuborilishining boisi nima?

Sug'dcha harflar bilan ko'k turk harflarining ba'zilarini o'zaro chog'ishtirish ham mumkin. Turkiy alifboda mazkur belgining (<1>) ikkinchi eshi - varianti bor. Masalan, <r> harfi sug'dcha <r>ga o'xshash deydigan bo'lsak, uning yo'g'on shakli - <r> sug'dchadagidan tamoman

farq qiladi.

Yana bir xususiyati: ko'k turk xatida ayrim ideografik belgilarni ham kuzatish mumkin. Jumladan, tadqiqotchilarning e'tiroficha, <y> harfining genezisi ay (oy) so'zi bilan bog'liq. Ya'ni o'ying ko'rinishini nazarda tutib, ushbu harfni yaratganlar deb faraz qilish mumkin (yozuvda au so'zi oy shaklidagi <y> bilan yoziladi). Shuning singari <r> harfi er (odam) ko'rinishi, <oq> harfi «o'q»ning ko'rinishi, <t> esa «tom»ning ko'rinishi asosida shakllangan ko'rinadi, chamasi. Ayni faraz to'g'ri bo'lgan taqdirda, ko'k turk yozuvining turkiy muhitda kashf etilgani mutlaqo shubha tug'dirmaydi.

Muhimi, ko'k turk yozuvida qadimgi turkiy tilining fonetik-fonologik xususiyatlari to'laligicha inobatga olingan edi. Ko'k turk alifbosi turkiy xalqlar tarix davomida qo'llagan yozuvlar ichida o'z tillariga eng muvofiqlashgani edi. Yozuvning bu kabi xususiyatlarini hisobga olmay, uning asosini boshqa yozuvlarga to'g'ridan-to'g'ri bog'lab qo'yish, nazarimizda, o'zini oqlamaydi.

Ko'k turk yozuvining oromiy yozuvlari, xususan, sug'd xatiga ayrim jihatdan bog'liqligini umuman inkor etmaslik kerak (bu yozuv ham finikiy alifbo tizimiga borib tutashadi). Lekin yozuvning shakllanishini keyingi davrlarga yoki aynan sug'd alifbosigagina bog'lab qo'yish, bizningcha, asossiz. Turkiy yozuvning paleografik xususiyatlari va fonetik-fonologik vazifasi uning bir yo'la emas, asta-sekinlik bilan, asrlar davomida, qadimgi turkiy tilning tovush qurilishi bilan uzviy holda rivoj topganidan dalolat bermoqda.

Bizgacha saqlanib qolgan O'rxun-Yenisey bitig'lari ushbu yozuvning ilk bosqichiga oid emas, balki uning takomillashgan bosqichida yaratilgan. Demak, ushbu yozuvning tarixi bizgacha yetib kelgan yodgorliklardan qadimiydir.

Ko'k turk xatini ba'zi olimlar bir paytning o'zida kengashib yaratilgan, deb ham hisoblaydilar. Lekin so'nggi o'n yilliklarda topilgan yodgorliklar ushbu yozuvning paydo bo'lgan davrini miloddan avvalgi asrlar bilan bog'lash mumkinligini ko'rsatmoqda. Jumladan, Almati yaqinidagi Issiq qo'rg'onidan, O'zbekistonning janubidagi qadimgi shahar xarobalaridan chiqqan bitiglar buning dalilidir. Qadimgi turkiy yozuv madaniyatini tadrijiy jarayon sifatida yaxlit talqin etmoq uchun ushbu topilmalar ustida yana chuqur tadqiqotlar bajarilmog'i lozim.

Qadimgi turk xati shu qadar keng yoyilgan ediki, yozuvning ilk o'choqdari qayerlarda bo'lgan, degan savol ham tug'iladi. Bu masalada yozuv, asosan, ko'k turk xoqonlikdari davrida Yenisey va O'rxun daryolari

tevaragida yoyilib, taraqqiy etgan deb qarash kifoya emas. Bir yog'i Sibu, Oltoy o'lkalaridan Markaziy Mo'g'uliston (Sharqiy Turkistonga qadar, ikkinchi yog'i Afg'onistondan tortib Kaspiy atrofi bo'ylab Sharqiy Yevropagacha bo'lgan ulkan hududdan) topilgan va topilayotgan turkiy bitiglar ilk o'rta asrlarda ushbu zaminda yozuv madaniyatining g'oyat ravnaq topganidan dalolat bermoqda. Muhimi shundaki, mazkur yodgorliklarning xat shakli xilma-xil. Ularni paleografik jihatdan yagona guruhga birlashtirib bo'lmaydi. Har qaysi hududda amal qilgan yozuv paleografik jihatdan o'ziga xos ayrim belgilari, ba'zi imlo xususiyatlari bilan ham farqlanib turadi. Jumladan, O'rxun bitiglarida qo'llangan belgilar soni Yenisey va Talas bitiglaridagi belgilar bilan barobar emas. Matnlarda bir-biridan farq qiluvchi belgilar bor, ayrim harflarning shaklida ham o'zgarish yuz bergan. Yoki O'rta Osiyo hududida yozuvning o'ziga xos ko'rinishi amal qilgan. Yozuvning bu xususiyati ba'zi olimlarni turk runiy bitiglarini bir necha alifboda bitilgan degan mulohazaga ham olib kelmoqda. I.Kizlasovning fikricha, ushbu bitiglarda sakkiz xil alifbo amal qilgan. O'rxun-yenisey yodgorliklari o'zaro yaqin bo'lgan ikki xil alifbo - o'rxun va yenisey xatida. Talas bitiglarini esa ularga o'zakdosh uchinchi alifboda bitilgan<sup>10</sup>.

O'rxun yozuvi turkshunoslik va yozuv tarixiga oid asarlarda «O'rxun-Yenisey yozuvi», «Yenisey-o'rxun yozuvi», «Sibir yozuvi», «turkiy run(a) yozuvi», «ko'k turk yozuvi» deb yuritiladi.

Barcha mavjud yozuvlarda bo'lganidek, O'rxun-Yenisey yozuvi ham zamoni va makoni bilan bog'liq bo'lgan ayrim shakliyl farqlar tufayli o'rxun, turfon va yenisey variantlariga ega. Bularning eng qadimiysi o'rxun variantidir. Mazkur yozuv arab yozuvi singari o'ngdan chapga qarab yozilgan va o'qilgan fonetik yozuv tizimiga kiradi. Har bir tovush yoki tovushlar birikmasi maxsus harflar bilan ifodalaniib, bir-biriga ulanmay, yakka-yakka yozilgan. Ko'p hollarda (asosan, so'z boshi va o'rtasida) unli harflar yozilmagan, tinish belgilar ishlatilmagan. So'zlar, ba'zan morfema yoki so'z birikmalarini bir-biridan ajratish uchun ular o'rtasiga ikki nuqta (:) qo'yilgan, shartli ravishda u «ayirg'ich» deb atalgan.

O'rxun-Yenisey yozuvini tekshirish va o'rganishda V.Tomsen, V.Radlov, M.Meliorskiy, A.Polovsev, G.Geykel, S.Malov, L.Gumilyov, D.Nemet kabi rus va yevropalik olimlarning xizmatlari katta. O'zbek olimlaridan G'.Abdurahmonov, A.Rustamov, N.Rahmonov, Q.Sodiqovlar ham o'rganib, muayyan tadqiqotlarni amalga oshirganlar. Ushbu

yodgorliklarni tadqiq etish hozirgi kunda ham davom etmoqda. Ularga xos ayrim leksik birlik va grammatik shakllar hozirgi o'zbek, uyg'ur, osarbayjon, qirg'iz, qozoq, turkman, qoraqalpoq, tatar, boshqird, qarachoy, bolqor kabi turkiy tillarda uchraydi. Bu yozuv turkiy tillar tarixi, madaniyati, etnografiyasi, til va yozuvlari tarixini o'rganishda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Ko'k turk bitiglarida unliharf to'rt harf yordamida ifoda etilgan: <a-ä>, <ı-i>, <o-ö>, <u-ü>. Muhim belgilaridan biri, unliharf, asosan, birinchi bitig'ida yoziladi, singarmonizm qonuniga ko'ra keyingi bitig'ida hosil bo'luvchi unli yozilmaydi.

Undoshlarni ifodalovchi harflar uch guruhga bo'linadi:

1. Yozuvda undoshlarning yo'g'on va ingichka variantlarini farqlamaydigan harflar. Bular: *z, m, η, p, ç, š, ny*.

2. Yozuvda undoshlarning fonetik juftini ifodalaydigan harflar: *b, b', g, g', d, d', y, y', q, k, l, l', n, n', r, r', s, s', t, t'*.

3. Yonma-yon kelgan undoshlarni ifodalaydigan harflar: *lt, nt, nç, rt*.

Ko'k turk yozuvi qadimgi turkiy tilning fonetik-fonologik, morfofonologik xususiyatlariga moslashgan edi. Buni yozuvning turkiy singarmonizm (unliharf uyg'unligi) qonuniga bo'ysunganligida yaqqol kuzatish mumkin. Yozuv belgilari so'zning fonetik-fonologik tabiatini anglatib turadi.

Ba'zi undoshlar qanday unli bilan yondosh kelishi, bo'g'inning holatidan kelib chiqib, turli harflar yordamida ifoda etilgan. Masalan: [q] tovushi -iq, -qi morfo-fonologik ko'rinishida muayyan harf, -aq, -qa holatida boshqa bir harf, -uq, -oq, qu, -qo holatida uchinchi bir harf bilan yoziladi. Ayni hodisani [k] tovushining ifodasida ham kuzatiladi.

1. **A harfi.** Bu harf ikki uchi ilgakli tayoqchadan iborat. Ilgakning biri o'ngga, biri chapga qaragan: **ʃ**. Qaysi birining o'ngga qaragan bo'lishining ahamiyati yo'q. Shuning uchun bu harf ikki ko'rinishga ega. Biroq ustki ilgak o'ngga, pastki ilgak chapga qaragan a bo'lib, bu O'rxun yodnomalariga xos. Ikkinchisida aksincha - ustki ilgak chapga, pastki ilgak o'ngga qaragan. Yenisey bitiklarida har ikkala ko'rinishi ham bor. Bu harf til oldi *ā* va til orqa *a* tovushini bildiradi. *A* yoki *ā* ekanligini undosh tovushlarni ifodalovchi harflardan bilish mumkin. *A* harflari so'z boshida ishlatilmaydi. Masalan: *ata* so'zida ikki harf bo'lib, birinchi harf *t*, ikkinchisi *a* tovushini bildiruvchi harf bo'ladi. Ko'rinadiki, mazkur yozuvda so'z boshidagi *a* va *ā* unliharf yozuvda aks etmaydi. Shuning uchun ayrim o'rinlarda so'z boshidagi undoshlarga *a* yoki *ā* unliharfni qo'shib o'qish kerak: **ʃʃ** *ata* - ota, **ʃʃ** *qar* - qor, **ʃʃ** *bilgā* - dono (KT).

<sup>10</sup> Содиков К. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши - Тошкент, 2006. -Б.100-102.

Boshqa yozuvdagi yodnomalarni ilmiy ravishda o'qishni ta'minlash maqsadida transliteratsiya va transkripsiyadan foydalaniladi. Transliteratsiya (harf ag'darish)da bitigdagi harflar, transkripsiyada esa tovush yoki fonemalar maxsus belgilar bilan aniq beriladi. Demak transliteratsiya yozuvni aniq aks ettirsa, transkripsiya talaffuzni aniq aks ettiradi.

**I** harfi. Bu harf bir ilgakli tayoqchadan iborat bo'lib, ilgak yuqoriga va o'ng tomonga qaragan: **Γ**. Agar ilgak chapga qaragan bo'lib yuqorida bo'lsa, *p* ni bildiruvchi harf, pastda bo'lsa qalin *l* tovushini anglatuvchi harf bo'ladi. I harfi til oldi *i* va til orqa *i* tovushini bildiradi va *a* harfidan farq qilib, so'z boshida ham ishlatiladi: **Γini** - uka, **Γsakis** - sakkiz, **Γyagi** - yov (To'n).

Lablanmagan unlilar uchun qo'llanadigan bu ikki harf tovushlarning qatordagi farqini aks ettirmaydi, faqat tor-kengligini ko'rsatadi. Ikki ilgakli *a* harfi keng unlilarni va bir ilgakli *i* harfi tor unlilarini anglatadi. Lablangan unlilarni bildiruvchi harflar unlilarning qatordagi farqini ifodalab, ko'tarilishdagi farqini korsatmaydi. Shuning uchun ularning biri *oqu*, ikkinchisi *okü* harfi bilan ko'rsatiladi.

**O** (o'qu) harfi. Bu harf uchi o'ngga qaragan burchak shakliga > ega. O'qu harfi lablangan til orqa *o* va *u* unlilarini bildiradi: **o'guz** - o'g'iz, **toquz** - to'qqiz, **qadgu** - qaygu (BX).

**Ö** (o'ku) harfi. Bu harf bir butun va ikki yarim tayoqchadan tuzilib, yarim tayoqchalar burchak hosil qilgan holda butun tayoqchening o'ng tomoniga, yarmidan yuqorisiga quyidagi ilgaklarda birlashtiriladi: **Ö**. Bu harf lablangan til oldi *ö* va *ü* unlilarini bildiradi: **ötrü** - keyin, **türk** - turk, **uluğ** - ulug' (KT).

**E** harfi. Bu harf O'rxun yodgorliklarida yo'q. Buning shakli ayqashgan yoki yondoshgan ikki yoy yoki burchakdan iborat: **Ǝ**. Bu harf *e* tovushini bildiradi.

Quyidagi harflar **lab undoshlarini** bildiradi:

**P** (pi) harfi. Bu harf **1** harfidan ilgagining chap tomonga qaraganligi bilan farqlanadi *p* va *p* fonemasini anglatadi: **1apa** - opa (O'ngin), **1alp** - pahlavon (To'n).

**B** (ab) harfi. **Δ** *b* fonemasining "yo'g'on", **⚡** harfi "ingichka" variantini bildiradi: **Δbod** - urug', **Δbodun** - xalq, **ƎYIƎ** *bilig* - bilim, **ƎYIƎ** *bilgā* - dono (Ton).

**M** (mi) harfi. Bu harf **⊗** fonemasini anglatadi va *m* shakliga ega. Transkripsiyada ham, transliteratsiyada ham *m* harfi bilan ifodalanadi: **ƎYIƎ** *qamaği* - hammasi, **ƎYIƎ** - yigirma, **ƎYIƎ** **Ǝ** *semiz buqa* - semiz buqa

(To'n).

**Til oldi tish undoshlari:** **T** (at) harfi. **⚡**, **⚡** harflari *t* fonemasining "qalin" variantini, **h** esa "ingichka" variantini bildiradi. Bu harf transliteratsiyada *t* harfi bilan ko'rsatiladi. **⚡** belgisi ko'proq Yenisey manbalarida, **⚡** esa O'rxun bitiglarida uchraydi:

**⚡**, **⚡** harflariga misol: **ƎYIƎ** **Ǝ** *uruq buqa* - oriқ buqa, **ƎYIƎ** **⚡**

*Tonuquq* - kishi oti (Ton);

**h** harfining misoli: **ƎYIƎ** **h** *türk* - turk, **ƎYIƎ** **h** *bitig* - yozuv (KT).

**D** (ad) harfi. **⊗** harfi *d* fonemasining qalin, **x** esa ingichka variantini bildiradi. Transliteratsiyada *d* bilan beriladi.

**⊗** harfiga misol: **ƎYIƎ** **⊗** *taşda* - toshda, **ƎYIƎ** **⊗** *yadağ* - yayov (To'n).

**x** harfining misoli: **ƎYIƎ** **x** *adgu* - ezgu, **ƎYIƎ** **x** *öd* - vaqt (KT).

**S** (as) harfi. **Ǝ** harfi *s* fonemasining qalin, *s* ingichka variantini ifodalaydi, *s* ba'zan *sh* ni ham bildiradi. Misollar: **ƎYIƎ** **Ǝ** *asra* - pastda (KT), **ƎYIƎ** **⚡** *tabisgan* - tovushqon (To'n), **ƎYIƎ** **Ǝ** *sü* - qo'shin, **ƎYIƎ** **Ǝ** *kişi* - kishi (KT).

**Z** (zi) harfi. **Ǝ** harfi *z* fonemasini bildiradi. Transkripsiyada ham, transliteratsiyada ham *z* bilan beriladi: **ƎYIƎ** **Ǝ** *üzä* - yuqorida, **ƎYIƎ** **Ǝ** *yazı* - tekislik, **ƎYIƎ** **Ǝ** *qiz* - qiz (To'n).

**N** (än) harfi. **Ǝ** harfi *n* fonemasining qalin variantini, **Ǝ** ingichka variantini anglatadi.

**Ǝ** harfiga misol: **ƎYIƎ** **Ǝ** *qağan* - xoqon, **ƎYIƎ** **Ǝ** *saqintim* - o'yladim (To'n).

**Ǝ** harfining misoli: **ƎYIƎ** **Ǝ** *tün* - tun, **ƎYIƎ** **Ǝ** *tümän* - o'n ming (KT).

**Ǝ** harfi **ñ** tovushini bildiradi. Muhimi shundaki, **Ǝ** harfi bilan kelgan so'z boshqa bir o'rinda ikki harf - JN (ya'ni ny) bilan ham yozilishi mumkin: **ƎYIƎ** **Ǝ** (To'n)//**ƎYIƎ** **Ǝ** - *Toñuquq* (BX). Matnlardagi ushbu imlo xususiyati **Ǝ** harfining vazifasiga oydinlik kiritadi: u [ñ] tovushini ifodalagan. Ushbu harf quyidagi so'zlarda qo'llanilgan: **ƎYIƎ** **Ǝ** *añğ* - yovuz, **ƎYIƎ** **Ǝ** *qon* - qoy (KT).

O'rxun bitiglarida [ñ] bilan kelgan so'zlar keyingi davr matnlarida [n] yoki [y] bilan keladi. Masalan, uyg'ur yozuvli "Syuan-szan kechmishi" matnlarida: *ayğ* - yovuz, *çığay* - yoqsil; "Qutadg'u bilig"ning Hirot nusxasida: *qoy* - qo'y, *çığay* - yo'qsil.

[ñ] // [y] mosligi hozirgi o'zbek tilida ham uchraydi: *qanda-qayda*. Yoki qadimgi [n] *qani*, *qancha* kabi so'zlarda ham saqlanib qolgan.

Qadimgi [ñ] ni Mahmud Koshg'ariy arab xatida <n> harfi bilan bergan. Uning yozishiga qaraganda, [y] li so'zlarni [n] ga aylantirish dialektal xususiyatdir. So'z o'rtasi va oxirida kelgan [y] ni arg'ular [n] ga almashtirganlar: *qoy* - *qon* "qoy", *çığay* - *çığan* "kambag'al", *qayu* - *qanu*

“qaysi” (DLT,1,67). Ushbu misollarning bari ko‘k turk bitiglariga xon bo‘lgan [n̄] sonor [n] ga variant sifatida ([n~n̄]) qo‘llanganidan dalolat beradi.

**R (ar) harfi.** ʀ harfi *r* fonemasining qalin, ʀ esa ingichka variantini ifodalaydi.

ʀ harfiga misol: ʀ ʀ ʀ *arqis* - karvon, ʀ ʀ ʀ *qarlug* - urug‘ nomi (BX).

ʀ harfining misoli: ʀ ʀ ʀ *otru* - keyin, ʀ ʀ ʀ *yağiz yar* - qo‘ng‘ir yer (KT).

**L (al) harfi.** ʀ harfi *l* fonemasining qalin variantini, ʀ ingichka variantini aks ettiradi: ʀ ʀ *ulug* - katta, ʀ ʀ ʀ *ʀ ʀ yeti yoli* - yetti bor (KT); ʀ ʀ yoki ʀ *al* - yurt (KT), ʀ ʀ ʀ *aki alig* - qirq ikki (E).

**Til oldi-tanglay undoshlarini** bildiruvchi harflar: **Ch** (Chi) harfi. ʀ *Ch* fonemasini ifodalaydi: ʀ ʀ ʀ *Cugayquz* - joy nomi, ʀ ʀ ʀ *ucun* - uchun (To‘n), ʀ ʀ ʀ *Kulicor* - kishi oti (KCh).

**Sh** (Shi) harfi. ʀ yozuvda ʀ, ʀ shakllariga ega bo‘lib, *sh* tarzida o‘qiladi. ʀ O‘rxun bitiglarida, ʀ Yenisey bitiglarida qo‘llanilgan: ʀ ʀ *ʀ sad* - unvon nomi (KT), ʀ ʀ ʀ *taʀda* - toshda (To‘n), ʀ ʀ *yaʀ* - yosh, ʀ ʀ ʀ *qadaʀ* - o‘rtiq (E).

**Til o‘rta va til orqa undoshlari:** **Y** (Ay) harfi. ʀ *y* fonemasining qalin, ʀ ingichka variantini bildiradi.

ʀ harfiga misol: ʀ ʀ ʀ *ayguçi* - maslahatchi (To‘n), ʀ ʀ ʀ *ʀ ʀ ʀ* *Uygur yari* - Uyg‘ur yurti (E).

ʀ harfining misoli: ʀ ʀ ʀ *ʀ ʀ yati yuz* - etti yuz, ʀ ʀ ʀ *kayik* - yavvoyi hayvon (To‘n).

**Q (Aq) harfi.** ʀ, ʀ, ʀ harflari *q* fonemasini ifodalaydi. ʀ tovushi qanday unli bilan yondosh kelishi, bo‘g‘inning holatidan kelib chiqib, turli harflar ko‘magida ifoda etilgan. ʀ, ʀ morfo-fonologik ko‘rinishda ʀ {aq}, {qa} holatida ʀ, {uq}, {oq}, {qu}, {qo} holatida ʀ harfi bilan yozilgan. Ularninig orasida ʀ ning vazifasi kengroq. U ʀ bilan ʀ ning o‘rnida kela oladi, ammo keyingi ikkisi birinchisining o‘rnida ishlatilmaydi: ʀ ʀ *qan* - xon, ʀ ʀ ʀ *Qaraqum* - joy nomi, ʀ ʀ ʀ *qodup* - qo‘yib, ʀ ʀ ʀ *Qarlug* - etnos oti, ʀ ʀ ʀ *qirgiz* - etnos nomi, ʀ ʀ ʀ *qitan* - Xitoy (To‘n).

**K (äk) harfi.** ʀ, ʀ, ʀ harflari *k* tovushini ifodalaydi. ʀ undoshi qanday unli bilan yondosh kelayotgani, bo‘g‘inning holatidan kelib chiqib, turli harflar ko‘magida qo‘llanilgan. Bu harflarning ishlatilish o‘rni ham *q* ning ifodalanishi singaridir. Ularninig orasida ʀ ning vazifasi kengroq. U ʀ bilan ʀ ning o‘rnida kela oladi, ammo keyingi ikkita harf birinshisining o‘rnida

ishlatilmaydi: ʀ ʀ ʀ *kayik* - yavvoyi hayvon (To‘n), ʀ ʀ ʀ *kuc* - kuch, quvvat, ʀ ʀ ʀ *urk* - urug‘ nomi (KT).

ʀ (Ag) harfi. ʀ harfi *g* (g) tovushini ifodalaydi: ʀ ʀ *yaği* - yov (KT), ʀ ʀ ʀ *ʀ ʀ ʀ ulug oğlum* - to‘ng‘ich farzandim (E), ʀ ʀ ʀ *qazgan* - qo‘lga kiritmoq (To‘n).

ʀ (ilg) harfi. ʀ harfi *g* undoshini, ya‘ni *g* fonemasining o‘rta variantini anglatadi: ʀ ʀ ʀ *oguz* - daryo, ʀ ʀ ʀ *korug* - kuzatuvchi, ʀ ʀ ʀ *ulug* - ulush (To‘n).

**Nazal va birdan ortiq undoshlarni** bildiruvchi harflar: **D** (ang) harfi.

ʀ, ʀ harflari *ŋ* tovushini ifodalaydi: ʀ ʀ ʀ *tangri* - tangri, ʀ ʀ ʀ *ʀ ʀ ʀ tort bulug* - to‘rt yoq, dunyoning to‘rt tomoni, ʀ ʀ ʀ *ʀ ʀ ʀ kün bolti* - joriya bo‘ldi, ʀ ʀ ʀ *qaytm* - otam (KT).

**ʀ** (Inti) harfi. ʀ harfi yonma-yon kelgan *nt* tovush birikmasini bildiradi: ʀ ʀ ʀ *kantü* - o‘z (KT), ʀ ʀ *kant* - shahar (TT), ʀ ʀ ʀ *yont* - ot (MCh) *nt* tovush birikmasi ikki harf bilan ham yozilishi mumkin: ʀ ʀ ʀ *kuntü* - kunduz (To‘n).

**ʀ** (Inchi) harfi. ʀ harfi yonma-yon kelgan *nch* tovush birikmasini ifodalaydi: ʀ ʀ ʀ *arinç* - ekan, ʀ ʀ ʀ *sanç* - sanch (KT), ʀ ʀ unç - mumkin (To‘n), ʀ ʀ ʀ *qunçuy* - malika (E).

**ʀ** (Ilti) **ʀ** harfi yonma-yon kelgan *lt* tovush birikmasini ifodalaydi: ʀ ʀ ʀ *baltu* - bolta (Mon), ʀ ʀ ʀ *altmiş* - oltmish (E).

**ʀ** (Art) harfi. ʀ harfi yonma-yon kelgan *rt* tovush birikmasini bildiradi: ʀ ʀ *art* - tepalik (To‘n), ʀ ʀ ʀ *tart* - tartmoq (Oltun yorug‘)<sup>11</sup>.

### Uyg‘ur yozuvi

Hozir «uyg‘ur yozuvi» nomi bilan atalayotgan qadimgi turkiy alifbo o‘tmish manbalarida bir qancha nom bilan yuritilgan. Mahmud Koshg‘ariy «Devonu lug‘otit turk» asarida uni «turkcha yozuv» deb tilga oladi. Alisher Navoiy maktublarining birida uni «turkcha xat» deb atagan. Manbalarda mazkur yozuv «uyg‘ur xati», «mo‘g‘ul xati» deb ham yuritilgan. Chunonchi, XIII asrda yashab, ijod etgan shoirlardan Puri Baho Jomiy she‘rlaridan birida uni «uyg‘ur xati» (*xatt-i uyg‘uri*); Ibn Arabshoh «Ajoibu-l-makdur fi-navoibi Taymur» otli asarida «uyg‘ur xati», «Fokihatu-l-xulafu» asarida esa «mug‘ul xati» degan. Ushbu yozuv «Hibatu-l-haqoyiq»ning 1480-yili Istanbulda Abdurazzoq baxshi ko‘chirgan nusxasida «mo‘g‘ul xati» deb atalgan.

Kunimizgacha yetib kelgan uygu‘r yozuvli yodgorliklarning eng

<sup>11</sup> Неходов М., Содиқов К., Омонов Қ. Мангу битиглар - Т: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2009. - Ё. 45-55.

qadimgilari islom davridan ancha burun yaratilgan. Ushbu obidalar o'sha davr turklari ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayotining barcha sohalarini qamraydi. Adabiy, diniy- falsafiy, tarixiy, ilmiy asarlar, huquqiy, rasmiy-diplomatik bitiglar (yorliq, tilxat, guvohnoma va h.k.), xo'jlik ishlariga oid matnlar, qabrtoshlar, tashrifnoma va boshqalar shular jumlasidandir. Mavjud yodgorliklar ichida, ayniqsa, moniylik, buddizm, nasroniylik muhitida yaratilgan diniy-falsafiy asarlar salmoqli o'ringa ega. Ularning ko'pi qo'shni anatkak (sanskrit), to'xri (tohar), sug'd, tavg'ach (xitoy) tillaridan qadimgi turkiyga o'girilgan bo'lib, o'sha davr turkiy adabiyotida tarjimachilik ham muhim o'rin egallaganidan dalolat beradi.

Uyg'ur xatining joriy davri uzoq yuz yilliklarni qamraydi. Ayniqsa uning turkiy xalqlar arab yozuvini qo'llay boshlaganlaridan keyin ham o'sha mavqeini yo'qotmagani e'tiborga sazovor. Ma'lumki, X asrda Qoraxoniylar davlatida islom rasman qabul qilindi. Ammo qo'shni idiqut hokimiyati buddizmi yoqlab, sharqiy turklar orasida islomning yoyiluviga yo'l bermadi. Sharqiy turklar shu kezdan ikki dunyo - «musulmonlar» va «musulmon bo'lmaganlar»ga bo'linib qoldi. musulmon turklar ko'p o'tmay arab alifbosi asosida yangi yozuv yaratdilar. Oqibatda ular ikki an'ana sifatida davom etib kelayotgan qadimgi turk (uyg'ur) va keyinchalik islom ta'sirida qabul qilingan arab xatini qo'llay boshladilar. Uyg'ur yozuvi O'rta Osiyoda XV asrning oxirlariga qadar arab xati bilan yonma-yon qo'llanishda bo'ldi. Biroq, islom ta'siridan uzoqdagi turk-buddistlar yozuv an'anasini uzmay XVIII asrda ham undan foydalandilar. Uyg'ur xati o'sha tarixi davomida hatto arab alifbosi bilan yonma-yon qo'llangan chog'larda ham turkiy davlat va saltanatlarining asosiy rasmiy yozuvi bo'lib keldi. Mahmud Koshg'ariy turklar qo'llaydigan alifbo xususida ma'lumot berib turib, aynan uyg'ur xatini keltiradi. U shunday yozadi: «Barcha xoqonlar va sultonlarning kitoblari, yozuvlari qadimgi zamonlardan shu kungacha Qoshg'ardan Chingacha hamma turk shaharlarida shu yozuv bilan yuritilgan» (DLT, I, 50). Temuriylar zamonida yashab o'tgan tarixchi Ibn Arabshoh ham ushbu yozuvning «chig'atoyliklar»da shuhrat topganligini alohida ta'kidlagan edi: «Ular («chig'atoyliklar») o'zlarining tilxat, maktub, farmon, xat, kitob, bitim, solnoma, she'r, qissa, hikoyat, hisob, xotira va devonga tegishli hamma ishlarini, Chingizona tuzuklarini shu yozuvda yozadilar. Bu yozuvni yaxshi bilgan ularning orasida xor bo'lmaydi. Chunki bu ularda rizq ochqichidir»<sup>12</sup>.

Uyg'ur alifbosida harflar o'n sakkizta. Mahmud Koshg'ariy «Devonu

lug'atli turk» da uyg'ur alifbosini keltiradi va har bir shakl ostida arab harflari bilan ularning ma'nosini ham beradi (DLT, I, 47). O'n sakkiz harfli musulmon alifbo transkripsiyada tubandagi ko'rinishga ega bo'ladi: *a w x v z q k l m n b c r s t l*.

Alifboda harflar soni oz bo'lishiga qaramay, uyg'ur yozuvining imlo prinsiplari puxta ishlangan edi. Qator harflarga bir emas, bir qancha tovushni ifodalash vazifasi yuklatilgan. Ayniqsa, yozuvning keyingi bosqichi (XI-XV asrlarning yodgorliklarida) ba'zi tovushlarni farqlash maqsadida qo'shimcha nuqta va ishoratlardan unumli foydalanilgan. Puxta imlo va qo'shimcha grafik vositalar yozuvning imkoniyatlari keng shaklididan dalolat beradi. Shuning uchun ham uyg'ur xati yuz yilliklar davri o'sha turkiy tilning talablarini qondirib keldi.

Alifbo tarkibidagi harflarning ko'p vazifalik xususiyati haqida Mahmud Koshg'ariy alohida ta'kidlagan. Uning ta'kidlashicha, turkiy tildagi qator tovush uyg'ur yozuvida maxsus belgisiga ega emas. Bular: *p, z* (ing'uluvchi), *g, g, η* hamda arabcha *j, f* lardir. Ushbu tovushlar yuqorida ko'rsatilgan harflar vositasida ifoda etilgan yoki ular singari ifodalanib, qo'shimcha belgilar bilan farqlangan (DLT, I, 48). Bundan yozuvda quyidagi tovushlar bir xil harflar orqali ifoda etilganligi ayon bo'ladi: *k-g, x-g, c-f-z, w-f*. Sonor *ŋ* esa yozuvda ikki harf (*n+k*) bilan berilgan.

Alifbodagi harflarning oti ham bor. Bu ot muayyan harf ifodalagan tovushga «fatxa» qo'shib hosil qilingan: *a, wa, xa, va, za, qa, ya, ka, da, ma, na, sa, ba, da, ra, sha, ta, la*. Bu ketma-ketlik alifbo tartibidir. Yodlashni qulaylashtirish maqsadida alifbo harflarini uchta-uchtadan birlashtirib, *awaxa, wazaqa, yakada, manasa, bacara, satata* tarzida o'qilgan.

Uyg'ur alifbosidagi harflardan uchasi, o'rni bilan unilarni ifodalashga xizmat qilgan: <a> harfi [a]-[ā~e] unilalarini, [y] undoshini ifodalovchi <ya> harfi [j]-[i~e] ni, <va> harfi esa [u]-[ū]-[o]-[ō] unilalarini anglatadi. Yozuvda hatto old va orqa qator unilalar ham farqlangan. Yozuvning bu xususiyati sug'd xatini turkchallashtirish jarayonida vujudga kelgan. Chunonchi, sug'dcha yozuvda cho'ziq [a:] tovushi qisqa [a] dan qo'shaloq alif orqali yozilishi bilan farqlangan. Turklar sug'd xatini o'zlashtirish chog'ida uning ba'zi prinsiplarini o'z tillariga moslashtirganlar. Sug'd xatida cho'ziqlikni anglatuvchi grafik belgilar uyg'ur yozuvida cho'ziq-qisqalikni emas, turkiy til uchun muhimroq bo'lgan old va orqa qator unilalarini farqlashga xizmat qila boshladi. Turfondan topilgan qadimgi budda, moniy matnlarida so'z boshida qo'shaloq <aa-> harfi orqa qator [a] ni, <a-> esa old qator [ā (~e)] unisini ifodalagan. Keyinchalik orqa qator [a] tovushi uchun ham oddiy <a->

<sup>12</sup> Рустамов А. Ибн Арабшох туркий ёзувлар хақида // Адабий мерос. -Тошкент, 1976. – Б. 39.

harfidan foydalanilgan. Soʻz boshi va birinchi boʻgʻinda old qator yumshoq [o]-[a] unllilarini ifodalash uchun ham qoʻshaloq belgidan foydalanilgan. «va» harfidan soʻng «ya» ulangan. Old qator lablangan unllilar yozuvda ayni usul bilan orqa qator [o]-[u] unllilaridan farq qiladi.

Matnlarda choʻziqlikni ifodalash uchun baʼzan harflarni qoʻshaloq yozish holati kuzatiladi. Masalan: *oot* - oʻt, *olov*, *öðç* - oʻch, *qasos*, *uul* - asos, *yool* - yoʻl, *tüüs* - tush. Muhim xususiyatlardan yana biri, uygʻur xatida unllilar muntazam yoziladi. Mahmud Koshgʻariy yozuvning bu xususiyatiga toʻxtalib, talaffuzda oʻrni yoʻqligiga qaramay (bunda qisqa unllilar nazarda tutilmoqda fatxa oʻrnida ʻ «alif», zamma urnida ʻ «vav», kasma urnida ʻ «ya» yozish qoida ekanligini taʼkidlagan (DLT, 1,49). U misol tariqasida ayrim soʻzlarning uygʻur va arab yozuvlarida yozilish tartibini bergan. Arab xatida - KeLiN, uygur xatida - KELiN; arab xatida - TaPaN, uygʻur xatida - TAPAN (tuya tovon) (DLT, 1,384).

Uygʻur xatining yana bir afzalligi - matn talaffuzga moslab yozilgan. Masalan: Mahmud Koshgʻariy «Devonu lugʻatit turk»da keltirgan xaritasida **Xorazm** nomini **Xvārazm** deb beradi. Arab yozuvli boshqa yodgorliklarda ham ushbu toponim ana shunday yozilgan. Shu oʻrinda muhim bir faktga eʼtibor qaratish zarur. Xorazmiy qalamiga mansub «Muhabbatnoma» asarining ikki - arab va uygʻur yozuvlaridagi qoʻlyozma nusxalari maʼlum. Arab yozuvli nusxalarda muallifning sharifi **Xvārazm** tarzida yozilgan. Asarning uygʻur yozuvli qoʻlyozmasida esa u **Xārazm** shaklidir. Basharti, uygʻur xati talaffuz shaklini aniq ifoda etganligini nazarda tutsak, shoirning oti hozirgi oʻzbekchadagidek **Xārazmiy** (adabiy orfografik: Xorazmiy) emas, balki **Xārazmi**: shaklida talaffuz etilgani ayon boʻladi. Anglashiladiki, arab yozuvli matnlarda yozuv prinsipi saqlangan. Uygʻur xatida esa uning talaffuz shakli aks etgan. Shularga tayanib, joy oʻrni Xorazm shaklida talaffuz etilgan deyish mumkin. Yoki arabiy izofa arab xatidagi manbalarda **al-** artikli bilan yozilsa, uygʻur yozuvli matnlarda talaffuzga mos holda berilgan. Masalan: «Hibatu-l-haqoyiq» asarining nomi arab yozuvli matnida Hibat-al-haqoyiq, ostida esa uygʻur harflari bilan Hibat-ul-haqoyiq deb izohlab qoʻyilgan.

### Moniy yozuvi

Ushbu alifbo moniychi turklar orasida amal qilgan. Milodiy 247-yil Eronda Moniy boshchiligidagi yangi diniy oqimga asos solindi va oʻsha kezlardan boshlab Shom (Suriya)ning Palmira shahrida qoʻllanilgan yozuv shakli asosida tuzilgan moniy yozuvi ham amal qila boshladi. Keyinchalik ushbu yozuv moniy dini bilan birga Oʻrta va Markaziy Osiyoga ham kiritil-

ildi. Eronda VIII asrida moniylik uygʻur xoqonligining davlat dini sifatida amal qilgan chogʻlarda bu yozuv ham turklar orasida keng yoyildi. Moniy mazmunli turkiy yodgorliklar bizgacha ikki - moniy va uygʻur yozuvlarida yetib kelgan.

### Sugʻd yozuvi

U miloddan avvalgi III asrlarda oromiy xati negizida shakllangan boʻlib, milodning XI asriga qadar sugʻdlarning milliy yozuvi sifatida amal qilgan. Uzoq tarixiy birodarlik, qoʻshnichilik va birga yashash taʼsirida ushbu yozuv turkiy xalqlar uchun ham xizmat qila boshlagan. Turkiy xalqlar orasida keng qoʻllangan uygʻur yozuvi ham ana shu xat negizida shakllandi.

### Brahma yozuvi

U boʻgʻin yozuvi boʻlib, qadimgi sanskritcha alifbo negizida shakllangan. Turon zaminiga buddizm taʼsirida kirib kelgan.

### Suryoniy yozuvi

Milodning boshlarida Mesopotamiyaning gʻarbi-shimolida xristianlik tarqalgan edi. Bu oʻlkada oromiy alifbosi asosida shakllangan suryoniy xati amal qilgan. V yuzyillikning oʻrtalarida Suriya dindorlari ikki mazhabga boʻlinib ketgan. Ularning nasturiy mazhabidagilari oʻz yurtida taʼqib ostida qolgach, Erondan panohtopdilar. Nasroniylar bu yerda oʻzlarining taʼlimot maktablarini ochishgan. Mana shu maktab namoyandalari taʼlimotlarini mahalliy xalq orasiga ham yoydilar. Ularning missonerlik ishlari oqibatida nasroniylik VII-VIII asrlarda Hirot, Hamarqand, Qoshgʻar, hatto Hindiston va Gʻarbiy Xitoygacha yetib bordi. Bu oʻlkalarda nasroniylik bilan bir paytda suryoniy alifbosi ham tarqalgan. Suryoniy xati turk nasroniylar orasida ham qoʻllanilgan. Bizgacha yetib kelgan nasroniy mazmunli turkiy yodgorliklar ikki - uygʻur va suryoniy yozuvlaridadir<sup>13</sup>.

### Savol va topshiriqlar

1. Yozuvning dastlabki bosqichi sifatida qaysi yozuv eʼtirof etiladi?
2. Qadimgi turkiy yozuvlar xususiyatlari yoritilgan adabiyotlarni koʻrganing.
3. Qadimgi turkiy til davrida qaysi yozuvlar qoʻllanilgan?

<sup>13</sup> Соликов К. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. - Тошкент, 2006. -Б.110-114.



4. Turk runiy bitiglarida necha alifbo amal qilgan?  
5. Uyg'ur yozuvi qaysi alifbo asosida shakllangan?

### Test sinovi

#### 1. Ko'k turk yozuvining ildizi qaysi davrlarga tutashadi?

- A) miloddan oldingi I ming yillik S) miloddan burungi II ming yillik  
B) oltinchi yuz yilliklar D) uchinchi yuz yilliklar

#### 2. Sug'd yozuvi qaysi alifbo asosida shakllangan?

- A) yunon S) oromiy  
B) finikiy D) moniy

#### 3. Ko'k turk yozuvi nechanchi asrgacha qo'llangan?

- A) VIII asr S) X asr  
B) IX asr D) XI asr

#### 4. Uyg'ur yozuvi nechanchi asrgacha qo'llangan?

- A) XI asr S) XIV asr  
B) XII asr D) XVI asr

#### 5. "Turkcha yozuv" tushunchasini kim qo'llagan?

- A) Alisher Navoiy S) Yusuf Xos Hojib  
B) Ahmad Yugnakiy D) Mahmud Koshg'ariy

#### 6. Moniy yozuvi nechanchi asrda turkiylar orasida keng yoyilgan?

- A) VI asr B) VIII asr  
S) VII asr D) XI asr

#### 7. Brahma yozuvi qaysi alifbo asosida shakllangan?

- A) yunon B) oromiy  
B) sanskrit D) finikiy

#### 8. Ko'k turk matnlaridagi harflar soni nechta?

- A) 22 ta B) 38 ta  
B) 23 ta D) 38-40 ta atrofida

### ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Т. Ўқитувчи, 1982.  
2. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008.  
3. Исҳоқов М., Содиқов Қ., Омонов Қ. Мангу битиглар. – Т. Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2009.  
4. Малов С. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. -М.-Л., 1951.  
5. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. - T.: O'zbekiston

adabiyoti milliy jamiyati, 2009.

II Рустамов А. Ибн Арабшоҳ туркий ёзувлар ҳақида // Адабий Ҷамъа. Тошкент, 1976.

7. Kanaqulov U. O'zbek yozma adabiy tili fonetik, morfologik va grammatik jihatdan o'zgarishlarining ilk shakllanishi va taraqqiyoti bosqichlari. – T.: Navro'z, 2015.

II Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг тарихи ва тикланиши. -Тошкент, 2006.

9 Содиқов Қ. Қадимги туркий ёзувлар. -Тошкент, 1995.

III Умаров Э. Урхун ёзуви. -Тошкент, 2013.

### 3-§. QADIMGI TURKIY TIL FONETIKASI

**Asosiy tushunchalar:** *fonema, tovush o'zgarishlari, unlilar, undoshlar, singarmonizm, jarangli undoshlar, jarangsiz undoshlar, yonmalar, tanglay uyg'unligi, lab uyg'unligi, yonma-yon keladigan undoshlar, fonetik hodisalar.*

Ma'lumki, fonetika ma'lum bir til unli va undosh tovushlarining turli davrlardagi taraqqiyoti, har bir taraqqiyot davri uchun xos bo'lgan fonetik sistema, ayrim unli va undosh tovushlarning shakllanishi va tarixiy taraqqiyoti, asosiy fonetik qonuniyatlar kabi masalalarni o'rganadi.

Qadimgi turkiy til fonetikasi, undagi unli va undosh tovushlar haqida aniq va qat'iy bir fikr aytish mushkul, chunki ularning bevosita talaffuz ma'yorlarini kuzatishdan, tadqiq qilishdan mahrummiz. Bu haqda yodnomalar tilini o'rganish orqali xulosalar chiqarish mumkin. Ko'k turk bitiglaridagi harflar soni 38-40 ta atrofida. Ayrim matnlarda ularning soni bundan ham ko'proq.

### UNLILAR

Qadimgi turkiy tilda sakkizta unli fonema bo'lib, ular bir-biridan qatori, tor- kengligi, lablanish-lablanmasligiga ko'ra farq qiladi. Bulardan - *a, i, o, u* orqa qator, *ä, i, ö, ü* old qator unlilaridir. Keng unlilar - *a, ä, o, ö*; tor unlilar - *i, i, u, ü*. Lablanmagan unlilar - *a, ä, i, i*; lablangan unlilar - *o, ö, u, ü*.

Demak, *a* - lablanmagan, keng va orqa qator; *ä* - lablanmagan, keng lekin old qator unlidir. Bu unlining talaffuzi qozoq, qirg'iz hamda ko'pgina qardosh turkiy tillarda, shuningdek, o'zbek tilining singarmonizmli lahja va shevalarida saqlangan. Tatar va boshqird tillarida bu unli yanada orqaga siljishi va kengayishi natijasida *o* (hozirgi o'zbek tilidagi til orqa, lablangan

*o* unlisi)ga aylangan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ba'zi o'rinlarda oldingi tomon *o* ga yaqinlashgan, ayrim hollarda orqaga tomon kengayib *a* ga aylangan. Qadimgi turkiy tillardagi *ā* unlisi esa hozir torayib, ko'pgina turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilida birinchi bo'g'inda *e* ga aylangan. A.Amanjolov O'rxun bitiglaridagi *i* yoki yozuvda har doim ifodalanmaydigan *ā* harfi o'rni bilan *e* tovushini ham anglatganini ta'kidlaydi. Uning xulosasiga ko'ra *e* tovushi O'rxun bitiglarida *ā* variant sifatida (*ā-e*) qo'llangan<sup>14</sup>. Misollar:

<i>at</i> ( <i>ot</i> )	<i>āt</i> ( <i>et, go'sht</i> )	<i>adağ</i> ( <i>oyoq</i> )
<i>ab</i> ( <i>ov</i> )	<i>āb</i> ( <i>uy</i> )	<i>qağan</i> ( <i>xoqon</i> )
<i>ar-</i> ( <i>alda-</i> )	<i>ār</i> ( <i>er</i> )	<i>anda</i> ( <i>unda</i> )
<i>aš-</i> ( <i>osh-</i> )	<i>āš</i> ( <i>esh</i> )	<i>apa</i> ( <i>opa</i> )
<i>san</i> ( <i>son</i> )	<i>sān</i> ( <i>sen</i> )	<i>qara</i> ( <i>qora</i> )

**Ī unlisi** lablanmagan, tor va orqa qator; **i** ham lablanmagan, tor, old qator. Bu ikki unli fonema hozirgi o'zbek adabiy tili - singarmonizmsiz lahja va shevalarda *i* ning oldinga siljishi natijasida konvergensiya uchragan, ya'ni bir fonema (*i*)ga aylangan. Ammo o'zbek tilining singarmonizmlahja va shevalari hamda boshqa turkiy tillarda o'z holicha saqlangan. Masalan, qozoq, qirg'iz va tatar tillari hamda o'zbek tilining qipchoq shevalarida *siz-*(chiz-) fe'li bilan *siz* olmoshi bir-biridan *i* va *i* fonemalari tufayli farqlanadi. Qadimgi turkiy tilda ham orqa qator *i* bilan old qator *i* ikki mustaqil fonemadir<sup>15</sup>:

<i>yig</i> ( <i>yaxshi</i> )	<i>yīg-</i> ( <i>yig'moq</i> )
<i>tik-</i> ( <i>tikmoq</i> )	<i>tiq-</i> ( <i>tiqmoq</i> )
<i>yal</i> ( <i>yol</i> )	<i>yil</i> ( <i>yil</i> )

**O unlisi** lablangan, keng va orqa qator; **ö** ham lablangan, keng, lekin old qator. Bu ikki fonema ham hozirgi o'zbek adabiy tili hamda singarmonizmsiz lahja va shevalarda *o* ning oldinga siljishi natijasida konvergensiya uchragan, ya'ni bir fonema (*o*)ga aylangan. Ammo boshqa turkiy tillar, o'zbek tilining singarmonizmlahja va shevalarida *o* bilan *ö* ikki mustaqil fonemadir. Masalan, mazkur til hamda lahjalarda *ot* (olov yoki o'simlik)dan *öt* (tana a'zosi yoki o'tmak fe'li) *o*, *ö* unilari yordamida farq qiladi. Qadimgi turkiy tilda orqa qator *o* bilan old qator *ö* alohida fonema sanaladi:

<i>ol</i> ( <i>u</i> )	<i>öl-</i> ( <i>o'lmoq</i> )
<i>ot</i> ( <i>olov</i> )	<i>öt-</i> ( <i>o'tmoq</i> )

<sup>14</sup> Соликов Қ. Туркий эзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. - Тошкент, 2006. -Б.118.

<sup>15</sup> Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. -Т.: Ўқитувчи, 1982. -Б.7-8.

*u-* (*to'smoq*)

*öz* (*o'z, jon*)

**U unlisi** lablangan, tor va orqa qator; **ü** ham lablangan, tor, lekin old qator. Bu unliarning ham hozirgi holati *ö* va *o* unlihariniki singaridir. Qadimgi turkiy tilda ham *u* va *ü* alohida fonema hisoblanadi:

*tu-* (*to'smoq*)

*tü* (*tuk*)

*ur-* (*urmoq*)

*ür-* (*puflamoq*)

*u'* (*tuch*)

*ü'ç* (3)

Hozirgi *o* unlisini qadimgi turkiy tilda *a* unlisi ifodalagan. Masalan, hozirgi *bosh*, so'zi *bash*, *qor* so'zi *qar* tarzida talaffuz etilgan. *E* unlisi hozirdek mustaqil fonema bo'lmasdan *ā* ning varianti sifatida talaffuz qilingan: *al - el*.

## UNDOSHLAR

Qadimgi turkiy tilda quyidagi undoshlar amalda bo'lgan: *l, m, n, ŋ, r,*

*k, g, d, z, ğ, y, p, t, s, š, k, q, č*

1. Jarangli: *b, g, d, z, ğ*

2. Jarangsizlar: *p, t, s, š, k, q, č*

3. Sonorlar: *l, m, n, ŋ, r, y*

O'rxun alifbosidagi ayrim harflar tovushlar birikmasini ifodalaydi: *nt, ml, il, mt*. Bu birikmalar jarangli va jarangsiz tovushlar birikmasidan iborat: bunday xususiyat uyg'ur va arab alifbosida uchramaydi. Qadimgi turkiy tilda *b, m, p* lab undoshlari mavjud. Sirg'aluvchi lab undoshi *f* yo'q. O'rxun yozuvida *v* uchun maxsus harf kuzatilmaydi. Uning o'rmda *b* ni bildiruvchi harf ishlatiladi. Uyg'ur yozuvida esa *v* uchun maxsus harf bor. Qadimgi turkiy tilda bo'g'iz undoshi *h* va til orqa *x*, sirg'aluvchi *j* undoshi mavjud bo'lmagan.

## Jarangli undoshlar

**ll** undoshi lab-lab, portlovchi, jarangli, shovqinli undosh bo'lib, so'z boshi, o'rtasi, oxirida uchraydi: *bu, yabğu* (*amir*), *sab* (so'z). O'rxun-Yulbey manbalarida tanglay uyg'unligiga asosan qattiq va yumshoq anglatuvchi so'zlarda alohida-alohida belgilar bilan berilgan. Uyg'ur yozuvida maxsus harf, arab yozuvidagi manbalarda *be* orqali ifodalangan. Qadimgi *b* hozirda ba'zi so'zlarning boshida *m* ga aylangan: *buŋ - muŋ* (uyg'u). Bu jarayon qadimgi turkiy til davridan ilgariroq boshlangan, chunki qadimgi yodnomalarda ikki fonema parallel ishlatiladi: *bān - mān* (men). Qadimgi *b* bugungi kunda ko'p so'zlar o'rtasi va oxirida *v* ga aylangan: *sub - suv, ab - ov, qaba - qama*.

**V** undoshi faqat X asrga oid uyg'ur yodnomalarida bor. Mazkur

jarangli tovush soʻz oʻrtasi va oxirida oʻrxun yodnomalaridagi *b* oʻrnida uchraydi: *sav* “soʻz” (Oltun yorugʻ) – *āv* “uy” (Turfon matnlari). Uygʻur yozuvida maxsus belgi bilan, arab yozuvida *vov* و orqali beriladi. Mahmud Koshgʻariyning yozishicha, turkiy xalqlarda *v* undoshining talaffuzi ikki xil boʻlgan. Oʻgʻuzlar uni lab-lab, boshqa turk qabilalari lab-tish tarzida talaffuz qilishgan<sup>16</sup>.

**Ç** undoshi Oʻrxun-Yenisey hamda uygʻur yozuvlarida maxsus harflar arab yozuvidagi manbalarda *gʻayn* غ bilan berilgan. Bu jarangli, chuqur t. orqa, sirgʻaluvchi tovush sonor, jarangli, jarangsiz undoshlar hamda orqa qator unli bilan yonma-yon keladi: *qağan* “xoqon” (KT), *yadağ* “yayov” (Toʻn), *siğta* “yigʻla” (Oltun yorugʻ), *oğuz bodun* “oʻgʻuz xalqi” (Toʻn).

**G** Oʻrxun-Yenisey hamda uygʻur yozuvlarida maxsus harflar, arab yozuvidagi manbalarda *gof* گ orqali berilgan. Bu jarangli, sayoz til orqa sirgʻaluvchi tovush sonor, jarangli, jarangsiz undoshlar hamda orqa qator unli bilan birga keladi. Qadimgi turkiy tilda yumshoq talaffuz qilinuvchi soʻzlarning oʻrtasi va oxirida ifodalanadi: *oğuz* “daryo” (Toʻn), *körük* “kuzatuvchi” (Toʻn), *ülüg* “hissa, qism” (Toʻn), *böğü* “dono, oqil” (KT).

**D** undoshi Oʻrxun-Yenisey yozuvida yumshoq va qattiq talaffuzli soʻzlarda maxsus harflar, arab yozuvidagi manbalarda *dol* د yordamida berilgan. Bu jarangli, portlovchi tovush soʻz oʻrtasi va oxirida uchraydi: *bodun* “xalq” (Toʻn), *öd* “vaqt, zamon” (KT).

**Z** undoshi Oʻrxun-Yenisey yozuvida maxsus belgi orqali ifodalangan. Jarangli, sirgʻaluvchi tovush turkiy soʻzlarning oʻrtasi va oxirida mavjud: *üzä* “yuqorida” (KT), *qiz oğlum* “qiz bolam” (E), *yazi* “dasht, tekislik” (Toʻn), *qaz* “gʻoz” (Oltun yorugʻ).

### Jarangsiz undoshlar

**P** undoshi oʻrxun hamda uygʻur yozuvlarida maxsus harflar, arab yozuvidagi manbalarda *pe* پ harfi orqali ifodalangan. Bu jarangsiz, portlovchi lab-lab tovush hamma holatlarda uchraydi: *apa* “opa” (Ungim), *alp* “alp, pahlavon” (Toʻn), *push-* “achchiqlan” (Oltun yorugʻ).

**S** undoshi til oldi-tish, sirgʻaluvchi, jarangsiz undosh fonema boʻlib Oʻrxun-Yenisey manbalarida qalin (vellyar) va ingichka (palatal), uygʻur yozuvida maxsus harflar orqali ifodalangan, arab yozuvidagi asarlarda esa *sin* س harfi yordamida yozilgan: *asra* “pastda, quyida” (KT), *tabisğan* “tovushqon, quyon” (Toʻn), *sü* “qoʻshin” (KT), *säkiz* “sakkiz” (E).

**T** undoshi Oʻrxun-Yenisey manbalarida qattiq va yumshoq aytiluvchi soʻzlarda alohida-alohida belgilar bilan berilgan, uygʻur yozuvida maxsus

harflar arab yozuvidagi asarlarda esa *te* ت, ayrim hollarda *itqi* ط orqali ifodalangan. Ushbu jarangsiz portlovchi tovush soʻz boshi, oʻrtasi, oxirida uchraydi, jarangli tovushlar hamda sonorlar bilan yondosh kelishi taʼkidlanadi: *li, ut, rt, mt, td, tl, tm* kabi. *Tört* “toʻrt” (KT), *kün toğsuq* “otang” (Oʻngin), *kün batsiq* “Gʻarb” (Oʻngin), *türk* “turk, etnos oti” (KT).

**Ç** undoshi oʻrxun hamda uygʻur yozuvlarida maxsus harflar, arab yozuvidagi manbalarda *chim* چ harfi bilan yozilgan, afrikat, jarangsiz, qattiq tovush barcha unli va undoshlar bilan yondosh keladi: *çiğan* “yambagʻal” (KT), *yärçi* “yoʻl koʻrsatuvchi” (Ton), *Tabğaç* “Xitoy” (Toʻn).

**Sh** undoshi oʻrxun hamda uygʻur yozuvlarida maxsus harflar, arab yozuvidagi manbalarda *shin* ش harfi bilan yozilgan, jarangsiz, sirgʻaluvchi tovush barcha unli va undoshlar bilan yondosh keladi: *šad* “shad, unvon” (KT), *atsız* “yeguliksiz” (KT), *yaš* “yosh” (E), *örtänmiş* “oʻrtangan” (KT).

**K** undoshi Oʻrxun hamda uygʻur yozuvlarida maxsus harflar, arab yozuvidagi manbalarda *kof* ك harfi bilan ifodalangan. Bu jarangsiz, portlovchi tovush jarangli va jarangsiz tovushlar hamda sonorlar bilan yondosh keladi: *kuş* “ush, quvvat” (KT), *ičkü* “ichimlik” (Oltun yorugʻ), *kölkä* “kolga” (KT).

**Q** tovushi oʻrxun hamda uygʻur yozuvlarida maxsus harflar, arab yozuvidagi manbalarda *qof* ق harfi bilan ifodalangan, jarangsiz, portlovchi, chuqur til orqa tovush turkiy soʻzlarning barcha holatida qoʻllanadi: *qağan* “xoqon” (KT), *yablaq* “juda” (Oltun yorugʻ), *Qaraqum* “joy nomi” (Toʻn).

### Sonorlar

**M** undoshi Oʻrxun-Yenisey hamda uygʻur yozuvlarida maxsus harflar, arab yozuvidagi manbalarda *mim* م harfi orqali ifodalangan. Sonor *b* dan talaffuzida burun boʻshligʻining ishtiroki borligi va shovqinsizligi bilan taʼriflanadi. Demak, *m* lab-lab, nazal, sirgʻaluvchi burun tovushi: *män* “men” (KT), *kümüš* “kumush” (Toʻn), *qaqum* “otam” (Irq).

**Y** sonori Oʻrxun-Yenisey xatida yumshoq va qattiq talaffuzli soʻzlarda maxsus belgi, uygʻur yozuvida maxsus harf, arab xatidagi manbalarda *yo* ی bilan berilgan, jarangli, sirgʻaluvchi fonemadir. Barcha unli va undoshlar bilan yondosh keladi: *yämä* “yana” (KT), *ayğuci* “maslahatchi” (Toʻn), *Avrak* “yuvvoyi hayvon” (Toʻn).

**L** undoshi Oʻrxun-Yenisey yodgorliklarida yumshoq va qattiq talaffuzli soʻzlarda alohida-alohida harflar, uygʻur yozuvida maxsus harf, arab yozuvidagi manbalarda *lom* ل harfi orqali ifodalangan. Sonor turkiy

<sup>16</sup> Махмулов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. –Т. Ижод. 2006. –Б.61

tillarning xususiyatidan kelib chiqib, soʻz boshida uchramaydi, soʻz oʻrtasi va oxirida mavjud: *olti otuz* “yigirma olti” (BX), *Eltarish qaʻgan* “Eltarish xoqon” (Toʻn), *yigʻilmis̄* “yigʻilgan” (Oltun yorugʻ).

R sonori Oʻrxun-Yenisey xatida yumshoq va qattiq talaffuzli soʻzlarda alohida-alohida harflar hamda qadimgi uygʻur yozuvida maxsus harf, arab yozuvidagi manbalarda **re** ʻ harfi yordamida qayd etilgan. Sirgʻaluvchi, til oldi vibrant tovush, turkiy soʻzlarning boshida kelmaydi. Qaltiroq yoki vibrant undosh deb til uchining titrashi natijasida vujudga kelgan tovushga aytiladi: *arqis̄* “karvon” (BX), *quriʻgaru* “gʻarbga” (KT), *yaʻgiz yer* “qoʻngʻit yer” (KT).

N undoshi Oʻrxun-Yenisey xatida yumshoq va qattiq talaffuzli soʻzlarda alohida-alohida harflar, qadimgi uygʻur yozuvida maxsus harf, arab yozuvidagi manbalarda **nun** ʻ harfi orqali ifodalangan. Bu tovush til oldi, portlovchi, sonor, nazal boʻlib, soʻz boshida kamroq, boshqa oʻrinlarda koʻproq uchraydi: *nan̄* “narsa” (KT), *ana* “ona” (Toʻn), *tum̄an* “oʻn ming” (BX).

D sonori Oʻrxun-Yenisey xatida maxsus harf, uygʻur va arab yozuvlarida **nun** ʻ va **kof** ʻ harflari orqali ifodalangan. Sirgʻaluvchi, burunli tovushi, soʻz oʻrtasi va oxirida qoʻllanadi<sup>17</sup>: *kon̄ul* “koʻngil” (Ton), *kun̄ bol̄t* “joriya boʻldi” (KT), *bin̄* “ming” (Toʻn).

### Yonma-yon kelgan undoshlarni ifodalovchi harflar

**LT:** *qul bol̄ti* “qul boʻldi” (KT), *baltu* “bolta” (Oltun yorugʻ), *yoltuz* “yulduz” (KT).

**NT:** *yont* “ot” (MCh), *kant̄u* “oʻz” (KT), *kunt̄uz* “kunduz” (Toʻn).

**NĈ:** *qun̄cuy* “malika” (E), *sanch̄di* “sanchdi” (KT), *un̄c* “mumkin” (Toʻn), *biš̄in̄c* “beshinchi” (MCh).

**RT:** *art* “ort, tepalik” (Toʻn), *tart-* “tortmoq” (Oltun yorugʻ), *tort* “toʻrt” (Oltun yorugʻ).

### Singarmonizm

Qadimgi turkiy tilda singarmonizm qonuni amalda boʻlgan. Bu davrda birinchi boʻgʻinning qattiq va yumshoqligiga koʻra soʻz yoki butun bir jumla qattiq yoxud yumshoq talaffuz qilingan.

Singarmonizm deb soʻzdagi tovushlarning bir-biriga hamda oʻzakka qoʻshimchalarning talaffuz jihatdan uygʻunlashishiga aytiladi. Masalan:

*Qadimgi turkiy tilda singarmonizmning ikki qonuni mavjud boʻlgan:*

1) tanglay uygʻunligi yoki palatal attraksiya;

2) lab uygʻunligi yoki labial attraksiya.

Tanglay uygʻunligi soʻzdagi tovushlarning bir-biriga va

qoʻshimchalarning oʻzakka qator va qalin-ingichkalikda moslashuvidir:

*alq̄ntu* (tugadi)

*ālig* (elni, davlatni)

*q̄n̄garu* (oʻgʻuzga)

*ilḡarū* (oldinga)

*bil̄ng* (horish)

*bilig* (bilim)

Lab uygʻunligi birinchi boʻgʻindagi unliga keyingi boʻgʻindagi unlining yoki oʻzakdagi unliga qoʻshimchadagi unlining lablanish jihatdan moslashuvidir.

*otim* (otim)

*kūcūg* (kuchni)

*bol̄dun* (xalq)

*kōzūm* (koʻzim)

*ol̄miz* (davlatimiz)

*sūmiz* (lashkarimiz)

Demak, singarmonizm qonunida soʻzning birinchi boʻgʻinidagi unli fonemaga qanday boʻlsa, qolgan boʻgʻinida ham shu unli fonemaga qoʻshiladi, yaʼni soʻzning birinchi boʻgʻinida til orqa unlisi boʻlsa, uning barcha boʻgʻinlarida ham til orqa unlisi boʻladi. Soʻzning birinchi boʻgʻinida til oldi unlisi boʻlsa, qolganlarida ham til oldi unlisi boʻladi.

Qadimgi turkiy tilda singarmonizm qonuniyatining baʼzan tanglay yoki lab garmoniyasi buzilganligi ham kuzatiladi, biroq uning qattiq-yumshoqligi har doim saqlanib qoladi. Yopiq boʻgʻinli soʻzlarda lablangan unllarning ishlatilishi doimiy hodisa sifatida saqlanib qoldi. Lab garmoniyasi koʻproq feʼlning shaxs-son shakllarida uchraydi. Shuningdek, labli jihat egalik, soʻroq yuklamasi, ravishdosh, sifat-dosh, feʼl zamonlari qoʻshimchalarida ham koʻrinadi: *ōzūm*, *ōzūn*, *ič̄ikdim*, *olur* va h.

Mahmud Koshgʻariy lablangan va lablanmagan unllarning oʻrni haqida fikr yuritib, bunga oʻtgan zamon feʼlining birinchi shaxs birligini taʼkidlab koʻrsatadi. Uning maʼlumotiga koʻra feʼlning bu shakli turklarda *bol̄dim*, oʻgʻuzlarda esa *bardum* tarzida boʻlgan. Bundan koʻrinadiki, oʻsha davrdayoq dialektlarda singarmonizm qonunining buzilishi boshlangan.

Singarmonizm hodisasi hozirgi bir guruh turkiy tillarda toʻla aks etgan boʻlsa-da, boshqa bir guruh turkiy tillarda kuchsizroq xususiyatga ega. Turkiy tillarda singarmonizm qonuni mavjudligini birinchi boʻlib Koshgʻariy tasdiqlagan. U turkiy soʻzlarning oʻzak xarakteriga qarab qattiq boʻlakli soʻzlarga qattiq affikslar, yumshoq oʻzakli soʻzlarga yumshoq affikslar qoʻshilishini aytib oʻtgan.

<sup>17</sup> Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. Oʻzbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: Oʻzbekiston faylasullar milliy jamiyati, 2008. – B. 61.

## Fonetik hodisalar

Qadimgi turkiy tilda quyidagi tovush o'zgarishlari yuz bergan:

**b>m:** *bān* (Ton) – *mān* (E) “men”, *bānkū* (Ton) – *mānkū* (E) “mangu”.

**n>b:** *ana* (KT) – *aba* (Oltun yorug‘) “ona”.

**s>z:** *bolsun* (KT) – *bolzun* (Oltun yorug‘) “bo‘lsin”.

**s>š:** *Santun* (Ton) – *Šantun* (KT) “joy nomi”.

**k>g:** *kikür* (KT) – *kigür* (Oltun yorug‘) “kirit”.

**n>y:** *anıġ* (KT) – *ayıġ* (Oltun yorug‘) “buzilish”, *qon* (KT) – *qoy* (Oltun yorug‘) “qo‘y”.

## Savol va topshiriqlar

1. Qadimgi turkiy tildagi unlilar tizimi haqida ma'lumot bering.
2. Qadimgi turkiy tilning undoshlar tizimidagi asosiy xususiyatlarni ajrating.
3. Qadimgi turkiy tilda singarmonizm hodisasi va uning mohiyatini yoriting.
4. Undoshlar geminatsiyasi haqida fikr bildiring.
5. Qadimgi turkiy til va o'zbek adabiy tili unli va undoshlar tizimini qiyosan tahlil eting.

## Test sinovi

### 1. Qadimgi turkiy tilda nechta unli tovush bo‘lgan?

- A) 4 ta unli                      S) 6 ta unli  
B) 8 ta unli                      D) 10 ta unli

### 2. Qadimgi turkiy tilda mavjud bo‘lmagan undosh tovushlar?

- A) j, v, x                              S) x, d, y  
B) g, h, j                              D) v, x, n

### 3. a, ä, o, ö qanday unlilar?

- A) old qator unlilar                      S) orqa qator unlilar  
B) keng unlilar                      D) tor unlilar

### 4. p, t, s, š, k, q, č qanday undoshlar?

- A) burun tovushlari                      S) sonorlar  
B) jarangli undoshlar                      D) jarangsiz undoshlar

### 5. l, m, n, ŋ, r, y qanday undoshlar?

- A) burun tovushlari                      S) sonorlar  
B) jarangli undoshlar                      D) jarangsiz undoshlar

### 6. oġuzġaru, ilgärü so‘zlari singarmonizmning qaysi turiga xos?

- A) labial                              S) lab uyg‘unligi

## Uspulalar

D) singarmonizm kuzatilmaydi

7. Turkiy tillarda singarmonizmning mavjudligini birinchi bo‘lib  
bilmagan?

A) Alisher Navoiy

S) Polivanov

B) Mahmud Zamaxshariy

V) Mahmud Koshg‘ariy

## ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. –Т.: Унвустин, 1982.

2. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining  
tarixiy grammatikasi. – T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008.

3. Неходков М., Содиков Қ., Омонов Қ. Мангу битиглар. – Т.:  
Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2009.

4. Манов С. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и  
транслитерация. –М.-Л., 1951. –452 с.

5. Махмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. –Т.: Ижод,  
2006.

6. Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. - T.: O‘zbekiston  
faylasuflari milliy jamiyati, 2009.

7. Xanaqulov U. O‘zbek yozma adabiy tili fonetik, morfologik  
qatlamining ilk shakllanishi va taraqqiyoti bosqichlari. – T.: Navro‘z, 2015.

8. Содиков Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг  
шоша ёшини ва тиклиниши. –Тошкент, 2006.

## 4-§. QADIMGI TURKIY TIL LEKSIKASI

**Asosiy tushunchalar:** *leksika, leksema, toponimlar, etnonim, onomatika, zoonim, harbiy terminlar, o‘z qatlam. o‘zlashgan qatlam, nakliy so‘zlar, sankritcha so‘zlar, xitoycha so‘zlar, sug‘dcha so‘zlar.*

Leksikologiyada tilda mavjud bo‘lgan barcha so‘zlar, ya‘ni o‘sha  
tilning lug‘at boyligi haqida so‘z yuritiladi. Til lug‘at tarkibini tarixiy-  
etimologik jihatdan, ya‘ni so‘zlarni genetik manbalariga ko‘ra tadqiq etish  
o‘zbek tilining qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar bilan aloqasini, mazkur  
tilda qaysi tillarning ta‘siri mavjudligini aniqlashga ko‘maklashadi.  
Pirovard-natijada, bunday izlanishlar o‘zbek tili so‘z boyligi, grammatik  
qurilishining tarixiy yo‘llarini anglashda nihoyatda muhimdir. Binobarin,

tilning leksik tarkibini genealogik manbalariga muvofiq guruhlash, ilmiy jihatdan tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Tildagi leksik (o'z va o'zlashma) qatlamlarni lingvistik tadqiq etish leksik-semantik taraqqiyot qonuniyatlarini belgilashda o'ta muhimdir. Zotan, leksika tarix, madaniyat, fan va xalqning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ilmiy tahlilda ularni hisobga olmasdan turib, so'z ma'nolarining o'zgarish manbalari va sabablarini aniqlash mushkul.

Ko'hna yodgorliklarda qo'llanilgan leksik birliklarning ko'pchiligini monosemantik so'zlar hisoblanadi: *qan* – xon, *yoğçi* – azachi, *söyük* – suyak, *tanuq* – guvoh, *tamğa* – tamğa, *alpağu* – qahramon. Ayni paytda polisemantik birliklarning ham o'z o'rniga ega ekanligini guvohi bo'ldik.

So'zning ko'p ma'no anglatishi tilda mustaqil tizim bo'lib, u umumiy tilshunoslikda polisemiya termini bilan nomlanadi. So'z dastlab bir ma'noni ifodalash uchun qo'llanilib, davrlar o'tishi, turli lingvistik ta'sirlar vositasida bir necha ma'noni bildiradi. Polisemiya bir turkum doirasida leksik ma'nolardan tarkib topishi, ularning o'zaro bog'liq bo'lishi, ma'nolarning ayni so'zning o'ziga oidligi bilan boshqa hodisalardan ajralib turadi.

**Arig'** so'zi qadimgi turkiy tilda, ya'ni "Oltun yoruq", To'nyuq Turfon matnlarida «toza», «olijanob», «haqiqiy» ma'nolarini ifodalagan *biz arig' dindar biz* - biz haqiqiy dindormiz (TT).

**Törü** leksemasi Turfon matnlari va «Oltun yoruq»da «urf-odat», «tartib-qoida», «to'y bazmi» ma'nolarida kelgan: *Türgäs qağanın qızın ärtänü uluğ törün oğlıma alıp bärtim* – Turgash xoqonning qizini kata to'y qilib og'limga olib berdim (BX).

**Bul-** leksemasi Turfon matnlari va «Oltun yoruq» yodgorligida «topmoq» «qidirmoq», «etishmoq, erishmoq» ma'nolarida ishlatilgan: *ant için tənri yārin bulğay biz* –shuning uchun Tangri yeriga etishgaymiz (DTC, 121).

Qayd etish kerakki, qadimgi turkiy til lug'at tarkibida mavjud bo'lgan so'zlarni biror urug' yoki qabilaga mansub deb bo'lmaydi. Chunki qadimgi turkiy til leksik qatlamida mavjud so'zlar o'sha davrda yashagan urug' va qabilalarning barchasiga tegishli bo'lgan deb qarash zarur. Bundan, albatta, qadimgi turkiy til lug'at tarkibida turkiy bo'lmagan leksemalar yo'q ekan, degan xulosaga kelmaslik kerak. Ana shu nuqtai nazardan qadimgi turkiy til leksikasini o'z qatlam va o'zlashgan qatlam bo'lish lozim.

**I. O'z qatlam.** Qadimgi turkiy tilning asosiy so'z boyligini, shubhasiz, turkiy tilga xos bo'lgan qatlam tashkil qiladi. Bu qatlam hozirgi turkiy tillarning barchasiga tegishli bo'lgan leksemalardir.

Qadimgi turkiy tilda toponimlar, etnonimlar, zoonimlar, tabiat

trinitlari, mansab, qarindoshlikni bildiruvchi leksemalar, harbiy terminlar, antroponimlar, kiyim-kechak nomlari kabi mavzui guruhga oid so'zlar qo'llanilgan. Quyida ularning ayrimlariga to'xtalamiz.

**Toponimlar.** VI-X asrlardagi obidalarda anchagina joy nomlari uchraydi. Mazkur toponimlar o'sha davrlarda yashagan turkiy xalqlarning kumalik moddiy, madaniy turmush tarzi, ularning qayerlarda istiqomat qilishliklari, kasb-hunari, etnik sostavi haqida ma'lumot beradi. biriglarda uchraydi toponimlar uchraydi: *Çugay, Şantun, Kögman, Tämir qapiğ, Qitan* (To'n), *Orukan yış, Tuput, Yär bayırqu, Purum, Tabğaç* (KT) va boshqalar. Bularning leksik-semantik xususiyatlari diqqatga molik:

Bu'zi toponimlar biror narsa - predmetning rang-tusiga qarab ishlatilgan. Masalan: *Qaraqum* (KT), *Qizilqum* (KT), *Qara köl* (KT), *Yaşil köl* (KT).

Toponimlar, ya'ni urug' va qabilalarning nomidan joy nomlari hosil bo'ladi. *Türk* (KT), *Qırqız* (KT), *Tabğaç* (To'n), *Oğuz* (KT), *Az* (To'n) va boshqalar.

Tomonlarni ifodalovchi toponimlar: *Oñ* - o'ng tomon, sharq, *Quri* - sharq, *İiri* - janub (To'n), *Yira* - so'l tomon, shimol (To'n).

Top'lik joylarni bildiradigan toponimlar: *Qadirqan yış* – Qadirqan vodiysi, *Ötükän yış* - Ötükän vodiysi (To'n).

**Gidrotoponimlar.** Qadimgi turkiy tilning lug'at boyligida gidrotoponimlarni bildiradigan leksemalar ham anchagina. Bunday gidrotoponimlarga *Sälänğä* – Selenga daryosi (KT), *Yincü ögüz* – Sirdaryo (To'n), *Artis ögüz* – Irtish daryosi (To'n) kabilarni ko'rsatish mumkin.

VI-X asrlarda daryo nomiga *ögüz* so'zi qo'shib ishlatilgan: *Taluy ögüz* – Taluy daryosi, ummon, *Yaşil ögüz* – Xuanxe daryosi (KT), *Kam ögüz* (Mch), *Boğla ögüz* – daryo nomi (To'n), *Yar ögüz* - daryo nomi (Mch) va boshqalar.

Dengiz, ko'l nomiga *köl* so'zini qo'shib ishlatilgan: *Türgi yargun köl* – dengiz nomi (KT), *Qara köl* - ko'l nomi (KT).

**Etnonimlar.** VI-X asrlarda O'rta Osiyo, Qozog'iston, Sibir, shuningdek, boshqa hududlarda yashagan turkiy xalqlarning etnik tarkibii jihatdan xilma-xil bo'lgan. Yozma obidalarning guvohlik berishicha, bu mintaqalarda yashagan urug' va qabilalarda madaniy yuksalish eramizdan ancha ilgari boshlangan. Yozma obidalarda *arğu* (KT), *basmil* (KT), *qarluq* (BX), *oğuz* (KT), *tatar* (KT), *töli, türk* (To'n), *çigil* (BX) kabi turkiy urug' va qabilalar bilan birga *qitan, tabğaç, tañut, tatabi* (KT) *tâzik* (fors, tojik) (KT), *izgil, suğd* (KT) kabi turkiy bo'lmagan qabilalar ham uchraydi.

Shuni alohida qayd qilish kerakki, turkiy va turkiy bo'lmagan urug', qabilalar nomlarini aniqlash, ularni leksik-semantik tomondan tahlil qilish

juda qiyin vazifadir. Chunki buning uchun etimologik kuzatishlar olib borish talab qilinadi.

Turkiy va turkiy bo'lmagan urug', qabilalar to'g'risida ilmiy ma'lumotlar yana Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk»da o'z ifodasini topgan. Uning ta'kidlashicha, o'g'uzlar turklarning bir qabilasi bo'lib, ular ikki urug'dir. Har bir urug' o'z mollariga ma'lumi bir tamg'a qo'ygan. Tamg'alar asosida urug' nomlarini ataganlar. Demak, qadimgi davrlarda har bir urug' va qabilaning o'ziga xos tug'i (bayrog'i) bo'lgan. Shu bayroqqa qo'yilgan belgi ham o'sha urug' yoki qabilani nomlab kelgan. Kuli chur bitikida «üç tuğluğ bodun - uch tug'li turk xalqi» iborasi ham bu Keyingi yillarda etnonim, mikroetnonim, avtoetnonim, elloetnonim, tipologik etnonimlar sohasida yozilgan maqolalarda ham turkiy urug' va qavmlar to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar bayon qilingan.

Turkiy urug' va qabilalar nomlari leksik-semantik jihatdan quyidagilarga asoslangan bo'lishi mumkin:

Biror urug' va qabilalar boshqa joylarga borib joylashganda, ularni o'z nomi bilan ataganlar: *nāymān* (O'ng), *qarluq* (O'ng), *qipčaq* (O'ng).

Ba'zi urug' va qabilalar o'zlarini o'sha yashab turgan joy nomlari bilan yuritganlar. Masalan: *Az*, *Tolis* (To'n). Har bir urug' va qabilalar nomlari o'z bayrog'idagi tag'ma nomi bilan atalgan: *Tamgali* (O'ng), *Qazyay* (O'ng), *Tuyaqli* (O'ng).

**Onomastika.** Qadimgi turkiy tilning leksikasiga xos so'zlardan yanada bir guruhi onomastikadir. Onomastika ham tilning lug'at tarkibida boyitishda muhim rol o'ynaydi. Onomastika qadimgi turkiylarning dunyoqarashi, e'tiqodini bilishda ham muhim vositadir. Qadimgi turkiylar quyidagi an'anaga ko'ra shaxslarga nom qo'yganlar: O'zlari uchun muqaddas hisoblangan hayvonlarga nisbatan nom berish: *Bori*, *Bars* (KT).

Shaxslarning ma'lum bir sifat xususiyatlari ism qo'yishga asos bo'ladi. Bunda nomlarning semantikasi ostida shu belgi yotadi: *Kültegi* (kul-kuchli demakdir), *Tonyuquq* (to'ngich javqar), *Bilgä qağan* (don xoqon).

**Zoonimlar.** Qadimgi turkiy til leksik tarkibida zoonimlar ham o'z ifodasini topgan: *adiğ* - ayiq (O'ng), *biçin* - maymun (KT), *at* (KT), *bö* (KT), *buqa* (KT), *tabışqan* - quyon (To'n).

**Qavm-qarindoshlik terminlari.** Qadimgi turkiy bitiglar tilida uchraydigan yaqinlik yoki qavm-qarindoshlik tushunchasini bildiradigan so'z-terminlar ham ma'lum bir sharoitda paydo bo'lgan. Bular davrlar o'tishi bilan rivojlanadi, o'zgaradi va adabiy shaklga siljiydi. Aniqroq oila, nikohning yangi shakllari paydo bo'lishi bilan qarindoshlik

terminining doirasi ham o'zgaradi. Natijada faol qollangan leksema turli sharoitda ma'no aralashib qolishi, u o'rnini boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarga berib o'tib borishi mumkin.

Yozma bitiglar tilida *qan* - ota (KT), *ög* - ona (Kt), *siñil* - singil (Kt), *qan* - qarindosh (KT), *mi* - uka (KT), *akä* - opa (KT), *äci* - amaki (E) singari qavm-qarindoshlik tushunchasini bildiradigan terminlar uchraydi.

XI-XII asr bitiglarida "ota" ma'nosida *ata*, *qan* kabi terminlar ishlatilgan. XI-XII asrlarda ata leksemasi qatori Tibet tilidan o'zlashgan *aba* (tibet) ham qo'llanishda bo'lgan. Ushbu so'zni "ajdodlar" ma'nosidagi ma'lumotlar *aba* o'zlashmasidan farqlash kerak.

VI-X asrlarda "ona" ma'nosi *ög*, *ana* so'zlari bilan berilgan, X-XIV asrlarda esa *aba*, *apa*, *ana* istilohlari ham ayni ma'noda qo'llangan. *Ana* termini asosan, farzandli ayollarga nisbatan qo'llangan, keyingi davrlarda qavm-qarindoshlik doirasi kengaygan.

VI-XI asrlarda *äci/eçi* termini "aka, og'a" ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, *akä* leksemasi "opa, xolani" ifodalagan.

*bu* termini akasiga yosh jihatdan kichik bo'lgan kishiga nisbatan ishlatilgan. Bu terminning qarindosh ma'nosi keyinchalik voqelangan.

*oğil* termini "o'g'il", *oğil* esa "farzand" ma'nosida ishlatilgan, VI-X asrlarda *uri oğil* juff istilohi XI asrda *uri oğlan* tarzida qollangan.

*qiz* termini ayol jinsiga mansublikni ifodalaydi. O'rxun bitiglarida *qiz oğil* "qizlar" ma'nosini ifodalagan. X-XIV asrlarda esa *qiz* ma'nosi kengaydi va "farzandlar" ma'nosini kasb etdi.

*qizil* termini X asrgacha va undan keyin yaratilgan yozma obidalarda ham *qizil* fonetik ko'rinishlarda uchraydi. Bu termin oilada akalaridan keyin qo'llanilgan qizga nisbatan ishlatilgan.

VI-XIV asrlarda *är* (*er*) so'zi "erkak kishi", "jangovar, mard" ma'nosida ishlatilgan.

**Harbiy terminlar** VI-X asrlardagi urug' va qabilalarning turmushi, davlati harbiy ahvolini ma'lum darajada aks ettiradi: Harbiy xizmatga kiradigan shaxslar, qo'shinning sostavini ifodalovchi terminlar: *sü* "qo'shin", *atlı* "suvoriy, otliq"; *yärçi* "qo'shinga yo'l ko'rsatib boruvchi", *qo'chi* "soqchi", *yaraq/yariq* "sovut", *täblig* "hiylakor" (KT), *sünüg* "nayza" (To'n).

**Inson tana a'zolari nomlari:** *adaq* "oyoq" (TT), *aya* "kaft" (Oltun bitig), *yuräk* "yurak" (E), *boyun* "bo'yin", *köz* "ko'z", *baş* "bosh" (Oltun bitig) va h.k.

**Shaxs tushunchasini ifodalovchi so'zlar:** *eş* "o'rtoq" (E), *yaği* "boshman" (To'n).

Inson qo'li bilan yaratilgan narsa-predmetlarni anglatuvchi leksik birliklar: *boqag'u* "kishan" (TT), *ew* "uy" (TT), *ton* "kiyim" (KT), *közñü* "oyna" (Oltun yorug').

Mavhum tushunchalarni bildiruvchi leksemalar: *ög* "aql" (TT), *al* "hiyla" (TT), *idi* "ega, sohib" (KT), *bulun* "tutqun, asir" (Mon), *yazug'* "gunoh" (TT).

Xalqning ijtimoiy-siyosiy faoliyati bilan aloqador tushunchalarni anglatuvchi leksemalar: *beg* "bek, hukmdor" (E), *künj* "joriya" (KT), *tamğa* "muhr" (TT), *qan* "xon" (To'n).

Savdo va pul munosabatlarini ifodalovchi so'zlar: *arqış* "karvon chopar" (TT), *baqir* "mis tanga" (E), *asiğ* "foйда" (TT), *satig'ei* "sotuvchi" (Oltun yorug'), *kümüş* "kumush tanga" (BX).

Harakat va faoliyatning xususiyati bilan bog'liq so'zlar: *ayt* "aytmoq" (To'n), *anut-* "tayyorlamoq" (Oltun yorug'), *ağ-* "oshmoq, chiqmoq" (BX), *id-* "jo'natmoq" (BX), *udi-* "uxlamoq" (To'n), *yan* "qaytmoq" (To'n).

**Sinonimlar.** V-X asrlarda yaratilgan yozma obidalarda sinonimlar uyasi aks etgan. Bu hodisa qadimgi turkiy til lug'at tarkibining rang-barang bo'lganligidan dalolat beradi. Sinonimlar turli stilistik maqsadlarda qo'llanganligi bilan xarakterlanadi: *ana* (Oltun yorug') – *ög* "ona" (E), *al* "bodun" "xalq" (To'n), *yoğan* – *qalin* "katta, yog'on" (To'n), *kişi* – *ar* "odam, kishi" (KT), *uzun tonluğ* – *tişi* (TT) – *tişi kişi-işi-işilar* "ayol" (Oltun yorug').

**Omonimlar.** Omonimlar har xil stilistik maqsadlarda hozirgi turkiy tillarda qanday ishlatilayotgan bo'lsa, yozma obidalarda ham xuddi shunday qo'llanilgan. Biroq omonimlarning yozma obidalar tilida ishlatilishi hozirgiga nisbatan ancha chegaralangan. Bu bilan bunday omonimlar keyingi davr til hodisasi ekan, degan xulosaga kelmaslik kerak. Hozirgi turkiy tillar lug'at boyligida mavjud omonimlar qadimda ham aks etgan, lekin yozma obidalar tilida chegaralangan holda ishlatilgan: *baliq* I "baliq", *baliq* II "shahar"; *bar* I "bor, mavjud", *bar-* I "bormoq" (KT), *adin* I "boshqa" (TT), *adin-* I "o'zgartirmoq, to'g'irlamoq" (Mon), *ağir* I "og'ir" (Oltun yorug'), *ağir* II "hurmatli, qadrli" (TT), *ay* I "oy" (BX), *ay* II "oy vaqt" (To'n), *ar-* I "bo'lmoq" (Mon), *ar-* II "aldamoq" (KT). Demak, qadimgi turkiy tilda omonimlarning ishlatilishi o'sha til leksik qatlamining rang-barangligidan dalolat beradi.

**Antonimlar.** Sinonim va omonimlar bilan bir qatorda antonimlar ham keng qo'llangan. Lingvistik adabiyotlarda o'zaro zid, qarama-qarshi ma'noli til birliklari antonim deb qaraladi. Ammo qo'llanma va lug'atlarda

antonimlarni antonimik uyadan tarkib topgan juft suzlar bilan aralashtirib yaratilgan hodisalar ham ko'rinadi. Masalan: *kun-tun*, *katta-kichik*, *baland-past*, *qarshi-qomon* kabi so'zlarni antonimlar deyish haqiqatga to'g'ri kelmaslik kerak. Chunki bu kabi so'zlarning komponentlaridagi so'zlar shu ma'noda o'z mustaqil ma'nolarini yo'qotib, ikkalasi birlikda butunlay yangi ma'no ifodalaydi. Antonimlar esa matnda o'z mustaqil ma'nosini saqlagan ta'rifli shart.

Qadimgi turkiy tilda quyidagi antonimlar qo'llangan: *yoğan* - *yinçkä* (TT), *nan* (TT) - *yağug* (KT), *az* (KT) - *üküş* (BX), *çığay* - *bay* (KT); *üzä* (BX) - *asra* (KT), *semiz* - *turuq* (To'n).

**O'zlashma qatlam.** Qardosh bo'lmagan tillardan o'zlashgan so'zlar haqida gap borar ekan, bunda sug'd, hind, xitoy tilidan o'tgan leksik birliklar nazarda tutiladi. Hozirgi O'rta Osiyo, Qozog'iston va Sibir, hatto, Yevropada yashagan qadimgi turkiylar sug'd, hind, xitoy xalqlari bilan iqtisodiy, madaniy, diniy aloqada bo'lgan. O'rnatilgan yaqin munosabatlar o'zga tillardan qilingan tarjimalar turkiy til leksik qatlamining boyishiga ta'sir etgan.

**Sanskritcha so'zlar.** Qadimgi turkiy bitig'larida sanskrit tilidan kirib kelgan so'zlarning rang-barang bo'lganligi "Qadimgi turkiy lug'at"ni tuzilish asosida yaqqol ko'zga tashlanadi. Tabiiyki, bunda sanskrit tilidan turkiy tilga qilingan tarjimalar muhim rol o'ynagan. Eski turkiy tilda sanskritcha o'zlashmalar son jihatdan kamaygan. Keyingi davrlarga kelib, ularning aksariyati iste'moldan muqim o'rin egallay olmadi. Turkiy tilda qolganlari ham deyarli o'z so'zga aylanish darajasiga yetmishgan: *änätkäk* – Hindiston, *nirvan* – budda ta'limotida qutlug' yer (TT), shu'r nomlari: *šlok*, *padak*, *karant* (Oltun yorug'), *kavi* "epos" (SK), *qadim* "murabbiy, ustoz" (TT).

**Sug'dcha so'zlar.** Sug'dlar va turklar o'rtasidagi aloqalarni VI asrdan boshlangan deb ko'rsatish odat tusiga kirgan. Lekin sug'd-turk munosabatlarini yanada qadimiy davrlardan qidirish lozim. Bunda asosiy bir turkiy xalqlarning Turonda azaliy aholi qatlami sifatida mavjud bo'lganini tan olish, buni faktik materiallar bilan isbotlashga qaratilishi kerak. Bu o'rtada Markaziy Osiyoda mil. av. III-II asrlardan boshlangan jahol etnomadaniy munosabatlar turkiy xalqlarning butun Dashti Qipchoq butunlab, Xitoy devoridan Dunaygacha chiqib borishiga olib keldi. Sug'dlar mil. av. IV-III asrlardan boshlab xalqaro savdo yo'llari orqali Sharqqa borib, avvalo, O'rta Osiyoda, qolaversa, Sharqiy Turkistonda turklar bilan faol munosabatga kirishib ketdi. IV asr-312 yilga mansub sug'd faktublari majmuasi shundan dalolatdir. Arablar istilosidan keyin



sug'dlarning turklar bilan etnik yaqinlashuvi, aralashuvi yanada kuchaygan. Bu jarayon butun O'rta Osiyoni qamragan va Sharqiy Turkistonda ham uzor davom etgan. Masalan, L.Chuguevskiy sug'dlarning assimilyatsiya qilinish jarayoni XIII asrda ham davom qilganligini hujjatlar asosida ko'rsatib bergan<sup>18</sup>. Manbalarning guvohlik berishicha, ilk o'rta asrlarda sug'd tili va yozuvining qo'llanish doirasi Sug'd davlatidan chiqib, Marv, Shimoliy Boxtar va ulkan turk o'lkalari – Choch vohasi, Farg'ona, Yettisuv, hozirgi Sinjon yerlari va Markaziy Mo'g'ulistonga qadar yoyilgan edi. Bu, avvali O'rta va Markaziy Osiyodan o'tgan savdo karvon yo'llari, xususan, ipak yo'lida turklar bilan sug'dlarning birgalikda olib borgan ishlari, shuningdek uch diniy oqim – buddizm, moniylik va nasturiylikni yerli xalqlar, jumladan turklar orasida yoyish yo'lidagi sa'y-harakatlar bilan bog'liq. Yana bir jihatdan ayrim yurtlarda turk-sug'd ikki tilliligi ham amal qilgan. Mahmud Koshg'ariyning yozishicha, Balasag'un, Tiraz, Madinatulbayz shaharlarining xalqlari sug'dcha va turkcha so'zlashganlar. Ushbu fakt ikki masalaga e'tibor qaratishni taqozo etadi: birinchidan, bu o'rinda shu o'lkalarda ikki tilda so'zlashuvchi ikki xalq yashaganligi ko'zda tutilmoqda ikkinchidan, mazkur o'lka xalqlari (sug'daq, kanjak, arg'ular) ning ikki tilliligi. Anglashiladiki, ikki xalqning aralash istiqomat qilishi, o'zaro hamkorligi, diniy e'tiqodi, mavjud ikki tillilik oqibatida so'z almashishi jarayoni yuz bergan. Ya'ni turklar tilida sug'dcha, sug'dlar lug'at tarkibida turkcha leksemalar qo'llanilgan: *nom* "dininiy ta'limot" (Oltun yorug'), *Azrua* "brahma" dinining yaratuvchisi (Mon), *Xormuzta* "iloh, tangrinning oti" (Mon), *bağ* "mevazor" (TT), *ajun* "olam, dunyo" (TT), nağid "Zuhra (sayyora nomi)" (BX).

**Xitoycha so'zlar.** Miloddan avvalgi II asrda Xun davlati kuchayib xoqonlikka aylandi. Shunda uning ta'sir doirasi Sharqda Koreya yarim oroli G'arbda Kaspiy dengizi, janubda Himolay tog'lari, Amudaryoning shimoliy hududlarigacha yetib bordi. Xitoylar bilan xunlar chegarasi Buyuk Xitoy devoridan o'tgan. Bu davrda G'arb bilan Xitoyini bog'lab turgan savdo yo'llari xunlar nazoratida edi. Shundan keyin Xun xoqonligi G'arbiy Xitoy imperiyasining shimoli va g'arbgacha qarab kengayish yo'lini to'sib qo'ydi. Xitoy xoqonlari xunlar bilan o'z hududidan o'tadigan savdo yo'llarini nazorat qilish imkoniga ega bo'lgan. Markaziy Osiyo xalqlari Buyuk ipak yo'li orqali Xitoyga borib, savdo-sotiq qilgan. Bundan tashqari, Buyuk ipak yo'li uzra buddizmning yoyilishi Sharq xalqlarining madaniy aloqalarini sharq tillarining o'zaro ta'sirini ham ta'minlab berdi. Buni qadimgi xitoy

madaniy munosabatlari, adabiy aloqalarida ham kuzatish mumkin. Qadimgi turklar orasida buddizmning tarqalishi, dastlab, tarjimachilik orqali bitta burlilish yasadi. Turkiy xalqlar buddizm diniga sig'ingan bo'lsa ham, xitoy tilidan qadimgi turkiy tilga ko'plab diniy-falsafiy, tarixiy, adabiy asarlar, tabobatga tegishli kitoblar tarjima qilangan. Diniy-falsafiy asarlar, madaniyat, badiiy adabiyotda kechgan jarayonlar qadimgi turkiy til lug'at tarkibining yangi so'z-terminlar bilan boyishiga imkon yaratdi. Xitoy tilidan diniy va falsafiy tushunchalarni anglatuvchi so'zlar, buddizm asosiy madaniyati, adabiyotshunoslik, kitobat ishi va fanning ayrim sohalariga doir terminlar turkiy tilga o'zlasha boshladi. Ayon bo'ladiki, turklar bilan xitoyliklarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalari o'zaro ta'lim tarixiga borib taqaladi. Bu hamkorliklar natijasi o'laroq, turkiy tillar lug'at boyilgiga xitoycha o'zlashmalar kirib kelgan: *Tabğac* "Xitoy" (To'n), *qan* "general" (KT), *baqši* "ustoz, murabbiy" (Oltun yorug'), *lu* "ajdar" (Oltun yorug'), *Burxan* "Budda" (TT), *tānsi* "osmon o'g'li, xitoy imperatorining unvoni" (To'n), *tutuq* "unvon nomi" (KT), *çan* "chang, melha sababi" (Oltun yorug').

### Savol va topshiriqlar

1. Qardosh turkiy tillar taraqqiyotida qadimgi turkiy til bo'lib qolgan o'rni haqida ma'lumot bering.
2. Qarindoshlik tushunchasini bildiruvchi terminlarni sanang.
3. To'nyuquq matnidan toponimlarni belgilang.
4. Qadimgi turkiy til so'z boyligida qaysi tillarga oid o'zlashmalar mavjud?
5. Bilga xoqon matnidan omonim va sinonimlarni aniqlang.

### Test sinovi

1. *Qaraqum, Qizilqum, Qara köl, Yāsil ögüz* qaysi guruhga mansub?

- |                |            |
|----------------|------------|
| A) gidronimlar | S) etnonim |
| B) toponimlar  | D) oronim  |

2. *Uri, qan, ög, āči* qanday so'zlar?

- |                                |                       |
|--------------------------------|-----------------------|
| A) shaxsni ifodalovchi so'zlar | S) aqrabolik otlari   |
| B) mavhum tushunchalar         | D) ijtimoiy terminlar |

3. *Ana, ög, āl, hodun, yoğan, qalın, uzun tonluğ, tişi* qanday so'zlar guruhiga kiradi?

- |               |               |
|---------------|---------------|
| A) omonimlar  | S) leksemalar |
| B) antonimlar | D) sinonimlar |

<sup>18</sup> Исхоков М., Соликов К., Омонов К. Мангу бигиклар. –Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2009. –Б. 25-26.

4. *Baqʻir* istilohi qaysi tilga oid?

- A) turkiy S) sanskrit  
B) xitoycha D) sugʻd

5. Sugʻdcha oʻzlashmani topingʻ

- A) tutuq S) ajun  
B) nirvan D) cigʻay

6. Qadimgi turkiy tilda *al* leksemasi qanday maʼnoni anglatganʻ

- A) el S) hiyla  
B) qoʻl D) olmoq

7. Turkiy tillarda singarmonizm qonuni mavjudligini birinchi boʻlib kim aytganʻ

- A) Alisher Navoiy S) Polivanov  
B) Mahmud Zamaxshariy V) Mahmud Koshgʻariy

### ADABIYOTLAR

1. Базарова Д., Шарипова К. Развитие лексики тюркских языков Средней Азии и Казахстана. -Т.: Фан, 1990.

2. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. -Т.: Фан, 1985.

3. Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари (ўзбек, уйғур, қозок, қирғиз, қорақалпоқ, туркман тиллари материаллари асосида). -Т.: Фан, 1966.

4. Исмоилов И. ва бошқалар. Ўрта Осиё ва Қозоғистон туркий тиллар лексикасидан (полиэкинлари, мевали дарахт номлари ва уйғур ўзғор буюмлари лексикаси материаллари асосида). -Т.: Фан, 1990.

5. Малов С. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. -М.-Л., 1951.

6. Rahmonov N., Sodiqov Q. Oʻzbek tili tarixi. - T.: Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009.

7. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. -Тошкент, 2006.

### 5-§. QADIMGI TURKIY TIL MORFOLOGIYASI. OT SOʻZ TURKUMI

**Asosiy tushunchalar:** *morfologiya, morfema, affixal morfema, murakkab morfologik birliklar, agglyutinativ tillar, flektiv tillar, soʻz yasovchi va shakl yasovchi affixlar, mustaqil soʻz turkumlari, yordamchi soʻz turkumlari, koʻplik kategoriyasi, egalik va kelishik kategoriyasi.*

Qadimgi turkiy til morfologik tip jihatidan turkiy tillar singari agglyutinativdir. Soʻz shakllari soʻzning negiziga maxsus qoʻshimchalarni umumiy tartibda qoʻshish yoʻli bilan yasaladigan tillar agglyutinativ tillar deb ataladi. Ammo qadimgi turkiy tildagi morfemalar hozirgi oʻzbek adabiy tili va singarmonizmni yoʻqotgan shevalardan singarmonistik turlarining borligi bilan farqlanadi. Lekin bu sof morfologik farq boʻlmay, fonetik farqdır.

Hozirgi oʻzbek adabiy tili morfologiyasidan qadimgi turkiy til morfologiyasining umumiy farqi quyidagilardan iborat:

1. Hozirgi oʻzbek tilida morfemalari miqdoran qadimgi turkiy tildagiga nisbatan koʻp va mazmunan boy.

2. Oʻrganilayotgan davr tilida hozirgi oʻzbek tilida mavjud boʻlmagan morfemalar ham koʻzga tashlanadi.

3. Qadimgi turkiy tilda soʻz va shakl yasovchi oʻzlashma morfemalar uchramaydi.

4. Qadimgi turkiy tilda murakkab morfemalar juda ozchilikni tashkil etadi.

Qadimgi turkiy tilning morfologik strukturasi: soʻzlarning yasalishi, ularning koʻplik, egalik va kelishik qoʻshimchalarini olishi, feʼning tarakat nomi, ravishdosh, sifatdosh funksional shakllari, shuningdek, bu soʻz turkumining orttirma, majhul darajalari, zamon kategoriyasi, sifat, yordamchi va yordamchi soʻz turkumlari hozirgi turkiy tillardan deyarli farq qilmaydi. Faqat sonlar struktura jihatidan, turli affixslarning har xil fonetik koʻrinishlarda boʻlishi bilan oʻziga xos xususiyatlarga ega. Qadimgi turkiy tildagi faol soʻzlar, soʻz va shakl yasovchi affixlar davrlar oʻtishi bilan asoslashgan, ayrimlari esa hozirgi baʼzi turkiy tillarda faol ishlatilmoqda. Jumladan, qadimgi turkiy tilda keng qoʻllangan tushum kelishigi affiksi *-i* hozirgi turk tilida ham mavjud. Jamiyat tarixiy taraqqiyoti tilning lugʻat tarkibidagi soʻzlar, affixlar adabiy shaklga tomon siljib boradi. Bu jihat oʻzining oʻziga xos qonuniyatlaridandir.

Har bir tildagi soʻzlar grammatik belgilari va semantik xususiyatlariga qarab turli guruhlar boʻlinadi. Shu tarzda ajratilgan guruhlar soʻz turkumlari sanaladi. Turkiy tillar, jumladan, oʻzbek tilida ham soʻzlarni turkumlarga ajratishda morfologik belgi, ayniqsa, soʻzning maʼnosi va shakl xususiyatlari asos qilib olinadi. Ilm ahli, ayniqsa, til tarixi mutasassislariga yaxshi ayonki, oʻzbek tilidagi soʻz turkumlari asrlar davridayida shakllanib, takomillashib keldi.

Qadimiy turkiy tildagi soʻzlar morfologik jihatdan ikki guruh: a)

mustaqil soʻz turkumlari; b) yordamchi soʻz turkumlariga boʻlinadi.

Mustaqil soʻzlar borliqdagi turli hodisalarni bildiradi (predmet, belgi, harakat va h.k.), demak, har bir mustaqil soʻzning oʻz maʼnosi bor; gapning biror boʻlagi vazifasida qoʻllanadi; ayrim hollarda mustaqil soʻz gapni hosil qiladi; yasaliş, turlanish, tushlanish kabi xususiyatlarga ega. Binobarin mustaqil soʻzlar leksik va grammatik maʼnolarga ega boʻlib, matnda ishlatilish oʻrniga qarab oʻzgarib turadi.

Mustaqil soʻzlar ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish; yordamchi soʻzlar esa koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, undov va modal soʻzlardan tashkil topadi. Mustaqil soʻz turkumlariga kiruvchi soʻzlar kelishik affikslarini oladi, shaxs-son affikslari bilan tushlanadi, zamon, mayl, daraja affikslarini qabul qiladi. Shu xususiyatlari bilan yordamchi soʻz turkumlaridan farqlanib qabul qiladi. Yordamchi soʻz turkumlarida ana shunday xususiyat yoʻq. Yordamchi soʻzlar mustaqil soʻzlarni bogʻlashga va qoʻshimcha maʼnolarni ifodalashga xizmat qiladi.

## OT

Soʻz turkumlari orasida **ot kategoriyasi** oʻzining semantik morfologik va sintaktik xususiyatlari bilan til qurilishida salmoqli oʻrin tutadi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilidagi ot turkumiga oid soʻzlar uzoq tarixga ega. Ular jamiyat taraqqiyoti va xalq turmushdagi oʻzgarishlarga morfo- ravishda tilning ichki imkoniyatlari yordamida rivojlangan. Buni koʻhna obidalar til xususiyatlarini kuzatish chogʻida ham koʻrish mumkin.

Qadimgi turkiy tilda ot turkumiga kiruvchi soʻzlar koʻp boʻlib, semantik tomondan hozirgi turkiy tillardagi singari xususiyatlarga ega. Qadimgi turkiy tilda ot turkumiga mansub soʻzlar kishi nomlari (antroponim (*Bilga qağan*), zoonim - hayvon nomlari (*qoy, bars, bori*), jism nomlari (*sub*), qavm-qarindosh (*qan*), astroponim (*Ud, Ay*) larni ifodalaydi.

Ot egalik, koʻplik va kelishik affiksini oladi, boshqa turkumdagilardan farqli ravishda morfologik va sintaktik usul bilan ot turkumidagi soʻzlar yasalanadi.

**Koʻplik kategoriyasi.** Qadimgi turkiy tilda ham otlar koʻplik va birlik shakllarida qoʻllangan. Otlar birlikda qoʻllanganda maxsus koʻrsatkich boʻlmaydi. Otlarda koʻplikni ifodalashning morfologik usuli sermahsuldir. Bular quyidagilardir:

**-lar/-lär** affiksi: *ağiliqlar* “boyliklar, xazinalar”, *tapiğçilar* “xizmatchilar”, *soñuqlar* “suyaklar” (Oltun yorugʻ), *beglar* “beklar” (Toʻn), *qunçuyilar* “xonimlar” (KT). Bu shakl runik yodnomalarda faqat otlarga qoʻshilgan boʻlsa, keyingi davrlarda,

shaxs nomi bilan ham qoʻshilib kela borgan: *bardilar* “bordilar”, *berdilär* “berdilar”, *ögläntürdilär* - oʻziga kattadilar.

Bu qoʻshimcha qadimgi turkiy tilda erkalash, kuchaytiruv, taxmin va boshqalarni ifodalash uchun ham xizmat qilgan: *ämräk öküklärim* “sevimli bolalarim” (Oltun yorugʻ), *yüräkläri* - “yuraklari” (TT), *qırq yıllar* - qirq yil (E).

**(d)** Bu davrda **n** fonemasi bilan tugagan soʻzlarning koʻpchiligi **t** ga qoʻshilgan holda yasalganini koʻrish mumkin: *tarqan* (Toʻn) - *tarqat* (KT), *tegin* - *tigit* “shahzodalar” (Oltun yorugʻ), *alpağu* (E) - *alpğı* “botirlar” (Oltun yorugʻ) va h.k. Bu qoʻshimchani olgan soʻzlarga *tarqatlar* shakli ham qoʻshilib kelgan. Bu hodisa «Oltun yorugʻ»da uchraydi: *tarqatlar, tarqatlar*. Mazkur shakl hozirgi mogʻul tillarida bor, yoqut tilida *tarqatlar* oʻrinlarda saqlanib qolgan.

**-än /-än** qoʻshimchasi bilan ham koʻplik maʼnosi ifodalangan va **-an** affiksini qolin, **-än** esa ingichka negizga qoʻshiladi: *ärän* “erlar” (KT), *oğlan* “bolalar, farzandlar” (E).

Turkiy tillar tarixida ikkilik **-z** qoʻshimchasi bilan ham yasalgan: *ağiz* (TT), *koküz* “koʻkrak” (Oltun yorugʻ), *äkiz* “egiz” (E), *köz* “koʻz” (E), *yüz* “yuz” (TT), *biz* “biz” (BX), *tiz* “tizza” (Oltun yorugʻ), *müyüz* “müyz” (TT).

**Egalik kategoriyasi.** Qadimgi turkiy tilda ham ot turkumiga kiruvchi otlar egalik affiksini olib, narsa - predmetning uch shaxsdan biriga egalikni ifodalashning eng sermahsul morfologik usulidir. Egalik qoʻshimchalari quyidagi koʻrinishga ega:

## BIRLIK

**I shaxs - m (-im, -im // -um, -üm):** *başim* “boshim”, *közüm* “koʻzim”, *başımum* “xalqim”, *älüm* “elim”.

**II shaxs - η (-iñ, -iñ // -uñ, -üñ):** *bögänñ* - xanjaring, *bägiñ* “beging”, *xonıñ* “xonining”.

**III shaxs - i, -i // -si, -si:** *biligi* “ilmi”, *süsi* “qoʻshini”, *yağisi* “dushmani”.

## KOʻPLIK

**I shaxs - miz, -miz // -muz, -müz (-imiz, -imiz // -umuz, -ümüz):** *ünümüz* “bizimiz”.

**II shaxs - ñiz, -ñiz // -ñuz, -ñüz (-iñiz, -iñiz // -uñuz, -üñüz):** *abamiz* “abamiz”.

**III shaxs -lari, -läri, -si, -si:** *qunçuyilari* “xonimlari”, *bägläri* “beklari”.

**Kelishik kategoriyasi.** Kelishiklar turkiy tillarning qonuniyatlaridan biridir. Til tarixi davomida uning soni ba'zan o'zgarib turgan. Otlarning kelishiklar bilan turlanishi bosh kelishikdagi holatning o'zgarishidir. Kelishiklar otlarning boshqa so'zlar bilan bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. Bu munosabat predmetning boshqa narsa-predmetga harakat, belgi bilan aloqasini ifodalaydi. So'zlarning qattiq va yumshoq o'zakli bo'lishiga qarab, kelishiklarning har xil fonetik variantlari qo'shiladi.

Qadimgi turkiy tilda quyidagi 7 ta kelishik mavjud bo'lgan:

**1. Bosh kelishik.** Qadimgi turkiy tilda hozirgi turkiy tillardagidek bosh kelishik morfologik ko'rsatkichi bo'lmasligi bilan xarakterlanadi.

Bosh kelishikda kelgan so'zning gapdagi asosiy funksiyasi o'z vazifasini bajarishdir. Masalan: *Tabgach qaغان yağimiz erti* "Xitoy xoqon dushmanimiz edi" (To'n.).

**2. Qaratqich kelishigi** quyidagi variantlarga ega: *-niñ, -niñ// -nun, -nün// -iñ, -iñ// -uy, -üñ*. Masalan: *Bayırqunuñ, burxanlarniñ, tãñriniñ, Külteğiniñ, uluğlarniñ, altunuñ*.

Bir affiksning turlicha ko'rinishlarda ishlatilishi singarmonizatsiya qonuniyati bilan bevosita bog'liqdir. So'z tarkibida lablangan unli bo'lsa, *-nun, -nün// -uy, -üñ*, lablanmagan unli hisoblansa, *-niñ, -niñ, -iñ, -iñ* shakllari qo'shiladi.

**3. Tushum kelishigi** *-ğ, -g (-iğ, -ig// -uğ, -üğ// -ağ, -äg); -i, -i// -n// -ni* qo'shimchalari bilan ifodalangan. Masalan, *süg* - lashkarni, *tashqari* "toshni", *işig* "ishni", *küçug* "kuchni", *temiräg* "temirni", *iğaçag* "daraxtni", *bodunuğ* "xalqni", *arig* "erni", *acisin* "akasini", *savin* "so'zini", *kimni* "kimni", *bäni* "meni", *säni* "seni".

Hozirgi turkiy tillarda tushum kelishigidagi so'z o'zi bilan kelgan fe'l bilan shunday bog'langan bo'ladiki, boshqa hech qanday kelishik bunday munosabatga kirishmaydi. Xuddi ana shunday xususiyat qadimgi turkiy tilda ham uchraydi.

**4. Jo'nalish kelishigi** qo'shimchasi *-ğaru, -gärü// -qaru, -kärü// -ğar, -gär// -ru -rü// -ra, -rã// -qa, -kã// -ğa, -gã// -a (ya), -ã (yã)*. Masalan, *oğuzğaru* "o'g'izga", *bizgärü* "bizga", *yoqaru* "yuqori", *mãñar* "menga", *sãñar* "senga", *añaru* "unga qarab", *abimrü* "uyimga", *taşra* "tashqariga", *yüräkrã* "yurakka", *qağanqa* "xoqonga", *yärkä* "yerga", *qunçuyimğaru* "bekachimga", *adgüga* "ezguga", *tağa* "toqqa", *ajuna* "dunyoga, borliqqa", *yüraya* "so'lga", *biriya* "o'ngga".

Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi *yuqori, tashqari, ichkari, teskari* so'zlari tarkibidagi - qori, - kari qadimgi jo'nalish kelishigining qoldiqlari

Ushbu payt kelishigi *-da, -dã// -ta, -tä* variantlariga ega. Masalan: *Altun vodiyisida*, *eldã* "elda", *altı yaşimta* "olti yoshimda", *bo'ynida* "bo'ynida".

Hozirgi matnlarda ba'zan o'rin, chiqish va jo'nalish kelishiklari qo'llangan: *...qağanta körüg kelti* "xoqondan kuzatuvchi qirgizga qaytdik" (To'n), *könül içintã ot kirdi* "otning o't kirdi" (T).  
**5. O'tiqish kelishigi** *-dan, -dan// -din, -din// -dun, -dün// -tan, -tãn// -tin, -tãn* qo'shimchalari bilan hosil qilingan: *oğuzdan* "o'g'uzdan", *shahardan*, *balıqdın* "shahardan", *uluşdın* "qabiladan", *aldın* "qaydan", *yerintãn* "yerindan", *ağrıqtın* "og'riqdan", *mushkullaridan*.

**6. Vosita kelishigi** qo'shimchasi *-n (-in, -in// -un, -ün// -an, -ãn)* ishlatilgan. Vosita bo'lish, boshlanish o'rni, birgalik, vosita ma'nolarini bildiradi. *Omkan arin qışladım* "O'tikan erida qishladim", *bu yolın yorısar* "bu yo'l bilan yursa" (To'n), *oğlın qul boltı* "o'g'li bilan qul bo'ldi".  
**7. Ko'z bilan kelishigi** *qulqaqın eshidmädük* "ko'z bilan ko'rmadik, quloq bilan eshitmadik" (KT), *sünügün* "nayza bilan", *tilin* "tili bilan", *yulduzun* "yulduz bilan". Qadimgi turkiy til va eski turkiy til davriga xos bo'lgan kelishikning qoldiqlari hozirgi o'zbek adabiy tilida ham uchraydi: *qışın yozın, ertan, ochin-to'qın, yupun* va h.k.

**8. Otlarning yasalishi.** Qadimgi turkiy tilda ot, fe'l, otlashgan so'z yoki fe'l bilan ot yasovchi quyidagi qo'shimchalar mavjud bo'lgan:

**1. -çi, -çi** qo'shimchasi. Qalin negizga *-çi*, ingichkasiga *-çi* shakli qo'shiladi. Bu qo'shimcha kasb va biror yumush egasini bildiruvchi ot yasovchi: *badıçı* (<*badız* "naqsh") "naqqosh", *yoğçı* (<*yoğ* "aza") "azachi", *maslahatçı* (<*maslahat*) "maslahatchi", *emçi* (<*em* "davo") "tabib", *xatçı* (<*bitig* "xat") "kotib".

**2. -liq, -lik/liğ, lig// -luq, -lük// -luğ, -lüg** qo'shimchasi. Lablanmagan unlili qalin negizga *-liq*, ingichkasiga *-lik*, lablangan unlili qalin negizga *-luq*, ingichkasiga *-lük* shakli qo'shiladi: *açliq* (<*aç* "och") "ochlik", *yemişlik* (<*yemiş* "meva") "mevazor", *qamışliğ* (<*qamış* "qamish") "qamishzor", *tãblig* (<*tãb* "yalg'on") "yalg'onchi", *burunluğ* (<*burun* "burun") "burunduq", *borluq* (<*bör* "may, sharbat") "uzumzor", *kunlik* (<*kun* "kun") "kunlik".

**3. -qan (xan), -kãn// -ğan, -gãn** qo'shimchasi laqab, unvon, geografik va astronomik nomlar tarkibida uchraydi. Qalin negizga *-qan*, ingichkasiga *-kãn* varianti qo'shiladi: *tãñrikãn* (<*Tãñri* "Xudo")

“xudojo‘y”, *bazgan* (<*baz-bas* “bosmoq”) “bosuvchi”, *yetikan* (<*yeti* “yeti”) “Yeti qaroqchi”, *Qadirqan* (<*qadir* “qiyin, qattiq”) “Qadirqan (hozir Xingan)”.

4. **-qaq, -kāk//gāq, -gāk//gūq, -gūk** affiksi otga qo‘shilish mahdudlik, chegaralanganlik, fe‘lga qo‘shilganda esa qurol, vosita ma‘nosini bildiradi. Jarangsiz undosh bilan tugagan qalin negizga *-qaq* ingichkasiga *-kāk* varianti qo‘shiladi: *qizgāq* (<*qiz* “ochko‘z”) “yomonlik”, *orgāq* (<*or* “o‘rmoq”) “o‘roq”, *qačqāq* (<*qač* “qochmoq”) “qochmoq”, *qazgūq* (<*qaz* “qazimoq”) “qoziq” va h.k.

5. **-qu, -kūl//gū, -gū** qo‘shimchasining ham negizga qo‘shilish tartibi bundan oldingi qo‘shimchaniki singari bo‘lib, mavhumlik ma‘nosini bildiradi: *belgū* (<*bel* “tepalik”) “belgi”, *oğlangū* (<*oğlan* “o‘g‘lon”) “yoshlik, bolalik”, *esāngū* (<*esān* “eson”) “esonlik, omonlik”, *inčkü* (<*inč* “tinch”) “tinchlik”.

6. **-taš, -tāš//daš, -dāš** qo‘shimchasi hozirgi o‘zbek tilidagi *-dosh* ning o‘zidir. Negizga qo‘shilish tartibi bundan oldingi qo‘shimchaniki singaridir: *qadash* (<*qa* “qarindosh”) “tug‘ishgan”.

7. **-š** qo‘shimchasi undosh bilan tugagan so‘zlarga birikkandagina oldiga tor unli qo‘shiladi: *bağiš* (<*bağ* “bog‘, boylam”) “arqon”, *kūsūš* (<*kūsā* “istamoq”) “istak”, *bōgūš* (<*bōgū* “dono”) “tushunish”, *alqūš* (<*alq* “maqtamoq”) “maqtov, alqov”, *uruš* (<*ur* “urmoq”) “urush”.

8. **-siq, -suq, -sūik** qo‘shimchasi. Birinchi varianti qalin negizga, ikkinchisi ingichka negizga qo‘shiladi. Otdan ot yoki sifat yasaydi: *kunbatsiq* (<*bat* “botmoq”) “G‘arb”, *kūn toğsuq* (<*toğ* “tug‘moq, chiqmoq”) “Sharq”, *bağirsuq* (<*bağir* “jigar”) “ichak”.

9. **-m(-im, -im, -um, -üm)** qo‘shimchasi undosh bilan tugagan negizlarga qo‘shilganda, oldida bir tor unli paydo bo‘ladi. Bu unlining sifati negizning qalin-ingichkaligi va tarkibidagi unlining lablanganlablanmaganligiga bog‘liq. Fe‘ldan anglashilgan harakat bilan bog‘liq narsa-predmetni bildiradi: *alim* (<*al* “olmoq”) “qarz”(qarz bergangandagina nisbatan), *berim* (<*ber* “bermoq”) “qarz”(qarzdorga nisbatan), *ölüm* (<*öl* “o‘lmoq”) “o‘lim”, *kādīm* (<*kād* “kiymoq”) “kiyim”.

10. **-n, -in, -in, -un, -ün** qo‘shimchasi. Negizga qo‘shilish tartibi *-m* niki singari bo‘lib, fe‘l bildirgan harakat natijasida paydo bo‘lgan predmetni anglatadi: *aqin* (<*aq* “oqmoq”) “sel”, *terin* (<*ter* “termoq”) “jamoa”, *bulun* (<*bul* “topmoq”) “asir”, *egin* (<*eg* “egmoq”) “yelka”.

11. **-ma, -mā** qo‘shimchasi. Qalin negizga *-ma*, ingichka *-mā* varianti qo‘shiladi. Fe‘l anglatgan harakat natijasida paydo bo‘lgan va shu harakatni bajaruvchini ifodalaydi: *yelmä* (<*yel* “yelmoq”) “tez otliq guruh”, *kesmä*

(<*kes* “kesmoq”) “kokil”.

12. **-q, -k, -g, -ig, -ig, -uğ, -üg, -iq, -ik, -uq, -ük** qo‘shimchasining ham islatilishiga qo‘shilish tartibi *-m, -n* affikslari singari bo‘lib, fe‘l ifodalagan harakatni bajaruvchi va shu harakat bilan bog‘liq predmetni anglatadi: *qaramq* (<*qara* “qaramoq”) “ko‘z qorachigi”, *yazuq* (<*yaz* “yomonlik qilmoq”) “gunoh”, *tōšāk* (<*tōšā* “to‘shamoq”) “to‘shak”, *ornağ* (<*orna* “o‘rmoq”) “o‘rindiq”, *qapig* (<*qap* “yopmoq”) “eshik”, *tutuğ* (<*tut* “tutmoq”) “parov”, *bilig* (<*bil* “bilmoq”) “bilim”, *körüg* (<*kör* “ko‘rmoq”) “kuzuvchi, ayg‘oqchi”, *bitig* (<*bit* “bitmoq”) “xat, yozuv”, *yaruq* (<*yar* “yarimoq”) “yorug‘, nur”.

13. **-č** qo‘shimchasi mavhum ot yasaydi: *saqinch* (*saqin*- “o‘ylamoq, qalamoq”) “o‘y, fikr”, *ökünč* (<*ökün* “o‘kinmoq”) “o‘kinch”, *ötünč* (<*ötün* “otimoq”) “o‘tinch”, *tarqanč* (<*tarqan*- “tarqalmoq”) “tarqalish”, *qilinč* (<*qilin* “amalga oshmoq”) “ish, qiliq”.

14. **-čn, -čü** qo‘shimchasi qalin negizga *-ču*, ingichkasiga *-čü* shakli qo‘shiladi: *abinchu* (<*abin* “ovin”) “ovinchok”, *erincü* (*erin*- “erin”) “erinchok”.

15. **-l** qo‘shimchasi fe‘ldan anglashilgan harakatni predmetlashtiradi: *ayirmoql* (<*ayir* “ayirmoq”) “farq”.

16. **-u, -ā, -i, -i** qo‘shimchasi. Bu qo‘shimcha variantlarining qo‘shilishi negizning qalin-ingichkaligi va tarkibidagi unlining lablanganlablanmaganligiga bog‘liq. Harakat natijasini anglatadi: *qaya* (<*qay* “qaytarmoq”) “qoya”, *yazi* (<*yaz* “yoymoq”) “cho‘l, dala”, *egri* (<*egir* “egirmoq, aylantirmoq”) “egri”.

17. **-qn, -gā** qo‘shimchasi. Negizga qo‘shilish tartibi yuqoridagi qo‘shimchaniki singaridir. Fe‘l bildirgan harakatga ega shaxsni anglatadi: *bilqn* (<*bil* “bilmoq”) “olim, dono”, *ögā* (<*ög* “anglamoq”) “oqil”.

18. **-qič, -ğāč, -ğuč** qo‘shimchasi. Qaysi variantining ishlatilishi negizning qalin-ingichkaligi, oxirgi tovushning jarangli-jarangsizligi va uning unlining lablanganlablanmaganligiga bog‘liq. Bu qo‘shimcha qurol ma‘nosini yasaydi: *ačqič* (<*ach* “ochmoq”) “ochqich, kalit”, *yulğuč* (<*yul* “yulmoq”) “ombir”, *qisğāč* (<*qis* “qismoq”) “qisqich”.

19. **-qin, ğin, -kin** qo‘shimchasi. Qaysi variantining qo‘shilishi negizning qalinligi, oxirgi bo‘g‘indagi unlining lablanganlablanmaganligiga bog‘liq, jaranglilik-jarangsizlilik uyg‘unligi buzilishi mumkin. Fe‘ldan anglashilgan harakatni bajaruvchi yoki shu harakatga mansub shaxs ma‘nosini bildiradi: *qačgin* (<*qač* “qoch”) “qochqin”, *barqin* (<*bar* “barmoq”) “yo‘lovchi”, *terkin* (<*ter* “yig‘moq”) “yig‘in, majlis”.

Ko‘k turk manbalarida ot yasalishining analitik shakli ham amal

qilgan: *bitig taş* “yodgorlik”, *sübaşi* “sarkarda, lashkarboshi”, *kün ortu* “Janub”, *tün ortu* “Shimol”.

Qadimgi turkiy tilda kompozitsiya usulida yasalgan toponim va gidronimlar uchraydi: *Temir qapig*, *Qaraqum*, *Qara kól*, *Yinjü ögüz*, *Yan ögüz*.

Ko‘k turk manbalarida “shahar” ma’nosida *baliq*, *uluş*, *känt* (kän-ken) *ordu* kabi so‘zlarni shahar nomlarining tarkibida ko‘rish mumkin: *Beşbaba*, *Quzuluş*, *Quzordu*, *Tärkän*, *Äbäkän*.

Qadimgi turkiy tilda *-ak*, *äk*, *-qi*, *-ki*, *-čiq*, *-čik*, *-č* kabi kichraytuvchi affiksalar bilan so‘zlar hosil bo‘ladi. Ushbu affixlar bilan hosil bo‘lgan so‘zlarning ekanligini tekshirish uchun quyidagilarni esda tutish keraklash affixlari uchraydi: *yolaq* (<yol “yo‘l”) “so‘qmoq”, *oğlan* (<oğlan “yigit”) “yigitcha”, *ataqi* (<ata “ota”) “otajon”, *anač* (<ana “ona”) “onajon”.

### Savol va topshiriqlar

1. Qadimgi turkiy tilda ko‘plik shakli qanday ifodalangan?
2. Egalik qo‘shimchalarning birlik shakllarini sanang.
3. Jo‘nalish kelishigi qanday shakllarga ega?
4. Qadimgi turkiy tilda nechta kelishik mavjud?
5. Kultegin matnidan yasama ot va sifatlarni toping?

### Test sinovi

1. Turkiy tillar morfologik xususiyatlariga ko‘ra qaysi guruhga mansub?

- |                  |                 |
|------------------|-----------------|
| A) flektiv       | S) amorf        |
| B) agglyutinativ | D) polisintetik |
2. *-lar/-lär*, *-an*, *-än*, *-t (d)*, *-z* qanday qo‘shimcha?
- |             |                             |
|-------------|-----------------------------|
| A) kelishik | S) so‘z yasovchi            |
| B) ko‘plik  | D) sintaktik shakl yasovchi |

3. *küsüš* leksemasi qadimgi turkiy tilda qanday ma’noni ifodalagan?

- |             |           |
|-------------|-----------|
| A) shuhrat  | S) istak  |
| B) intilish | D) vazifa |

4. O‘zak va affiksial morfemalarning tabiatiga ko‘ra tillar qanday guruhlarga bo‘linadi?

- |   |
|---|
| A) agglyutinativ, flektiv, polisemantik, amorf  |
| B) agglyutinativ, flektiv, polisintetik, amorf  |
| S) agglyutinativ, adyektiv, polisintetik, amorf |
| D) agglyutinativ, flektiv, polisintetik, amorf  |

5. *közün körmädük*, *qulqaqin esüdmädük* birikmalaridagi *közün*, *qulqaqin* so‘zlari qanday qo‘shimcha olgan?

- |                     |                     |
|---------------------|---------------------|
| A) tushum kelishigi | S) majhul nisbat    |
| B) o‘zlik nisbat    | D) vosita kelishigi |
6. *-tu -ru*; *-ra*, *-rä* qaysi kelishik qo‘shimchasi?
- |                        |                         |
|------------------------|-------------------------|
| A) jo‘nalish kelishigi | S) o‘rin-payt kelishigi |
| B) tushum kelishigi    | D) vosita kelishigi     |
7. Vosita kelishigi qo‘shimchasi qatnashgan so‘zlarni toping?
- |                  |                 |
|------------------|-----------------|
| A) Arin, yolin   | S) körün, örtön |
| B) sabatın, aqın | D) bilin, tapın |

### ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. –Т.: Fan va Turizm, 1982.
2. Abdurrahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining grammatikasi. – T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008.
3. Малов С. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и переводы. –М.-Л., 1951.
4. Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. - T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009.
5. Соликов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг тарихи ва тикланиши. –Тошкент, 2006.
6. Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. –Т.: ФАН, 1963.

### 6-6. SIFAT, SON VA OLMOSH SO‘Z TURKUMLARI

**Asosiy tushunchalar:** *belgi*, *darajalanish*, *morfologik usul*, *sifat*, *hisoblash*, *miqdor*, *sanoq son*, *dona son*, *tartib son*, *tub son*, *hisob*, *talim*, *talimlik*, *kishilik olmoshi*, *ko‘rsatish olmoshi*, *o‘zlik olmoshi*, *so‘roq olmoshi*, *bilgizlash*, *jamlash olmoshi*, *gumon olmoshi*.

Turkiy tillar, xususan, o‘zbek tilida **sifat** tarixan maxsus morfologik guruhga ega bo‘lmagan. Mutaxassislarning fikricha, sifat dastavval mustaqil so‘z turkumi sifatida mavjud bo‘lmagan, keyinroq ot turkumidan ajralib chiqqan va rivojlangan. E.V.Sevortyaning ta’kidlashicha, sifatning asoslan differentsiatsiyalanishi ancha ilgari davrlarda boshlangan. V – VIII asrlarga kelib, bu jarayon ancha keng tus olgan. Sifatning jamlanishi asta-astalik bilan turli davrlarda paydo bo‘lgan xilma-xil shakllar hisobiga yuz bergan. Ushbu leksemalarning ba’zilari qadimdayoq kammahsul bo‘lgan, ba’zilari esa o‘z sermahsulligini hozirgi kungacha saqlab qolgan va hatto

kengaytirgan. Muayyan shakllar ot va sifat uchun mushtarak hisoblangan, yana boshqa birlari faqat sifatgagina tegishli bo'lib, keyingi davrlarda taraqqiy etmagan<sup>19</sup>.

Turkiy tillar taraqqiyot bosqichining qadim davrlaridan boshlangan sifatning otdan ajralib chiqishi uzluksiz hodisa bo'lib, bu jarayon davom etmoqda. Bundan hamma sifat otdan ajralib chiqqan, degan fikrga kelmaslik kerak. Chunki sifat mustaqil kategoriya sifatida shakllanganidan so'ngi barcha turkum tarkibida yangidan qo'shilgan belgi ifodalovchi bir qator tub va yasama so'zlar, yasovchi affiksalar mavjudki, ularning etimologiyada hozircha aniqlangan emas.

Sifatlar narsa-predmetning belgi-xususiyatini turli nuqtai nazardan anglatadi, belgilar bevosita insonga yoki borliqdagi jonli va jonli narsalarga tegishli bo'lishi mumkin.

Qadimgi turkiy tilda sifatlar ma'nosi va tuzilishiga ko'ra asliy va nisbiy sifatlarga bo'linadi.

**Asliy sifatlar:** narsa-predmetning rang-tusi: *ala* "ola", *aq* "oq", *qora* "qora", *yaşil* "yashil". Masalan: *qizil qan* "qizil qon", *qora tar* "qora ter", *sariğ altun* "sariq oltin", *aq kümüş* "oq kumush", *qizil qaya* "qizil qoya", *yağiz yâr* "qo'ng'ir yer"; shakli: *ägri* "egri", *sämiz* "semiz", *toriq* "ozg'in", *asra* "past", *köni* "to'g'ri"; xususiyatini bildiradi: *arig* "toza", *soğug* "sovuq", *adgu* "yaxshi", *yablaq* "yomon".

**Nisbiy sifatlar.** Qadimgi turkiy tilda nisbiy sifatlar, asosan, affiksalar yordamida otlar va fe'llardan yasalgan:

1. **-liğ, -lig//luğ, -lüğ** qo'shimcha otdan sifat yasaydi va egalik hamda nisbatni bildiradi: *qağanliğ* (<*qağan* "xoqon") "xoqoni bor", *ekinliğ* (<*ekin* "ekin") "ekinli", *bodunluğ* (<*bodun* "xalq") "xalqli", *küçlüğ* (<*küç* "kuch") "kuchli".

2. **-siz, -siz//suz, -süz,** Bu qo'shimcha otdan egasizlik va yo'qlik bildiruvchi sifat yasaydi: *yağısız* (<*yaği* "dushman") "dushmansiz", *biligsiz* (<*bilig* "bilim") "bilimsiz", *yolsuz* (<*yol* "yol") "yo'lsiz", *ögsüz* (*ög* "ona") "etim".

3. **-saq, -sāk.** Bu istak bildiruvchi fe'l yasovchi *-sa, -sā* hamda fe'ldan sifat va ot yasovchi *-q, -k* qo'shimchasining birlashuvidan hosil bo'lgan: *bağirsaq* (<*bağir* "jigar") "rahmdil, ko'ngilchan", *keksāk* (<*kek* "kek") "kekchi".

4. **-siğ, -sig** qo'shimchasi otdan sifat yasaydi va o'xshashlik ma'nosini bildiradi: *qulsığ* (<*qul*) "qulday"; *bägsig* (<*bäg* "bek")

<sup>19</sup> Севортян Э.В. Из истории прилагательных в тюркских языках//Тюркологический исследования –М.-Л., 1963. –С. 58.

1. **-gi, -gi.** Bu qo'shimcha ot, ravish va olmoshdan nisbiy sifat yasaydi: *tarangsiz* undosh bilan tugagan qalin negizga *-qi*, ingichkasiga *-gi*, *qamshil* undosh bilan tugagan qalin negizga *-ği*, ingichka negizga *-gi*. Masalan: *oyga oid* ("ay") "oyga oid", *yaygi* (<*yay* "yoz") "yozgi", *üstinki* ("üstün") "üstudagi".

2. **-ti, -ti** qo'shimchasi fe'l va sifatdan sifat yasaydi: *uz* (<*uz* "uz") "uz", *mohir*, *yabiz* (<*yaba* "yovvoyi") "berahm".

3. **-li, -li** qo'shimchasi: *yaşil* (<*yaş* "yangi, yash") "yashil", *qizil* (<*qizil* "qizil") "qizil", *tükäl* (<*tükä* "tugamoq") "tugal" singari so'zlar tarkibida uchraydi.

4. **-li, -li** qo'shimchasi: *yaruq* (<*yaru* "yorishmoq") "yorishmoq", *yumşaq* (<*yumşa* "yumshamoq") "yumshoq", *açığ* (*açi* "ochilmoq") "achchiq", *quruğ* (<*quru* "qurimoq") "quruq", *isig* (*isi* "isilmoq") "isilq", *süçüg* (*süçi* "shirin bo'lmoq") "shirin".

5. **-li, -li** qo'shimchasi: *bulğānč* (*bilğan* "iflos qilmoq") "iflos, bulğānč", *tarqānč* (*tarqan* "tarqalmoq") "tarqoq".

6. **-li, -li** qo'shimchasi: *adinčig* (<*adin* "boshqa") "boshqacha", *hayratlıçig* (<*hayratlı* "hayratda qolmoq") "hayratli, ajablanarli", *qırqınçig* (<*qırqın* "jirkanmoq") "qo'rqinchli, dahshatli".

**Sifat darajalari.** Qadimgi turkiy tilda sifat darajalari sifatlar oldidan hosil bo'lgan so'zni qo'llash yoki ularga biror affiksni qo'shish orqali hosil bo'ladi. Hozirgi o'zbek tilidagidek, uch daraja shakli mavjud:

1. **Oddiy daraja.** Bu darajada belgining ortiq yoki kamligiga nisbatan nisbat bildirilmaydi.

2. **Otyosiy (ozaytirma) daraja.** Bu davr yodnomalarida *-raq/-rāk* affiksni belgining ortiqligini ko'rsatgan. Masalan: *yeg* (yaxshi) - *yegrāk* (eng yaxshi), *artuq* (ortiq) - *artuqraq* (eng ortiq).

3. **Orttirma daraja.** Orttirma daraja narsa - predmetdagi belgining kamligi narsa-predmetdagi belgidan ortiqligini bildiradi va bunda sifat otdan *an, an, anyig* kabi so'zlar qo'llangan. Bu so'zlar hozirgi o'zbek tilidagi *juda, hech* kabi so'zlarga to'g'ri keladi: *ayig adgu* "juda yaxshi", *an an* "eng birinchi".

## SON

Til sistemasida ma'lum guruh so'zlar borki, ular mavhum son, miqdor, rang, to'g'rirog'i, narsa-predmetning sanash, joylashish, bajarilish tartibini bildiradi. Shuni qayd qilish joizki, turkiy tillarda **son** sistemasi, har qaysi

xalq tilida bo'lgani kabi birdaniga emas, asta-sekin shakllanib, o'zgarib kelgan<sup>20</sup>. Bunga ko'hna manbalar tilini tadqiq etish jarayonida amin bo'lish mumkin. Zero, yozma obidalarda sonlarning bir necha turlari qo'llanilgan. Bu esa, birinchidan, sonlarni imlo va talaffuz me'yorlarini aniqlash ikkinchidan, ularning etimologiyasini yoritishda qo'l keladi.

Qadimgi turkiy tilda "nol" yoq. Sanoq "bir"dan boshlanadi. Inva tug'ilgan chog'da bir yosh sanalgan, ona qornidagi davri qo'shish hisoblangan. Bir yil o'tgach, bola ikkiga to'lgan.

VI-X asrlardagi yozma yodgorliklarda songa oid xususiyatlardan bunda kichik sonlar oldin, katta sonlar keyin keladi: *yati otuz - 27, bir qo' - 31, bir otuz - 21, sākiz yetmiş - 68, yuz bās alig - 145, toquz on bās - 90*. Sanashning bu tartibi XI asrgacha amal qilgan, XI asrdan keyin o'zgarib hozirgidek qo'llangan.

Qadimgi turkiy manbalarda qayd etilgan sanash tizimi bilan boshqa boshqa sanash usuli ham amal qilgan. Ya'ni katta son oldin, kichik son keyin keladi. Bunda tarkibli sanoq son qismlari III shaxs egalik shaklidagi *artuqi* so'zi yordamida bog'lanadi<sup>21</sup>: *otuz artuqi tort - 34, qirq artuqi bās - 45, bir tūmān artuqi yeti biñ - 17 ming*.

Yodnomalarda 102, 190, 250, 300, 350 kabi sanoq sonlar quyidagi tartibda hosil qilinadi: avval birlik, keyin yuzlik, minglik va boshqalar keladi: *yuz iki - 102, iki yuz elig - 250, tort yuz toquz on alti - 496, alti yuz - 600, yuz toquz on - 190, tūmān - 10 000, tort tūmān - 40 000*.

Sonlar morfologik tuzilishiga ko'ra quyidagi bir necha guruhlarga bo'linadi.

**Sanoq son.** Bu turdagi sonlar morfologik ko'rsatkichlarga ega emas. Sanoq sonlar konkret miqdorni bildiradi: *bir, iki, uç, tört, yigirmi, otuz, yüz, miñ* va h. Shuni ta'kidlash kerakki, dona son ma'nosi ko'pincha sanoq son bilan ham ifodalangan: *Sūsi üç biñ ārmış* "lashkari uch mingta askardan iborat ekan" (To'n).

**Tartib son.** Tartib sonlar sanoq son negiziga - *nç, -inç, inç, -unç, -m* kabi affikslarni qo'shish orqali hosil bo'lgan: *ikinç* "ikkinchi", *altinç* "oltinchi", *üçünç* "uchinchi", *onunç* "o'ninchi", *ikinti* "ikkinchi" kabi.

**Taqsim son.** Sanoq sonlarga -*ar, -ār, -rar, -rār, -sar* kabi affikslarni qo'shish bilan hosil qilingan: *onar* "o'ntadan", *birār* "bittadan", *üçār* "uchtadan", *ikirār* "ikkitadan", *altirār* "oltitadan", *toquzar* "to'qqiztadan" kabi.

<sup>20</sup> Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. -Т.: ФАН, 1965. -Б. 68.

<sup>21</sup> Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. -Т.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008. -Б. 127.

**Tinglovchi son** qo'shimchasi -*ağu, -āgū* shakliga ega: *altağu* "oltov"; *bir āgū* "birtov".

**Dona sonlar** sanoq sonlarga -*ta, - da* affikslarni qo'shish bilan hosil bo'lgan: *bir ta, ikida*.

**Uchta sanoq sonlar** sintaktik usul bilan beriladi, ya'ni quyi tartibdagi birlik sonlari miqdordagi son bilan keladi: *bir iki, iki üç, tört beş*.

**Uzayib so'zlar:** *yoli* "marta", *bağ* "bog'", *sürük* "suruv", *qata* "qat"

## OLMOSH

**Olmoshlar** semantik va grammatik xususiyatlari bilan boshqa so'z turlaridan farq qiladi. Olmosh ot, sifat, son va ba'zan boshqa so'z turlarini o'rnida qo'llanib, predmet va unga xos bo'lgan belgining muayyanligini ko'rsatadi. Olmosh predmetlikni yoki uning belgisini doimiy emas, balki muayyan o'rinlarda ifoda qiladi. Shu jihatdan olmosh mustaqil so'z turkumi hisoblansa-da, aniq ma'noga ega bo'lmaydi. Olmoshning muayyan ma'nosi va qaysi so'z turkumlari o'rnida ishlatilishi matn ichida aniqlanadi.

Olmoshlar semantik xususiyati va vazifasiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi.

**I. Kishilik olmoshi.** Kishilik olmoshlari qadimgi turkiy tilda quyidagicha ko'rinishda bo'lgan: I shaxs birligi - *mān, bān*, II shaxs birligi - *on*, III shaxs birligi - *ol*; I shaxs ko'plik - *biz, bizlār*, II shaxs ko'plik - *siz*. Bu forma ba'zan II shaxs birlik ma'nosida qo'llanib tinglovchiga e'tibor berishni bildiradi. III shaxs ko'pligi - *olar, anlar*. XII-XIV asrlarda *olar, anlar* formalari qo'llangan. XV asrdan e'tiboran *alar* shakli iste'molga kirgan.

III shaxs - *ol* olmoshi egalik va kelishik affikslari bilan turlangan va ko'pincha qo'shimchasini olganda *an, ān* shakliga ega bo'lgan, ya'ni uning tarkibida fonetik o'zgarish sodir bo'ladi. Masalan:

Kelishiklar	I sh.	I sh.	II sh.	II sh.	III sh.	III sh.
	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik
Tash	<i>bān,</i>	<i>biz/lār</i>	<i>sān</i>	<i>siz/lār</i>	<i>ol</i>	<i>anlar</i>
kelishigi	<i>mān</i>					
Tashum	<i>bāni,</i>	<i>bizni</i>	<i>sāni</i>	<i>siz/n/i</i>	<i>anī</i>	<i>anlarnī</i>
kelishigi	<i>māni</i>					
Qaratqich	<i>bāniy,</i>	<i>biziy</i>	<i>sāniy</i>	<i>siziy</i>	<i>anīy</i>	<i>anlarnīy</i>
kelishigi	<i>māniy</i>					



Jo'nalish kelishigi	<i>baṅā, māṅā</i>	<i>biziṅāsāṅā</i>	<i>siziṅā</i>	<i>aṅa, aṅaru</i>	<i>anlarqā</i>
O'rin-payt kelishigi	<i>bantā, māntā</i>	<i>bizintāsāntā</i>	<i>siznitā</i>	<i>anta, anda</i>	
Chiqish kelishigi		<i>dā</i>	<i>dā</i>		

2. **O'zlik olmoshi.** Qadimgi turkiy tilda *öz* dan tashqari, *kānā* (*kändü*) so'zi ham ishlatilgan. *Öz* aslida ot bo'lib, «*nafs*» va «*jum*» ma'nolarida ishlatilgan. O'zlik olmoshi ma'nosi va grammatik xususiyatlar jihatidan hozirgi turkiy, jumladan, o'zbek adabiy tilidagi o'zlik olmoshlar farq qilmaydi.

*Öz* olmoshi aniqlovchi vazifasida kelib, aniqlanayotgan narsa predmetning ma'lum shaxsga qarashliligi, xosligini ta'kidlaydi: *Özüm qo'ltim* "ozim qaridim" (To'n).

3. **Ko'rsatish olmoshlari.** VI-X asrlarda ko'proq *ol, bu, anta, bol, anī* kabi ko'rsatish olmoshlari ishlatilgan. Bu olmoshlarning vazifalar turlicha bo'lgan. Misollar: ...*bu sabimün ešid!* "bu sozimni eshit" (KT). *bu yerda olurup...* "bu yerda o'tirib" (KT). *Anta* ko'rsatish olmoshi *o'sanda, o'sanday, šu* kabi olmoshlar o'rnida qo'llanilgan.

4. **So'roq olmoshlari.** Qadimgi turkiy tilda *kim, nā, qanī, qanā, qanta, qač, qačan, nālūk, nātāk, nāčūk* kabi so'roq olmoshlari ishlatilgan.

5. **Birgalik olmoshlari.** Birgalik olmoshlari ot, sifat va son o'rnida kelib, narsa - predmet miqdori, sanog'ini bildirgan. Qadimgi turkiy tilda *qamuğ, alqu, barča, bütün, qop* "barcha, hamma" kabi birgalik olmoshlar ishlatilgan.

6. **Belgilash olmoshlari.** Qadimgi turkiy tilda *takmā, sayn* kabi belgilash olmoshlari bo'lgan.

### Savol va topshiriqlar

1. Qadimgi turkiy tilda sifatning morfologik xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

2. Sifatlarning ma'no turlari va darajalari borasida mulohaza yuriting.

3. Sonning tuzilishiga ko'ra turlari va ularning hosil bo'lish usullarini ayting.

4. Hisob so'zlarining shakllanish jarayoni, otlarning hisob so'zlarga aylanishi haqida ma'lumot bering.

5. Olmosh turkumining o'ziga xos xususiyatlarini bayon eting.

6. Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlari haqida mulohaza yuriting.

### Test sinovi

1. *Arilq* so'zi qanday ma'noni bildiradi?

- A) oq  
B) ko'pik  
C) yashil  
D) kulrang

2. *qo'quntig, äkinlig, bodunluğ* so'zlaridagi -lig, -lig, -luğ

3. *shimchasi* qaysi so'z turkumiga oid?

- A) ot  
B) shakl yasovchi  
C) lug'aviy shakl yasovchi  
D) sifat

4. *sigrak* so'zi qaysi darajaga mansub?

- A) tabiiy daraja  
B) o'zgartirma daraja  
C) ortirma daraja  
D) qiyosiy daraja

5. *sakkiz altmish* qaysi sonni ifodalaydi?

- A) 68  
B) 78  
C) 88  
D) 78

6. Qadimgi turkiy tildagi tartib sonlarning asosiy modelini

- A) bir kam qirq  
B) qirq ikki  
C) uch yigirmi  
D) toqqiz on

7. *ikintil* sonning qaysi turini bildirgan?

- A) dona son  
B) chama son  
C) taqsim son  
D) tartib son

8. *käntü (kändü)* olmoshning qaysi turiga kiradi?

- A) o'zlik olmoshi  
B) shahar degani  
C) kishilik olmoshi  
D) birgalik olmoshi

9. *ol, bu, anta, bol, anī* kabi ko'rsatish olmoshlari nechanchi asrlarda qo'llangan?

- A) VI-X  
B) VIII-IX  
C) VII-X  
D) X-XI

### ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. -Т.: Устатим, 1982.
2. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tili tarixiy grammatikasi. - T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2009.
3. Малов С. Памятники древнетюркской письменности. - М.-Л., 1951.
4. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009.

5. Sanaqulov U. O'zbek yozma adabiy tili fonetik, morfologiya va grammatikasi. – T.: Navro'z, 2001.
6. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилининг тарихи ва тикланиши. –Тошкент, 2006.
7. Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. –ФАН, 1965.

## 7-§. FE'L

**Asosiy tushunchalar:** *zamon kategoriyasi, shaxs-son kategoriyasi, mayl kategoriyasi, tuslanish, bo'lishli-bo'lishsizlik, nisbat kategoriyasi, fe'lning vazifaviy shakllari, harakat tarzi shakllari, ko'makchi fe'llar, fe'lning yasalishi, sodda fe'llar, qo'shma fe'llar.*

**Fe'l** boshqa so'z turkumlariga nisbatan eng amaliy, eng murakkab va ayni vaqtda semantik jihatdan rang-barang grammatik kategoriyadir. Fe'l sintaktik konstruksiyalarda markaziy o'rinni egallaydi, gap strukturasi belgilaydi, uning qanday ma'noli so'zlardan tarkib topishini bildiradi. So'z turkumlari ichida asosiy o'rinni otlar va fe'llar tashkil qilishi e'tibor olinsa, uning keng qamrovli ekanligi anglashiladi.

Qadimgi turkiy tilda fe'l o'zining leksik-semantik xususiyatlariga ega bo'lgan. Fe'llar zamon va makondagi ish-harakat, shuningdek, predmet va hodisalar jarayonini ifodalaydi. Qadimgi turkiy tildagi fe'llarni ikki guruh – mustaqil fe'llar va ko'makchi fe'llarga bo'lish mumkin.

Mustaqil fe'llar gapda biror so'zni boshqarib keladi. Yordamchi fe'llarda bunday xususiyat bo'lmaydi. Bu fe'llar mustaqil fe'llar bilan kelib chiqqan mustaqil fe'lning ma'nosiga qo'shimcha ma'no berishga xizmat qiladi. Qadimgi turkiy tilda *alqinti* (tugadi), *olti* (o'ldi), *bolti* (bo'ldi), *berti* (berdi), *kelti* (keldi) kabilari eng faol qo'llangan mustaqil fe'llardir. Biroq mustaqil fe'llar qo'makchi fe'llar vazifasida ham ishlatilgan.

Ko'makchi fe'llar sifatida *erti* (edi), *ermish* (emish), *arinch* (ekani), *ersa* (esa) kabilarni ko'rsatish mumki: *qağan ermiş* “xoqon ekan”. *alqinti qağan ermiş* “bahodir xoqon ekan” (BX).

Fe'l turkumiga mansub so'zlar shaxs-sonda tuslanishi, mayl, bo'lishli, bo'lishsizlik, fe'l nisbatlari, zamon kategoriyasiga ega bo'lishi, funksional shakllarga egaligi singari xususiyatlari bilan boshqa so'z turkumlaridan farq qiladi.

**Mustaqil fe'llar.** Mustaqil fe'llar gapda sodda kesim vazifasida

ishlatiladi va o'ziga mansub bo'lgan so'zni boshqarib keladi: *Tonyuquqqa, menga ermiş* “To'nyuquqqa, menga aytdi” (To'n). *Tāgdimiz, yaydimiz* “qadam qildik, tor-mor etdik” (To'n).

Mustaqil fe'llarni harakatning obyektga bo'lgan munosabatiga qarab, faol va o'qib fe'llar va obyektsoz fe'llar kabi turlarga ham bo'lish mumkin. O'qib fe'llar tushum kelishigidagi so'zlarni boshqarsa, obyektsoz fe'llar bunday xususiyatlarga ega bo'lmaydi. Shuningdek, fe'llar qadimgi turkiy tilda ham yetakchi va ko'makchi fe'llardan tashkil topadi: *tika bārtim* “uchib bordi”, *uča barti* “uchib bordi (ko'chma ma'noda “vafot etdi”), *basa kalti* “bosib keldi” (BX) kabi.

**Ko'makchi fe'llar.** Ko'makchi fe'llar bevosita bo'lgan harakatni ifodalamaydi, balki yetakchi fe'llardan keyin kelib, yetakchi fe'lning harakatini kengaytirib, qo'shimcha ma'no ifodalashga xizmat qiladi.

Qadimgi turkiy tilda ko'makchi fe'llarga *āt-*, *bašla-*, *tur-*, *yur-*, *bār-*, *qay-*, *qoy-* kabilarni ko'rsatish mumkin. Bularning ko'makchi fe'l sifatida kontekstda reallashadi.

**To'liqsiz fe'l.** To'liqsiz fe'llar mustaqil holda ishlatilmaydigan fe'l turlari. Hozirgi o'zbek hamda o'zga turkiy tillarda ham *adi*, *akān*, *amiš*, *arim* kabi to'liqsiz fe'llar mavjud bo'lsa, qadimgi turkiy tilda ham ana shu fe'llarning turli arxaik ko'rinishlari ko'zga tashlanadi. Bular *ārmis*, *arti*, *arim* kabi shakllardir.

*Arim* so'zi ba'zi o'rinda to'liqsiz fe'l (*ekan*) vazifasida ishlatilgan. Bu fe'l to'liqsiz fe'l vazifasida X asrdan keyin arxaiklashib modal ma'noda ishlatila boshlaydi.

*Arim*, *arti*, *arimš* to'liqsiz fe'llari harakat ma'nosini ifodalamaydi, ammo shaxs-sonda tuslanadi. Biroq bu affiks qo'shma fe'lning birinchi komponentiga tegishli bo'ladi. Shuningdek, mustaqil va ko'makchi fe'lga ega bo'lishli-bo'lishsizlik, nisbat, zamon kategoriyalariga ham ega emas. Masalan: *Adirilmışda saqinur artimiz* “vafot etganda biz g'am chekdik” (BX).

**Fe'lning bo'lishli va bo'lishsizlik kategoriyasi.** Qadimgi turkiy tilda fe'l bo'lishli va bo'lishsiz shaklda bo'ladi.

Bo'lishli shaklda hech qanday qo'shimcha qo'shilmaydi: *olürti* “berdi”. Bo'lishsiz shakli esa fe'llarga *-ma*, *-mä* affiksini qo'shish yoki *yoq* so'zlari yordamida ifodalanadi: *qatun yoq bolmiş erti* “qatun yoq erdi” (To'n); *barma, kelmä, qılma, alma*.

**Tuslanish.** Qadimgi turkiy tilda ham fe'llar shaxs-sonda tuslanadi. Ammo shaxs-son formalari hozirgidan farq qiladi.

Birinchi guruhda birinchi va ikkinchi shaxs birlik hamda ko'plikda

kishilik olmoshlari birinchi va ikkinchi shaxs predikativ affiksi bilan keladi:

Birlik	ko'plik
I shaxs - <i>mān /bān/</i>	- <i>biz, - biz</i>
II shaxs - <i>sān</i>	- <i>siz, -siz</i>
III shaxs - <i>ba'zan ol, bu, turur</i>	- <i>lar, lār</i>

Shaxs-son affikslarining mazkur formalari *-mish, - miš, -b (-ub, ub-ib), -a, -ā, -r(-ar, -ār, -ur, -ür), -tači, -täči, -dači, dāči* kabi formalarini olgan fe'llarga qo'shiladi: *baramişman* "borganman", *turamiz*, *turarsiz* "turarsiz", *qaltačibiz* "qolganmiz" kabi.

II guruh paradigmasi egalik affikslari ishtirokida tuziladi:

birlik	ko'plik
I shaxs - <i>m</i>	- <i>miz, - miz, -muz, müz, -maz, -müz</i>
II shaxs - <i>η</i>	- <i>ηiz/lar/, -ηiz/lār</i>
III shaxs - <i>ī, -i</i>	<i>ba'zan ol, turur</i>

Masalan, *kelürtüm* "kelturdim", *bartum* "bordim", *basdimiz* "bosdimiz", *süñüštümüz* "urushdik". Shaxs-son affiksining qisqargan formalari *-di, -ti, -ti* affiksi bilan tugagan fe'llarga qo'shiladi. Masalan: *sančdim, körmüdüm*.

**Fe'l mayllari.** Fe'l mayllarining quyidagi turlari bor: 1) buyruq mayli; 2) istak mayli; 3) shart mayli; 4) aniqlik mayli.

Qadimgi turkiy tilda fe'lning **buyruq mayli** formasi turli shaxslar uchun turlicha bo'lgan. Bu mayl o'zak-negizga *-ğil, -gil, -qil, -kil, -iñ, -iñ* kabi qushimchalarni qo'shish bilan hosil bo'ladi: *qilğil, ešidin, bilin*.

Buyruq shaklining ikkinchi shaxs birligi fe'lning bo'lishli bo'lishsiz negizi bilan bir xildir, ko'pligi esa birlik shakliga qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinadi: *ay-, ešid-, barin* "boring(iz) oluring" "o'tiring(iz)", *emgätmän* "qiynamang(iz)".

Buyruqning *-qil, -kil; -ğil, -gil* formasi ham bor: *baqqil, qacğil, bilgel*.

Buyruq shaklining uchinchi shaxsi *-zun, -zün, -su, -sü* qo'shimchasi bilan yasaladi: *barzun* "borsin", *yarlaqazu* "yorlaqasin", *bolzu* "bo'lsin", *yitmazün* "yo'qolmasin".

Fe'l o'zagiga *-ayin, -äyin, -yin, -yin, -alim, -älim, -lim, -lim, -zun, -zün, -sun, -sun* affikslarining qo'shilishi orqali fe'lning **istak mayli** hosil bo'ladi. Bunday fe'l formalari istak, iltimos, xohish va boshqa shunga o'xshash ma'nolarni ifodalaydi.

Istak formasining birinchi shaxs birligi *-(a) yin, -(ä) yin*, ko'pligi *alim, -alim* qo'shimchasi bilan yasaladi: *bolayin* "bo'layin", *tilayin* "tilayin", *adrilmalim* "ayrilmaylik", *ötünalim* "o'tinaylik", *azmalim*

## Shartlik

**Shartlik maylining** *-sar, -sār* shakli runik, uyg'ur, moniy, brahma xarakterida uchraydi. Uning qisqargan shakli *-sa, -sā* Turfon xarabida *-sar, -sār* bilan parallel qo'llangan. Masalan: *alsar, oqitsar, kelisar, barsa, ešidsā* va h.k. Fe'lning shart mayli shakli ish-harakatning bajarilishidagi shartni bildiradi.

**Aniqlik mayli.** Aniqlik mayli maxsus qo'shimchaga ega emasligi tuzilishidagi mayl turlaridan farq qiladi. Fe'lning o'tgan, hozirgi va kelajak zamon formalari aniqlik maylida bo'ladi. Fe'llarda zamon esa *-ur, -ür, -ir, -ir, -yur, -yür, -ğalir, -galir, dači, -däči, -ğay, -gāy, -ğu, -ğuy, -guluk, -tur, -tür, -duq, -dük, -tiğ, -tig, -erti, -miš, -miš, -muš* kabi qo'shimchalar orqali yasaladi va aniqlik maylida keladi. Masalan: *barur, körür, tiläyür, atqalir* "otadi", *qaltači* "qolgan", *bolğay* va h.k.

**O'tgan zamonlari.** Qadimgi turkiy tilda ham fe'lning uch xil shakli mavjud:

- I tgan zamon fe'li
- Hozirgi zamon fe'li
- Kelajak zamon fe'li.

**O'tgan zamon fe'li.** Fe'l o'zaklariga *-di, -di, -ti, -ti, -duq, -dük, -tuq, -tüq, -miz, -miš, -miš+erti, -yür erti, -ğay erdi* kabi affikslarni va shaxs-sonni qo'shish bilan fe'lning o'tgan zamon shakli hosil bo'ladi: *saqinti* "o'yladi", *bitidi, qalmaduq, körmädük, tutmiš, idmiš* "yuborgan", *bolmağay erti, savalayür erti, bolmağay erdi*.

<b>Birlik</b>	<b>Ko'plik</b>
I shaxs <i>qiltim</i>	<i>qiltimiz</i>
II shaxs <i>kiltin</i>	<i>qiltinüz</i>
III shaxs <i>qilti</i>	<i>qilti</i>

Ushbu affikslar orqali hosil bo'lgan o'tgan zamon fe'li ish-harakatning bajarilishida aniq bajarilgani, so'zlovchining o'zi ko'rgan va bilganlari haqqida aniq xabarni ifodalaydi.

**Hozirgi zamon fe'li** *-ur, -ür, -ar, -är, -yur, -yür, -ir, -ir* va shaxs-son affikslarini qo'shish orqali hosil bo'ladi:

<b>Birlik</b>	<b>Ko'plik</b>
I shaxs <i>harurman</i>	<i>barurmiz</i>
II shaxs <i>harursan</i>	<i>barursiz</i>
III shaxs <i>barur</i>	<i>barur</i>

Ushbu fe'l formasi ish-harakatning davom etishi, qanday vaqtda sodir

bo'layotganini ifodalaydi: *qazganur* "qozonur", *ishlayur*, *saqinurman* "o'ylayurman", *menglayurmän* "xursand bo'lurman".

**Kelasi zamon fe'li.** Qadimgi turkiy tilda kelasi zamon fe'lini bildirish uchun fe'l o'zagiga *-gu, -gü-qu, -kü, -ğay, -ğay* va shaxs-son affiks qo'shiladi: *bolğay, kelğay, barğusi, barğumiz, barğuniz*.

**Fe'l nisbatlari.** Ma'lumki, fe'l nisbatlari ish-harakatning bajaruvchi bo'lgan munosabatini bildiradi. Bu munosabat fe'l o'zagiga morfologik affikslar qo'shilishi orqali ifodalanadi. Fe'l nisbatlari aniq nisbat, o'zlasma nisbat, majhul nisbat, orttirma nisbat va birgalik nisbatlarga bo'linadi.

**Aniq nisbat.** Aniq nisbat maxsus affiksga ega emas. Harakatning bajaruvchi bilan ifodalangan shaxs yoki narsa-predmet tomonidan bajarilganini bildirganini ko'rsatadi. Masalan: *Kögmän yisig' yorip* "Ko'gmon vodiyisiga borib" (KT).

**O'zlik nisbat fe'l o'zaklari unli bilan tugaganda -n, undosh bilan tugaganda -in, -in, -un, -ün** qo'shimchasi bilan hosil qilinadi: *kenin qilin, bilin, qarğan* "qarg'amoq", *qolun* "tilanmoq", *tapin* "topinmoq".

**Majhul nisbat.** *-l, -q(-k)* majhul nisbat formasini yasaydi. Undosh bilan tugagan negizga qo'shilganda oldida bir tor unli paydo bo'ladi, unli sifatini o'zakning qalin-ingichkaligi va oxirgi bo'g'indagi unlining lablanglablanmaganligiga bog'liq: *adril* "ayrilmoq", *teril, acil, saçil, buzul, buloq, boluq, alsiqdi* "olindi".

**Orttirma nisbat.** Fe'l negizlariga *-t, -ut, -ut, -it, -it, -r, ur, -ür, -ir, -ir, -tur, tür, -dir, -dir, dur, -dür, -gur, gür* affikslarning qo'shilishi bilan hosil bo'ladi<sup>22</sup>. Qadimgi turkiy tilda quyidagi orttirma nisbat qo'shimchalari bo'ladi:

1. *-z, -uz, -üz* qo'shimchasi. Negiz undosh bilan tugaganda, oldida bir tor unli paydo bo'ladi: *tutuz* "tutqizmoq", *tuyuz* "sezdirmoq", *altiz* "oldirmoq", *ütüz* "yutqizmoq".

2. *-r* qo'shimchasi. Negiz undosh bilan tugaganda, oldida, asosan, tor unli paydo bo'ladi: *ketär* "ketkizmoq", *yaşur* "yashirmoq", *olür* "bo'lur", *küyür* "kuydir".

3. *-t* qo'shimchasi. Negiz undosh bilan tugaganda, oldida bir tor unli paydo bo'ladi: *oqüt* "o'qitmoq", *küçät* "zo'rlatmoq", *sevit* "sevdirmoq", *sülät* "lashkar tortmoq", *yarat* "yaratmoq".

4. *-tur, -tür, dur, -dür* qo'shimchasi: *aqtur* "oqizmoq", *binür* "mindirmoq", *yüküntür* "yukuntir", *eşitdür* "eshittir", *yedür* "yedirmoq".

5. *-qur, -kür, -ğur, -gür* qo'shimchasi: *turqur* "turg'iz", *azğur* "adashtirmoq", *tirgür* "yashatmoq", *yatğur* "yotqizmoq".

**Birgalik nisbat.** Fe'l o'zak-negizlariga *-ş (-uş, -üş, -iş, -iş)* affiks

bilan fe'lning birgalik darajasi hosil bo'ladi. Undosh bilan tugagan negizga qo'shilganda oldida tor unli paydo bo'ladi: *bağış* "birgalik qilmoq", *oquş* "chaqirishmoq", *sözläş, ökläş* "urushmoq", *talash* "talashmoq".

**Fe'l yasallishi.** Qadimgi turkiy tilda ham xuddi hozirgi o'zbek tilidagi fe'l yasallish usul bilan fe'l yasalgan: morfologik va sintaktik usul.

Morfologik usul bilan fe'l yasallishi mahsuldor hisoblanadi. Quyidagi fe'l yasallish halar faol sanaladi:

1. *-at, -at/-i, -i/-u, -ü* qo'shimchasi ot va sifatdan fe'l yasaydi: *at* "ot" – *atlamoq*, *atış* "ovqat" – *atıştirmoq*, *tüz* "to'g'ri" – *tüzä* "to'g'rilamoq", *aş* "ovqat" – *aşatirmoq*, *tur* "tor" – *taru* "toraymoq", *qur* "quruq" – *qurultirmoq*.

2. *-atla, -la* qo'shimchasi ot dan fe'l yasaydi: *yay* "yoz" – *yayla* "yozni o'tirmoq", *sü* "Lashkar" – *sülä* "lashkar tortmoq", *at* "ot" – *atla* "ot tortmoq", *bädiz* "naqsh" – *bädizlä* "naqsh solmoq".

3. *-lan, -lan* qo'shimchasi ot va sifatdan fe'l yasaydi: *qan* "xon" – *qanlan* "xonlik bo'lmoq", *qatiğ* "qattiq" – *qatiğlan* "chiniqmoq", *yariq* "yariq" – *yariqlan* "sovut kiymoq".

4. *-qul, -äd* qo'shimchasi: *qul* "qul" – *qulad* "qul qilmoq", *kün* "kun" – *künäd* "joriyaga aylantirmoq", *qut* "baxt" – *qutad* "baxtli qilmoq", *yig* "yaxshi" – *yigäd* "yaxshilamoq".

5. *-chiq, -ik* qo'shimchasi ot dan fe'l yasaydi: *taş* "tashqari" – *taşiq* "tashqari chiqmoq", *tag* "tog" – *tagiq* "toqqa chiqmoq", *iç* "ichkari" – *içik* "ichkari kirmoq", *yol* "yol" – *yoluq* "yo'liqmoq".

6. *-sira, -sirä* qo'shimchasi ot dan fe'l yasaydi va «-sizlan» ma'nosida ishlatiladi: *qağan* "xoqon" – *qağansira* "xoqonsiz bo'lmoq", *el* "davlat" – *elsira* "davlatsizlanmoq", *tatiğ* "tot, ta'm" – *tatiğsira* "totsizlanmoq", *ög* "og" – *ögsira* "behush bo'lmoq".

7. *-sa, -sä* qo'shimchasi ot va fe'ldan fe'l yasaydi: *et* "go'sht" – *etsä* "go'shtiradi", *aç* "ochmoq" – *açsa* "ochmoqchi bo'lmoq", *körüg* "körüg" – *körügsä* "ko'rmak istamoq", *bariğ* "borish" – *bariğsa* "borish istamoq".

8. *-ta, -tä/-da, -dä* qo'shimchasi: *ün* "ovoz" – *üntä* "undamoq", *is* "iz" – *istä* "izlamoq", *al* "hiyla" – *alda* "aldamoq".

9. *-qar, -kär, -ğar, -gär* qo'shimchasi: *qodi* "quyi" – *qodiqartur* "quyilamoq", *çin* "rost" – *çingär* "rostlamoq", *baş* "boshliq" – *başğar* "boshliqlamoq", *könül* "ko'ngil" – *könülkär* "o'ylamoq", *töz* "asos" – *tözkar* "asoslamoq", *iç* "ich" – *içkär* "ichkarilatmoq".

10. *-qa, -kä* qo'shimchasi: *yarliğ* "buyruq" – *yarliqa* "buyurmoq",

<sup>22</sup> Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси – Т.: ФАН, 1965. – Б. 126.

*erinç* "baxtsiz" – *erinçkä* "g'am yemoq".

**Sintaktik usul bilan fe'l yasalishi.** Sintaktik usul bilan qo'shma fe'llar (va takroriy) fe'llar hosil bo'ladi. Qo'shma fe'llarning o'ziga xususiyatlari shundaki, ularning etakchi komponenti sifatida ot, sifat o'tlashgan so'zlar qatnashadi.

Qadimgi turkiy tilda yetakchi fe'lga qo'shimcha ma'no ottenkale quyidagi ko'makni fe'llari orqali beriladi: *süyläyü ber* "urishib bermoq", *iltü ber* "eltib bermoq", *yanip kel* "qaytib kelmoq", *adirilu bar* "ajralib ketmoq", *yatu qal* "yotib qolmoq", *qolu tur* "so'rab turmoq", *ali ot* "yig'ib olmoq", *yep qod* "yeb qoymoq", *küyü tut* "saqlab turmoq", *uçup ber* "uchib ketmoq".

Qadimgi turkiy tilda qo'shma fe'llar *ermiş*, *erinç*, *ersär* formasi orqali ham hosil bo'ladi.

*Ermış* formanti sifatdosh formalari bilan birikib, qo'shma fe'l hosil qiladi. Jumladan, bu formant *-ur*, *-ür* sifatdoshi bilan birikib, tugallanmagan o'tgan zamon fe'lini yuzaga keltiradi. Masalan: *Qağanı alp ermiş*, *aygüçü bilgä ermiş* "xoqoni botir ekan, maslahatchisi dono ekan" (To'n). Xud shunday ma'no *ärmış* formantining *-miş*, *-miş* sifatdoshi bilan birikishida ham hosil bo'ladi: *adıgli toñuzlı art uzä soquşmiş ermiş* "ayiq bilan to'ng' dovon ustida to'qnashgan" (KT).

*Ärinç* formanti aslida *är-in-ç* shaklida morfemalarga bo'linuvchi *ermaq* so'zining o'zlik darajasidagi formasidan yasalgan. Chunki shu yoz bilan yasalgan va kishining his-tuyg'usi, psixologik ahvolini anglatuvchi *sevinç*, *qorqinç*, *quvanç*, *işanç*, *saqinç*, *ökinç* kabi otlar borki, bular ham tuzilishi jihatdan shu so'zga o'xshaydi. Ammo *ärinç* so'zi hozirgi turkiy tillarning birortasida uchramaydi. Yodgorliklarda ham bu so'z qadimgi so'z yasash usulining qoldig'i sifatida ko'zga tashlanadi. Ammo *ärinç* so'zidagi «ç» elementi qanday affiks ekanligi hozircha aniq emas. *Ärinç* so'z qo'shma fe'l tarkibida yoki ot- kesimda bog'lama sifatida kelib, ichki his-tuyg'u bilan bog'liq bo'lgan ish-harakatni ifodalaydi. Masalan: *Anı üçün älig ança tutmiş ärinç* "shuning uchun davlatni shu tarzda tutgan shekilli" (KT).

*-sar*, *-sär* fe'l o'zagiga qo'shilganda, shart ma'nosidan tashqarida ish-harakatni bajarishga bo'lgan intilish, istak ma'nolarini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Shuning uchun ham *-ersär* formanti bilan kelganda qo'shma fe'llar ish-harakatining sharti, istagi, zaruriyatini bildiruvchi modal forma sifatida ishlatiladi: *Iraq ärsär yablaq ağı bärür*, *yağıq ärsär ädgu ağı bärür* "yiroq bo'lsa, yomon ipak beradi, yaqin bo'lsa yaxshi ipak beradi" (KT).

**Fe'lning funksional shakllari.** Ma'lumki, fe'lning funksional formalarda, bir tomondan fe'lga xos, ikkinchi tomondan boshqa so'z shakllariga (ot, sifat, ravish) xos xususiyatlar mujassam bo'ladi.

**Harakat nomi.** Qadimgi turkiy tilda harakat nomi *-maq*, *-māk* affiksi bilan hosil bo'lgan: *barmaq*, *suvsamaq*, *uqmaq*, *kelmāk*, *körmāk*, *ketärmāk*.

**Sifatdosh formalari.** Qadimgi turkiy tilda sifatdoshlar ham fe'llik, ham sifatlik xususiyatlariga ega. Sifatdoshlar bo'lishli va bo'lishsizlik shakllari, shuningdek, modallik va zamon kategoriyasiga ega. Sifatdoshlar o'tlashganda ot kategoriyasiga xos grammatik qonuniyatlarga ega bo'ladi, ya'ni ko'plik, kelishik va egalik affiksini qabul qiladi. Gapda qo'shiluvchi va hol vazifasini bajaradi. Ko'makchi fe'llar bilan tuzilgan sifatdoshlar tuslanishining murakkab shakllarini yuzaga keltiradi. Sifatdoshlar quyidagi affikslar orqali hosil bo'ladi:

*-daci*, *-daçi*, *-taçi*, *-täçi* affiksi: *boldaçi* "bo'lajak", *öltäçi* "o'lajak", *ochtaçi* "ochajak", *körtäçi* "ko'rajak". Bu sifatdosh kesim va sifatlovchi bo'lib keladi: ...*turk bodun öltäçisän* – turk xalqi o'lajaksan, *öltäçi bodunuğ* "o'lajak xalq".

*-ar*, *-är*, *-ir*, *-ir*, *-ur*, *-ür* affiksi: *uçar* "uchar", *adılar* "ayirar", *sevınar* "sevinar", *küyär* "kuyar", *qabiştir* "birlashur", *barır* "borir", *emgätir* "salomat chekar", *kelir* "kelur", *saqınur* "o'ylanur", *qarışur* "qorishur", *törtür* "tortishur", *közünür* "ko'rsatur". Bu formada kelgan sifatdoshlar hozirgi zamonada bo'layotgan ish-harakatni ifodalaydi.

*-miş*, *-miş*, *miş*, *-miş*, *-muş*, *-müş* affiksi: *ağzanmiş* "aytilgan", *tuğmiş* "tug'ilgan", *kösämış* "istagan", *ötünmiş* "o'tingan", *qilinmiş* "qilingan", *kelmiş* "kelgan", *tutmiş* "tutgan", *körmüş* "ko'rgan" va h.k. Bunday sifatdoshlar o'tgan zamonada eshitilganlik ma'nosini bildiradi. Sifatdosh kesim ega bo'lganda esa gapda aniqlovchi funktsiyasida ishlatiladi: *onam qatınuğ kötürmiş Təğri* "onam Xotinni ko'targan Tangri (KT). Bu sifatdosh kesim vazifasida ham keladi: *kişi oğlı qilinmiş* "inson bolasi qilingan"; *tört buluñ yağı ermiş* "to'rt tomon dushman ekan" (KT).

*-igma*, *-gmä* (*-igma*, *-igmä*, *-uğma*, *-üğmä*) qo'shimchasi: *udiziğma* "udiztirgan", *yaratiğma* "yaratilgan", *berigmä* "bergan", *keligmä* "kelgan", *uçuğma* "uchgan".

*-quçi*, *-güçi*, *-quçi*, *-küçi* qo'shimchasi: *barğuçi* "boruvchi", *tilanğuçi* "tilanuvchi", *bidğuçi* "yig'ilgan", *ağquçi* "chiquvchi".

*-sig*, *-sig*, *-suğ*, *-süg*, *-saq*, *-säk* affiksi: *tutsiq* "tutadigan", *ançulasıq* "ishlanmagan", *işlāmäsıq* "ishlanmagan", *sözlāmäsıq* "sözlanmagan".

*-duq*, *-duk*, *-tuq*, *-tuk* qo'shimchasi qaysi variantining qo'llanishi

negizning qalin-ingichkaligiga bog'liq: *barduq* "borgan", *yanduuq* "qaytgan", *boltuuq* "bo'lgan", *qazgantuq* "qozongan", *qilintuuq* "yaratilgan", *tegdük* "etgan, erishgan", *isidmadük* "eshidmagan", *tebrätük* "tebratgan", *biltük* "bilgan". Bu sifatdosh ham sifatlovchi, kesim va hol vazifasida keladi: *barduq yerda* "borgan erda"; *ichidük üçün* "taslim bo'lgani uchun"; *men iglädüktä* "men kasal bo'lganda"; *qağanta adrilmaduq* "hoqonda ayrimlagan".

*-gu, -gü, -qu, -kü* qo'shimchasi runik yodnomalarda kam uchraydi, uyg'ur, Turfon va moniy matnlarda kengroq qo'llangan: *barğu* "boradigan", *kirgü* - kiradigan, *qutqarqu* - qutqaradigan, *tökülgü* - to'kilgan, *sozlägü* - so'zlagan,

Hozirgi *borgim yo'q, ko'rgisi kelmadi* singari iboralardagi *-gi* qo'shimcha etilgan *-gu, -gü* ning shaklidir. Undan so'ng *-luq, -lük* ham qo'llanish mumkin; *topulğuluq* "tor-mor qiladigan", *üzgülik* "uzadigan". Bu qo'shimcha hozirgi o'zbek tilida ham bor: *ko'rgiligi bor ekan, borgilib qilmasin*.

*-gli, -gli* qo'shimchasi undosh bilan tugagan negizga qo'shilgan holda bir tor unli paydo bo'ladi, qaysi variantining qo'llanishi negizning qalin-ingichkaligiga bog'liq: *azğuruqli* "adashgan", *quvratigli* "yig'ilgan", *oqigli üntagli tanrı* "chaqiruvchi, javob beruvchi tangri", *keligü* "keladigan".

**Ravishdosh formalari.** Ravishdoshlar o'z holicha kesim bo'lib kelmaydigan, tuslanmaydigan, fe'llarga qo'shimcha ma'no beruvchi fe'llar shaklidir. Ravishdoshlar qo'shma fe'llarning etakchi komponenti bo'lib keladi. Ravishdoshlar quyidagicha qo'shimchalar ishtirokida voqelanadi:

*-u, -ü* affiksi: *yanturu* "qaytarib", *qatınu* "kuchayib, mustahkamlanib", *tapınu* "topinib", *ökünü* "o'kinib", *yügürü* "yugurib", *öntürü* "ozod qilib" va h.k.

*-a, -ä* affiksi: *aşa* "oshib", *tuta* "tutib", *ağa* "ko'tarilib", *kechi* "kechib", *inä* "inib, tushib", *önä* "unib".

*-i, -i* affiksi qayd etilgan ikki qo'shimchaga nisbatan kamroq uchraydi: *olı* "olib", *qodı* "qoyib", *yazı* "yozib", *eti* "etib", *eriti* "eritib", *tegi* "erishib".

Ravishdoshning yuqoridagi shakllaridan ba'zilar asta-sekin leksik grammatik jihatidan mustaqillik kasb etib, ko'makchi yoki ravishlarga aylanib qolgan. Jumladan, *tegi* so'zi aslida *teg-* fe'llining o'zagiga *-i* affiksining qo'shilishidan hosil bo'lgan, keyinchalik ravishdoshlik xususiyatini yo'qotgan va ko'makchiga aylangan: *Temir qapıgqa tegi süladimiz* "Temir qopiqqa(darvoza) qadar qo'shin tortdik" (KT).

*-p / -ip, -ip, -up, -üp* affiksi: *tep* "deb", *alıp* "olib", *arturıp* "ortirib"

*-yapıp, binip* "minib", *ışlatıp* "ishlatib", *ökünüp* "o'kunib", *öndürüp* "olindirib", *turup* "turib", *olurup* "o'tirib". Bu formadagi ravishdoshlar shaklda bo'lib va shaxsli fe'l-kesim bilan birga keladi: *yağı kışta yama içikmiş* "dushman bo'lib... yana qaram bo'ldi". *Kü eşidip xabarını* "xabar eshitib, tog'dagilar pastga tushdilar" (KT).

*-pan, -pän, -ipan, -ipän* affiksi adabiyotlarda yuqoridagi ravishdoshning rivojlangan shakli deb qaraladi. Masalan: *bir erig alıpan* "bir kishini olib hujum qildi (To'n); *tutipän* "tutibon", *körüpän* "koribon", *içipän* "ichibon", *yepän* "yebon".

*-mat, -mäti, -madi, -matın, -matin, -madın, -mädin* affiksi *-p* yoki *-pan* affiksi bilan yasalgan ravishdoshga nisbatan bo'lishsizlik formasi shaklida ishlatiladi. *Tün udimati, kundüz olurmati* "tun uxlamay, kunduz o'tirmay" (To'n); *qalmati* "qolmay", *bilmätin* "bilmasdan".

*-m, -yin* qo'shimchasi ayrim fe'llarda uchraydi. Bu affiks bilan yasalgan ravishdoshning inkor formasi va funksiyasi jihatidan *-mati, -mätin, -mätin* bilan hosil bo'luvchi ravishdosh to'g'ri keladi. Uning turli shakli ayrim misollar qadimgi turkiy tilda bor: *bolmayın, qalhemayın; ...bodun bolsun teyin* "xalq bo'lsin deb", ... *oluruş teyin* "o'turing deb aytdi", *tuyun* "bilib".

*-qali, -gali, -qali, -kali* affiksi bilan yasalgan ravishdoshning asosiy ma'nosi ish-harakatning bajarilishidan ko'zlangan maqsadni ifodalashdir: *sanqali* "sanchgani", *algali* "olgan", *yukungali* "yukungani", *üzgali* "uzadgani", *satqali* "sotgani", *tutqali* "tutgani", *oritkali* "ta'sir qilgani", *izlatkali* "izlatgani".

### Savol va topshiriqlar

1. Fe'lning qadimgi turkiy tillardagi o'mini yoriting.
2. Fe'lga xos tushunchalar haqida ma'lumot bering.
3. Fe'llarda zamon, shaxs-son, mayl tushunchalarining tuslanish shakllaridagi o'mini ko'rsating.
4. Fe'l nisbatlarini ayting. O'zbek tilida ayrim so'zlarda yaxlitlanib qolgan nisbat qo'shimchalari haqida fikr bildiring.
5. Sodda, yasama, qo'shma fe'llarning hosil bo'lish usullarini ayting?

### Test sinovi

1. Qadimgi turkiy tildagi *ät, başla, tur, yur, bär, yat* qanday fe'llar hisoblanadi?

- A) mustaqil fe'llar  
B) ko'makchi fe'llar  
C) to'liqsiz fe'llar  
D) zamon shakli

2. Qadimgi turkiy tilda *tägdimiz* sozi qanday ma'noni anglatgan?

- A) tegdik  
B) hujum qildik

B) turdik

D) tor-mor qildik

3. Fe'ning turli gap bo'lagi vazifasida kelish uchun xoslangan shakllari...

A) tuslanish deyiladi

C) zamon shakli deyiladi

B) fe'ning vazifa shakllaridir D) fe'ning munosabat shakllaridir

4. Fe'llarning munosabat shakllarini ko'rsating?

A) zamon, mayl, nisbat qo'shimchalari

B) mayl, nisbat, shaxs-son qo'shimchalari

S) zamon, mayl, ko'plik qo'shimchasi

D) zamon, mayl, shaxs-son qo'shimchasi

5. -r qanday qo'shimcha?

A) birgalik nisbat qo'shimchasi S) o'zlik nisbat qo'shimchasi

B) orttirma nisbat qo'shimchasi D) majhul nisbat qo'shimchasi

6. Qadimgi turkiy tilda *ayla* so'zi qanday ma'noda ishlatilgan?

A) yozni o'tkazmoq C) kengaymoq

B) bahorni o'tkazmoq D) yoyilmoq

7. *-ğma, -gmä (-iğma, -igmä, -uğma, -ügmä)* qanday qo'shimcha?

A) fe'l yasovchi C) ravishdosh yasovchi

B) zamon qo'shimchasi D) sifamdosh yasovchi

8. "Qutadg'u bilig"dagi *-ad* qanday qo'shimcha?

A) fe'l yasovchi C) sifat yasovchi

B) shakl yasovchi D) ravish yasovchi

### ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Г., Рустамов А. Қадимги туркий тил. -Т. Ўқитувчи, 1982.

2. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. - T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008.

3. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009.

4. Малов С. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. -М.-Л., 1951.

5. Sanaqulov U. O'zbek yozma adabiy tili fonetik, morfologik me'yorlarning ilk shakllanishi va taraqqiyoti bosqichlari. - T.: Navro'z, 2015.

6. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. -Тошкент, 2006.

7. Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. -Т.

1965.

Шукуров Ш. Ўзбек тилида феъл замонлари тараққиёти. - Т.:

1976.

### 8-§. RAVISH VA YORDAMCHI SO'ZLAR

**Asosiy tushunchalar:** *harakat belgisi, holat belgisi, holat ravishlari, o'rin ravishlari, daraja-miqdor ravishlari, grammatik vazifa, ko'makchi, ot ko'makchi, ravish ko'makchi, fe'l ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.*

Ravishlar sifatlar kabi turlovchi va tuslovchi affikslarni qabul qilmaydi, ya'ni bu turkumdagi so'zlar o'zgarmaydi. o'zlari bog'langan leksemalar bilan moslashmaydi, ularni boshqarmaydi; ravishlar bu so'zlarga birlashuv yo'li bilan bog'lanadi.

Turkiy tillardagi, shu jumladan, o'zbek tilidagi ravishlarning bir qismini boshqa so'z turkumlaridan ajrab chiqqan so'zlar tashkil etadi. Bunday ravishlarning ko'pchiligi ismlar, ayrimlari fe'llar asosida shakllangan. Ravishlarning boshqa so'z turkumlaridan ajrab chiqishi ma'lum tarixiy davrlarda har xil yo'llar bilan yuzaga kelgan. Shuningdek, ravish tarkibiga oid leksemalar tarkibi boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar tashkiliga boyib, kengayib borgan. Shuning uchun ham ravish tuzilishi va shakliga ko'ra rang-barangdir.

Boshqa so'z turkumlardan siljigan ravishlar esa otlar va fe'llardan iborat ravishlardir. Otlardan o'tgan ravishlar payt, miqdor, daraja, chegara va o'rin kabi ma'nolarni, fe'ldan o'tgan ravishlar esa holat ma'nosini ifodalaydi.

Qadimgi turkiy tilda qurol-vosita kelishigi shaklida bo'lgan otlar ko'p hollarda ravish vazifasida ishlatilgan. Bunday ravishlar sirasiga *yadağin* "yayov", *ustun* "ustida", *tarkin* "tezda", *ödin* "o'sha vaqtda" singarilarni kiritish mumkin.

Jo'nalish kelishigi shaklida bo'lgan otlar ham ko'p o'rinlarda ravish vazifasida kelgan. Bunday ravishlarga *ichra* "ichkari", *tasra* "tashqari", *ipra* "oldinga" kabilar mansub.

O'rin kelishigidagi so'zlar ham ravish vazifasida qo'llangan. Bunday ravishlar *qanta* "qayda", *anta* "u erda", *bunta* "bu erda" singari so'zlar o'rin kelishigida ishlatilgan.

Chiqish kelishigi shaklidagi otlar ham ravish funksiyasida ishlatiladi. Bunday ravishlar *qantan* "qaydan", *ohtun* "o'ngdan", *qayudin* "qaydan" va h.k.

Qadimgi turkiy tilda fe'ning ravishdosh formasidagi soʻzlar ravishdosh vazifasida kelgan. Xususan, *-a, -ā, -i, -ī, -u, -ū* shakllari bilan hosil boʻlgan ravishdoshlar ana shunday vazifada ishlatiladi. Bunday ravishlarga *soʻz* "boʻylab", *tegrā* "atrofdan", *tüzü* "boʻylab" va boshqalarni kiritish mumkin. Bulardan tashqari, *emti, tün, küntüz, bükün* kabi mustaqil ishlatilgan ravishlar ham oʻz ifodasini topgan.

Qadimgi turkiy tilda ravishlar boshqa soʻz turkumlariga nisbatan koʻp emas. Shunday boʻlsa-da, bir qator ravishlarni uchratish mumkin. Mavjud ravishlarni tub va yasamalarga ajratish mumkin.

Yasama ravishlar quyidagi affikslar orqali hosil qilinadi:

1. **-ča, -čā** affiksi ot, olmosh, sifat, sifatdoshlardan ravish yasaydi va harakatning holati, miqdori, darajasi va chegarasini bildiradi. Masalan: *anča* "ancha", *subča* "suvday", *örtča* "yongʻinday", *münča* "muncha", *ašmüčä* "dastavval", *azraqča* "juda oz holda", *türkča* "turkcha".

2. **-di, -di, -ti, -ti** qoʻshimchasi: *qatigdi* "diqqat qilib", *tukan* "tugal", *edgüti* "yaxshilab".

3. **-la, -lä** qoʻshimchasi: *tünlä* "tunda", *čimla* "chindan".

Soʻzlarning takrorlanishi, birikishi orqali ham ravishlar hosil qilingan: *ötrü-ötrü* "soʻng", *öni-öni* "asta-sekin", *tolu tükäl* "batamom", *ertü keč* "toʻorada", *bükün, küntüz*.

Ravishlarning quyidagi maʼno turlari qayd qilinadi:

1. **Payt ravishlari:** *bükün* "bugun", *küntüz* "kunduz", *emit* "emdi", *erta* "erta", *ašnu* "avval", *küntämäk* "har kuni".

2. **Oʻrin ravishlari:** *taštirti* "tashqari", *ičrä* "ichida", *birayä* "oʻngda", *yıraya* "chapda".

3. **Holat ravishlari:** *aquru* "sekin", *tärk* "tez", *yaqin-timin* "astu-sekin".

4. **Daraja-miqdor ravishi:** *münča, anča, az, üküš* "koʻp", *telim* "koʻp".

Qadimgi turkiy tilda, xususan, VI-X asrlarda *-ğacha, -gäčä* affiksi vazifasini *tägi* soʻzi bajaragan. Masalan: *Shantuy yaziqa tägi* "Shantung choʻligacha"; *Temir qapığqa tägi* "Temir darvozagacha".

## YORDAMCHI SOʻZLAR

**Yordamchi soʻzlar** lugʻaviy maʼno anglatmaydi, leksemani grammatik maʼnosini bildiradi, morfologik oʻzgarish tizimi, yasalish xususiyati ham yoʻq, gap boʻlagi boʻlib ham kelmaydi. Ular soʻz va gaplarni oʻzaro bogʻlash, ularga qoʻshimcha maʼno yuklash, soʻzlarni bir-biriga

qoʻllab kabi munosabatlarni anglatadi.

**Koʻmakchilar** gapda ot yoki otlashgan soʻzlardan keyin kelib, vosita, sabab, vaqt, makon sintaktik munosabatlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Turkiy tillarda koʻmakchilar mustaqil soʻz turkumlaridan iborat boʻlmagan. Lekin bu jarayon uzoq davrlar davomida kechgan. Bunday jarayon natijasi oʻz maʼnosida qoʻllanish bilan birga, koʻmakchi vazifasini bajaragan. Davrlar osha ular oʻzining mustaqil leksik maʼnosini yoʻqotib, koʻmakchilar turkumiga oʻta boshlagan.

Qadimgi turkiy tilda koʻmakchilar va koʻmakchi vazifasida qoʻllangan soʻzlarning oʻz ifodasini topgan. Hozirgi turkiy tillarda koʻmakchilar gapdagi vazifa oʻrtasida boʻlgan turli-tuman sintagmatik munosabatlarni ifodalashga xizmat qilgani kabi qadimgi turkiy tilda ham ana shunday munosabatlarda qoʻllangan.

Koʻmakchilar grammatik maʼno ifodalashi jihatidan kelishiklarga ajratiladi. Baʼzan kelishik formasi bajaragan funksiyani bajarishga xizmat qiladi. Koʻmakchilar maʼno anglatish jihatidan bir emas. Jumladan, *üçün, birlä, emti* va boshqa shunga oʻxshash koʻmakchilar mustaqil maʼno anglatmaydi. Lekin *ast, oñ, içintä* kabi koʻmakchilar yakka holda ham mustaqil maʼno ifodalaydi, lekin oʻrni bilan koʻmakchi vazifasida ham qoʻllaniladi hamda kelishik affiksini qabul qiladi. Ana shu nuqtai nazardan qadimgi turkiy tildagi koʻmakchilarni sof koʻmakchilar va vazifadosh koʻmakchilarga boʻlish mumkin.

**Sof koʻmakchilar.** Qadimgi turkiy tilda *birlä, üçün, iyä* (bilan), *üzä, emti* kabi sof koʻmakchilar qoʻllangan.

**Urelä** koʻmakchisi matnda bosh kelishikdagi soʻz bilan birgalikda qoʻllanganda biror ish-harakatning bajarilishidagi birgalik, birga ishtirok belgisi, aloqadorlik, daxldorlikni, shuningdek, vosita-qurol, ish-harakat jarayonining birin-ketin roʻy berganligini, harakatning bajarilishidagi belgi, holatni va boshqa shunga oʻxshash maʼnolarni ifodalaydi. Masalan: *...oguz birlä shıñuşdimiz* "oʻgiz bilan urushdik", *közüntä tolu yaši birlä barip* "boʻzida toʻla yosh bilan borib" (KT).

**Üçün** koʻmakchisi asarlarda toʻliq formada qoʻllanilgan va uning qoʻllangan *çün* shakli bu davr tilida uchramaydi. U bosh kelishik formasida kelgan soʻzdan keyin kelganda, sabab, vaj, bois, ish-harakatning biror shayxga atalganligi, narsa-predmetga tegishliligi, ish-harakatning maqsadini bildiradi. Shuningdek, ergashgan qoʻshma gap tarkibidagi ergash gapning sababini yoki natijasini bildirish uchun xizmat qiladi: *türk bodun üçün* "turk sadoqi uchun", *tinliğlar üçün* "jonivorlar uchun".

**Üçün** koʻmakchisi tushum, qaratqich, oʻrin, vosita kelishiklari



qo'shimchalari birikkan so'zlar bilan kela oladi va ma'noni aniqlashda ta'kidlaydi: *Tağri yarliqaduqin üçün* "tangri yarlaqagani uchun", *adaqlig barimig üçün* "sakkiz oyoqli jonli uchun".

*Üzä* ko'makchisi qadimgi turkiy tilda hozirgi turkiy tillardagi *past(da)* kabi ko'makchilar funksiyasida qo'llangan. Ot ko'makchilari ish-harakatning predmetning ustki va pastki qismida bo'lganligini yo'nalish tomonini bildiradi, masalan: *at üzä bintürä* "ot ustiga mindir". *Toquz oğuz bodun üzä qağan olurti* "to'qqiz o'g'uz xalqiga xon bo'ldi" (To'n).

*Sayu* va *iyä* ko'makchilari: *Ayiğ qilinč iyä barip* "yomon ish qilmishlar bilan borib". *Yir sayu barmış* "butun yer yuzi bo'ylab borib".

*Ara* ko'makchisi o'rin, paytni bildiradi: *Kečmädin ara* "tez orada", *qalın quvraq arasinta* "ko'p odamlar orasida".

**Funksional ko'makchilar.** Funksional ko'makchilar barcha so'z turkumlaridan emas, balki ot, fe'l va ravish so'z turkumlari orqali ifodalanadi. Ot so'z turkumiga nisbatan ravish so'z turkumida kamroq ravishga nisbatan fe'lda kamroq uchraydi. Shunga ko'ra funksional ko'makchilarni uch guruhga bo'lish mumkin. Bular: 1. Ot ko'makchilar. 2. Ravish ko'makchilar. 3. Fe'l ko'makchilar.

**Ot ko'makchilar.** Ot ko'makchilar yuqorida qayd qilinganidek ma'lum o'rinlarda ot vazifasida kelsa, ayrim o'rinlarda esa ko'makchilarning vazifasida qo'llanadi. Ot ko'makchilar jo'nalish, o'rin va chiqish kelishini bildiradi. affiksini olib, matnda ot funksiyasini yo'qotadi va ko'makchi vazifasida keladi. O'zidan oldin kelgan so'zga nisbatan tobe holatda bo'ladi.

Qadimgi turkiy tilda *baş, ald, ast, yüz, arqa, orta, taş, yan, art, üstün, öñ, iç* kabi ko'makchilar qo'llangan.

*Baş* ko'makchisi kelishik affiksini olib, *başinta, başida, başindin* kabi formalarda qo'llanadi. Bu shakllar o'rin, yo'nalish tomon, chiqish joyi, biron obyektga nisbatan ko'rsatadi. Masalan: *bu irq başinta az emgäki bar* "bu turdagi boshida az qiyinchiligi bar" (IB).

**Ravish ko'makchilar.** Qadimgi turkiy tilda *taşqaru* "tashqari", *so'ng*, *tapa* "tomon", *ötrü* "so'ng", *ičrä* "ichra", *yoqaru* "yuqori", *kisra* "so'ngra", *qodı* "quyi", bo'ylab, yoqalab", *kidin* "keyin", *otru* "qarshiligi", *to'g'ri*" kabi ravish ko'makchilar qo'llangan.

Ravish ko'makchilarning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, ba'zilar sinonimik qatorni shakllantirgan. Jumladan, *tapa* leksemasi *qodı, ilgärü, inärü, sayu* so'zlari sinonimik uyani voqelantirgan. *Ilgärü* so'zi kun botun tomon, ya'ni G'arb ma'nosida ham ishlatilgan.

*Tapa* ko'makchisi. Hozirgi o'zbek tilidagi *tomon* so'ziga to'g'ri

Bu so'z biror tomonga yo'nalganlikni ifodalaydi. Ba'zan qarashlilik ma'nosida ham qo'llanadi; *Oğuz tapa sülädim* "o'g'uz tomonidan tordim" (BX).

*Yoqalab* ko'makchisi. Bu so'z hozirgi turkiy tillardagi *yoqalab, quyi*, *yoqalab* so'zlari mos keladi, ish-harakat, predmetning yo'nalganligini bildiradi: *Yoqalab qodı bardimiz* "o'sha suv yoqalab bordik", *toğan quş täñridin qodı tepan qopmış* "lochin osmon (tepadan)dan quyidagi quyonga qopib qildi" (O'Y).

**Fe'l ko'makchilar.** Fe'l ko'makchilarning qadimgi turkiy tilda ravish ko'makchilarga nisbatan chegaralangan. Ravish ko'makchilarning ravishdosh formasidagi so'zlar ko'makchi vazifasida qo'llanadi. Bunday ko'makchi fe'llarga *aşa* "o'tib", *başla* "boshlab", *keča* "kechib", *başlayu* "boshlab" kabilarni ko'rsatish mumkin.

*Keča* ko'makchisi o'rin-joy ma'nolarida qo'llangan: *kögmän aşä qırqız* "ko'kmandan o'tib qirg'iz erigacha qo'shin tordik"

## BOG'LOVCHILAR

**Bog'lovchilar** ham boshqa yordamchi so'zlar kabi tarixan mustaqil so'z turkumlari asosida shakllangan bo'lib, so'z va gaplarni bir-biriga bog'lovchi vazifada xizmat qiladi. Lekin bunday bog'lovchilar turkiy tillarda kam uchraydi. Yozma yodgorliklarning guvohlik berishicha, hozirgi turkiy tillarda iste'molda bo'lgan bog'lovchilarning aksariyati taraqqiyotning o'z davrlarida Eron tillaridan yoki arab tilidan o'zlashgan bo'lib, ular XIII-XIV asrlardan faol qo'llanila boshlagan<sup>23</sup>. Qadimgi turkiy tilda bog'lovchilar deyarli qo'llanmagan. *Yämä* so'zi bog'lovchi vazifasida qo'llanishidan tashqari, ravish vazifasida ham ishlatilgan. Masalan: *Yämädilar yämä ayqirdilar* "o'tindilar va hayqirdilar", *...bod yämä, bodun yämä kiki yämä* "urug' ham, xalq ham, kishi ham", *biz yämä sülädimiz* "biz qo'shin tordik" (To'n).

*li, -li* qadimda hozirgi va bog'lovchisi o'rinda qo'llanilgan: *adigli* "adil", *niyiq* va to'ng'iz", *begli bodunli* "bek va xalq" (KT).

*Taqi: bu muntağ qilinčün öz ütünüz boşunmağay taqi ...dindär boşunmağay* "bunday qilmishi o'z vujudini ozod qilmaydi va dindor bo'lmagay" (TT).

*Azu: azu muñ üçün azu basu birgäli qizğanip* "yoki qayg'u uchun, yoki qurbon berishga qizg'anib" (Mon).

Kim: bu tort arig dindarlari kim tavga yarinta arurlar "bu tort pe  
dindorlarki, tabg'och yerindandirlar", ol ayag qilinē yoq kim biz qilmasak  
arsar "hech bir yomon ishlar yoqki, biz qilmasak" (TT).

Qalti: ...qalti tanri kuci... "agar Tangri kuchi" (KT).

Yana: Ol sabig it(i)im: qantayin sabig yana kalti "o'sha xabar  
aytdim: yana qandayin xabar keldi" (To'n).

## YUKLAMALAR

Ayrim so'z yoki gapga qo'shimcha ma'no yuklash uchun  
qo'llanadigan yordamchi so'z *yuklamadir*. Barcha turkiy tillardagi  
yuklamalar alohida yordamchi so'z turkumi sifatida ajratiladi. Yuklamalar  
leksik ma'no ifodalamaydi, gapda biror sintaktik vazifani bajarmaydi.  
Shunga ko'ra yordamchi so'zlarning bir turi sifatida qaraladi. Yuklamalar  
yordamchi so'zlardan ham o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.  
Masalan, yuklamalar bog'lovchi va ko'makchilar kabi so'zlar o'rtasida  
munosabat, sintaktik aloqani yuzaga keltirmaydi.

Yuklamalarni alohida so'z turkumi sifatida ajratish borasida bir qancha  
olimlar o'z munosabatlarini bildirishgan. Jumladan, Y. Abdurasulov  
qo'shimcha yuklamalarni so'z turkumi sifatida ajratishni ma'qul topmaydi.  
"Yuklamani turkumga ajratishning yana bir mushkul tomoni bor. Chunki  
yuklamalarning asosiy qismini turli modal ma'nolarni anglatadigan affiksli  
yuklamalar tashkil etadi. Shubhasiz, affikslar qanday ma'no ifodalashida  
qat'iy nazar so'z emas. Shuning uchun ularga so'z turkumi deb qarash ham  
u qadar to'g'ri emas, balki ularni affikslarning o'ziga xos guruhi deb qarash  
maqsadga muvofiqdir. Buni qanday hal qilish ham butun turkiyshunoslik  
oldidagi asosiy muammolardan biridir"<sup>24</sup>. Grammatik munosabatlarni  
ifodalamaydigan qo'shimchalar lug'aviy shakl hosil qiluvchilarga kiradi.  
Yuklamalarga shunchaki lug'aviy shakl hosil qiluvchi sifatida qarash to'g'ri  
emas. Yuklamalar gapga so'roq, ayiruv-chegaralov, gumon mazmunini  
beradi. Shu bois yuklamalarning alohida turkum sifatida ajratilishi  
maqsadga muvofiq. Shuningdek, lug'aviy shakl hosil qiluvchi  
qo'shimchalar muayyan turkum doirasiga xoslangan bo'ladi. Yuklamalar  
deyarli, barcha turkum so'zlariga qo'shiladi. So'zga ham, gapga ham  
qo'shimcha ma'no beradi.

Qadimgi turkiy tilda quyidagi yuklamalar qo'llanilgan:

1. **So'roq va taajjub yuklamalari:** - *mu // -mu: irinē tinlig bolgan  
mu* "baxtsiz jonotlar topiladimi", *kisiga mu alsigdi* "kishiga oldirdimi".

- *a, -ā: qamuḡ sinillarim ā* "hammasi singillarim!" *U anačim ā*

<sup>24</sup> Abdurasulov Y. Туркий тилларнинг киёсий-тарихий грамматикаси. -Т., 2009. -Б. 87.

...wajonima".

2. **Kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari:** - *oq, -ok: yalin qilič tutip*

*qanalir* "yalang qilich tutiboq uzadi";

*yanduuq yolta yemā ölti kük* "qaytgan yolda yana o'ldi".

3. **Ayiruv va chegaralov yuklamalari:** -*qina// -kina//* turli so'z  
turkumlarini bilan kelib, ularni chegaralab, ajratib ko'rsatish uchun xizmat  
beradi. Masalan, *aziqna* "ozgina", *aşnuqina* "hozirgina", *emtikinā* "endigina".

## Savol va topshiriqlar

1. Ravishlarning morfologik xususiyatlari va ularning yuzaga kelish shartini ayting.
2. Ravishlarning ma'no turlari haqida ma'lumot bering.
3. Boshqa turkumdagi so'zlarning ravishga ko'chishini izohlang.
4. Ravishlarning yasalishini misollar asosida yoriting.
5. Yordamchi so'zlarning grammatik vazifalarini tushuntiring.
6. Ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalarning grammatik ma'nolarini izohlang.

## Test sinovi

1. Qadimgi turkiy tildagi *qantan* so'ining ma'nosi...

- A) qaydan                      S) xondan  
B) qondan                      D) uydan

2. Payt ravishlarini toping?

- A) kütüz, aşnu, kütämäk      S) anča, öküş, telim  
B) icrä, birayä, yiraya        D) aquru, tärk, yaqin-timin

3. Holat ravishlarini toping?

- A) kütüz, aşnu, kütämäk      S) anča, öküş, telim  
B) icrä, birayä, yiraya        D) aquru, tärk, yaqin-timin

5. Qadimgi turkiy tildagi *yiraya* ravishining qaysi turiga kiradi?

- A) payt ravishiga                S) daraja-miqdor ravishiga  
B) o'rin ravishiga                D) holat ravishiga

6. Qadimgi turkiy tildagi *kisrä* ravishining ma'nosi...

- A) oldin                          S) so'ngra  
B) quyi                            D) tepa

7. *Ayig qilinē iyä barip* ... gapidagi ko'makchini toping?

- A) ayig                            S) qilinē  
B) iyä                              D) barip

8. *azu* bog'lovchining qaysi turiga kiradi?

- A) ayiruv                          S) teng  
B) biriktiruv                      D) ergashtiruv

## ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Г., Рустамов А. Қадимги туркий тили. Ўқитувчи, 1982.
2. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tili tarixi. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008.
3. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009.
4. Sanaqulov U. O'zbek yozma adabiy tili fonetik, morfologik va grammatik me'yorlarning ilk shakllanishi va taraqqiyoti bosqichlari. - T.: Navro'z, 2011.
5. Содиков Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилининг тарихи ва тикланиши. -Тошкент, 2006.
6. Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. - Т.: ФАН, 1965.

## 9-§ QADIMGI TURKIY TIL SINTAKSISI

**Asosiy tushunchalar:** *sintaksis, teng bog'lanish, tobe bog'lanish, so'z birikmasi, otli birikma, fe'lli birikma, bitishuv, boshqaruv, moslashuv, ko'makchili boshqaruv, kelishikli boshqaruv.*

Qadimgi turkiy til o'zbek va boshqa ko'p turkiy tillarning shakllanishida asos bo'lgan. Ammo bu tilning o'zi ham muayyan taraqqiyot bosqichlarini boshidan kechirgan, shakllangan, ma'lum bir qolipga tushgan. Har qanday tilning qurilishi asta-sekinlik bilan taraqqiy etadi, o'zgaradi. Qadimgi turkiy tilning tuzilishi, sintaktik strukturasi bilan hozirgi zamon o'zbek va boshqa turkiy tillarning tuzilishi o'rtasida ko'p o'xshashlik va shu bilan birga, farqli tomonlar bor. Bu holat tilning bir-bir yarim ming yillik taraqqiyoti natijasidir.

**Sintaksis** yunoncha *syntaxis* so'zidan olingan bo'lib, "biriktirish", «bog'lash» ma'nosini bildiradi. *Sintaksis* so'zlarning va gaplarning o'zaro bog'lanish tizimi, tartibi, ularning turlarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limidir. Mahmud Koshg'ariyning hozircha topilmagan "Kitobi javohir un-nahv fi-l-lug'at it-turk" nomli asarida turkiy tillar sintaksisi haqida bahs yuritilgan.

So'zning muayyan til qonuniyatlari asosida o'zaro birikuvidan so'z birikmasi va gaplar hosil bo'ladi. So'z birikmalari va gaplar shakli xususiyatlari va mazmuniga ko'ra farqlanadi. So'zlarning o'zaro

birikishi teng va tobelik asosida yuz beradi.

1. *Teng bog'lanish* – ikki so'zning o'zaro teng munosabatlar asosida bog'lanishi. *abgh to'uzli* – ayiq va to'ng'iz, *turuq buqali semiz buqali* – oriqlar to'uz bo'qqa. Teng bog'lanish o'zaro teng bog'lovchilar yoki sanash yordamida yuzaga keladi.

2. *Tobe bog'lanish* – bir so'zning boshqa so'zga tobelik asosida bog'lanishi. *turk bodun* – turk xalqi, *altunluğ örgin* – oltin taxt. Tobe bog'lanish ikki qismdan iborat bo'ladi: tobe qism va hokim qism. So'roq kelib kelgan qism hokim, so'roqqa javob bo'lib kelgani tobe qismdir: *otluğ tamu* – ko'k osmon, *otluğ tamu* – o'tli do'zax. So'zlarning tobelanish asosida bog'lanishi so'z birikmalarini hosil qiladi. So'z birikmasi ikki va undan ortiq so'zdan iborat bo'ladi, ammo kengaygan bir tushunchani bildiradi.

3. **So'z birikmasi.** Tobe qismning hokim qismga kelishik, egalik munosabatlari, ko'makchilar va tobelashtiruvchi ohang yordamida bog'lanishi so'z birikmasini tashkil qiladi.

Tobe bo'lak hokim bo'lakka ko'makchilar yordamida bog'langanda, bo'lak hollarda kelishik bilan birgalikda yoki kelishik bilan almashib bog'lanishi mumkin. Tobe bo'lak hokim bo'lakka bog'lanib, hokim bo'lak kelib etgan sintaktik vazifada keladi. Ana shu vazifa gap bo'lagi nomi bilan ataladi. So'z birikmasi hokim so'zning qaysi turkumga oid so'z bilan bog'lanishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: otli so'z birikmasi, fe'lli so'z birikmasi.

**Otli birikmalarda** boshqaruvchi so'z ot bo'lib, u boshqarib kelayotgan so'z ot, sifat, son, olmosh, ravish, sifatdosh bo'lishi mumkin: *qora er* – qora er, *sü kelti* – qo'shin keldi, *ögüm qatun* – onam qatun (mahika), *uqğali kelti* – tushungani kelti.

**Fe'lli birikmalarda** boshqaruvchi so'z fe'l yoki uning funksional shakllari, tobe so'z ma'lum kelishik yoki ko'makchi bilan birikib kelgan ot yoki otlashgan so'z, olmosh, ravish yoki ravishdosh, shart fe'li bo'lishi mumkin: *qagan qisdim* – xoqonni qo'lga oldim, *Tabğaçda adrildi* – tabğaçdan ayrildi, *anča saqintim* – ko'p o'yladim.

Qadimgi turkiy tilda so'z birikmalarini tashkil etgan bo'laklarni o'zaro aloqaga kirish usuliga ko'ra uch turga bo'lish mumkin: 1. Bitishuv. 2. Boshqaruv. 3. Moslashuv.

**Bitishuv.** So'zlar grammatik vositalar yordamisiz o'zaro aloqaga kelib, so'z birikmasini tashkil etadi. Bunday so'z birikmalari mazmun va intonatsiya yordami bilan o'zaro birikadi. Quyidagi so'z turkumlari bitishuv yo'li bilan so'z birikmasini tashkil etgan: *Kişi oğlan* – inson farzandi, *semiz*

*buqa* – semiz buqa, *yağığa tegmiş sü* – dushmanga hujum qilgan lashkar.

**Boshqaruv.** Tobe soʻz maʼlum grammatik vosita kelishik formalari yoki koʻmakchilar orqali bosh soʻzga birikadi.

Qadimgi turkiy tilda bosh kelishikdan tashqari tushum, joʻnalish oʻrin- chiqish, vosita kelishiklari boʻlib, tobe soʻz maʼlum bir kelishik affiksleri yordami bilan bosh soʻzga bogʻlanadi. Boshqaruv ikki xil boʻladi: kelishikli va koʻmakchili. **Kelishikli boshqaruv:**

a) tushum kelishigi vositasida: *oʻguzugʻ okusak olurti* - oʻgʻuzni koʻplab oʻldirdi;

b) joʻnalish kelishigi orqali: *Oʻtukan yisgaru uduztim* - Oʻtukan yishga yoʻnaltirdim;

v) oʻrin-payt kelishigi vositasida: *Qara koltā sunuşdimiz* – Qora koʻlda jang qildik;

g) vosita kelishigi yordamida: *Yüz artiq oqun urti* - yuzdan ortiq oʻq bilan urdi.

**Koʻmakchili boshqaruvda** ot yoki ot maʼnosidagi soʻzlar koʻmakchilar bilan birikib, hokim soʻzga bogʻlanadi: *Kültegin birlä*. Baʼzi oʻrinlarda maʼlum kelishik shaklini olgan ot yoki olmosh koʻmakchiga bogʻlanib, u bilan birga hokim soʻzga birikadi: *Tāmir qapigʻu teği* – Temir qapigʻ (darvoza) ga qadar.

Misollardan koʻrinadiki, boshqariluvchi tobe soʻz ot yoki otlashgan soʻz boʻlib, maʼlum kelishik formasini oladi yoki koʻmakchi bilan birikadi. Boshqaruvchi soʻz esa feʼl yoki harakat bildiruvchi soʻzlar boʻladi. Ammo baʼzan boshqaruvchi soʻz sifat, ravish, koʻmakchi yoki shu vazifadagi soʻz boʻlishi ham mumkin: *biznitā adin* – bizdan boshqa.

**Moslashuv.** Qadimgi turkiy tilda moslashuv ikki otning qaratqich kelishigi yordamida birikuvidan hosil boʻlgan. Hozirgi oʻzbek tilida boʻlgani kabi qadimgi turkiy tilda ham qaratqich belgili va belgisiz shaklda qoʻllangan. Masalan: belgili - *meniñ bodunum erti*; *Bilgä qağanıñ bodum*, belgisiz – *Körüg sabi antağ* - koʻruvchining xabari shunday, *Ozim qutim* - oʻzinning baxtim.

**Izofa.** Turkiy tillarda sifatlovchi sifatlanmishiga bitishuv usuli bilan tobelanadi. Aniqlovchning yana bir turi borki, u tilshunoslikda *turkiy izofa* deb yuritiladi. Turkiy tillarda gap boʻlamlari, boshqa tillar, xususan, Hind-Yevropa tillari oilasidagiga nisbatan oʻzining muntazam joylashish tartibi ega.

Izofa ikki otning aniqlovchilik munosabatiga kirishuvidir. Bunday munosabatda biror shaxs, narsa-predmet yoki tushunchaning boshqa bir shaxs, narsa-predmet yoki tushunchaga qarashlilik koʻrsatiladi. Ikki ot

orasidagi bunday munosabat maxsus affikslar orqali ifodalanadi: tobe soʻzda qaratqich kelishigi qoʻshimchasi *(-niñ)*, hokim soʻzda egalik affikslari *-(im), -(iñ), -i (si); -(i) miz, -(i) ŋiz, -(lar)i* boʻladi.

Izofada hokim soʻz qaysi shaxsni koʻrsatsa, tobe soʻz ham leksik maʼnosiga koʻra oʻsha shaxsga ishora qiladi. Shuning uchun ham izofa moslashuv aloqasining bir koʻrinishi hisoblanadi. Izofa qismlarning shakllanishiga koʻra uch xil boʻladi:

I. Izofa birikmasining har ikki qismi belgisiz boʻladi: *türk bodun* – turk xalqi, *Kökman tağ* – Kogman togʻi. Mazkur tipdagi izofali birikmalar bugungi kunda qumiq tilida koʻp uchraydi.

II. Izofa birikmasining biror qismi belgisiz boʻladi: *El törüsü* – el(chuvlat)ning qonun qoidalari, *Bodun bogʻzi* – xalqning noni (doni). Bu tipdagi izofali birikmalar hozirda chuvash tilida koʻp kuzatiladi.

III. Izofa birikmasining har ikki qismida qoʻshimchalar mavjud boʻladi: *Külteginıñ altunı* – Külteginning oltini, *Türk bodunıñ eli...* - turk xalqining eli.

III tipdagi izofalar nisbatan keyingi davrlarda yuzaga kelgan boʻlib, II tip izofalardagi maʼnoning aniqlashuvi natijasida shakllangan<sup>25</sup>.

Qadimgi turkiy tilda va undan keyingi davrga oid yodgorliklarda ham izofa birikmasi uch koʻrinishga ega boʻlib, bu shakllar birgalikda qoʻllangan. Shuning uchun ham izofa birikmasining belgisiz shakllaridan belgili shakllari kelib chiqadi, deb hukm chiqarish qiyin (at baş> at başı> atın başı). Ayrim belgisiz birikmalar belgiliga aylangan boʻlsa, baʼzi belgili izofa birikmalar belgisiz birikmalarga oʻtgan<sup>26</sup>.

### Savol va topshiriqlar

1. Qadimgi turkiy tilning sintaktik xususiyatlarini bayon eting.
2. Qadimgi turkiy tilda soʻzlarning oʻzaro aloqaga kirish usullari haqida fikr bildiring.
3. Soʻz birikmasi tarkibidagi tobe va hokim boʻlak munosabati xususida soʻz yuriting.
4. Bitishuv, moslashuv, boshqaruvning oʻziga xos jihatlarini tushuntiring.
5. Qadimgi turkiy tildagi izofaning turlariga misollar keltiring.

<sup>25</sup> Гребенников Б.А., Гаджиева Н.З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков - Баку, 1979 -Б. 268-269

<sup>26</sup> Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. Oʻzbek tilining tarixiy grammatikasi. -T.: Uzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.-B. 333-334.

## Test sinovi

1. *adigli tojuzli* birikmasida so'zlar qanday bog'langan?  
A) tobe S) bitishuv  
B) teng D) boshqaruv
2. *Körüg sabi antağ* – keltirilgan gapda so'z birikmasining qaysi turi mavjud?  
A) bitishuv S) moslashuv  
B) boshqaruv D) fe'li birikma
3. Quyidagi misollarning qaysi biri bitishuvga aloqador?  
A) *Körüg sabi antağ* S) *Yağiga tegmiş sü*  
B) *Qara költä sunuşdimiz* D) *Bodun boğzi*
5. *Tämür qapığa tegi* – bu misolda hokim va tobe munosabati qanday kechgan?  
A) bitishuv S) moslashuv  
B) kelishikli boshqaruv D) ko'makchili boshqaruv
6. Qadimgi turkiy tilda izofaning nechta turi amal qilgan?  
A) uchta S) ikkita  
B) to'rtta D) bitta
7. *Oğuzug' öküşäk ölürti* gapida hokim va tobe munosabati qanday kechgan?  
A) kelishikli boshqaruv S) moslashuv  
B) bitishuv D) ko'makchili boshqaruv

## ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Т.: Ўқитувчи, 1982.
2. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008.
3. Абдурахманов Г. Исследования по старотюркскому синтаксису. – М.: Наука, 1967.
4. Малов С. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. – М.-Л., 1951.
5. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009.
6. Серебренников Б.А., Гаджиева Н.З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. – Баку, 1979.

## 10-§. GAP BO'LAKLARI

**Asosiy tushunchalar:** *gap bo'lagi, gapning ikkinchi darajali bo'laklari, kesim, ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol, sifatlovchi, aniqlovchi, izohlovchi, darak, so'roq, buyruq gaplar.*

Gapda so'zlar o'zaro grammatik munosabatga kirishib, gap bo'laklarini hosil qiladi. Gap bo'laklari vazifasida mustaqil so'zlar keladi. Har bir gap bo'lagi boshqa gap bo'laklari bilan bo'lgan grammatik munosabatiga ko'ra belgilanadi, ya'ni har bir gap bo'lagi o'zi munosabatga kirishgan so'z bilan ma'lum sintaktik aloqada bo'ladi. Gap tarkibida tobe bog'lanib ma'lum so'roqqa javob bo'luvchi so'z yoki so'zlar birikmasiga *gap bo'lagi* deyiladi. So'zning qaysi bo'lak vazifasida kelayotganligi hokim bo'lakka nisbatan aniqlanadi. Gapda kesimgina boshqa bo'laklarga nisbatlanmagan holda aniqlanadi, chunki uning kesim ekanligini kesimlik shakllari ko'rsatib turadi. Qolgan bo'laklar kesimga nisbatan aniqlanadi.

Gap bo'laklari: *kesim, ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol.* Kesim gapning asosini tashkil qiluvchi markazdir. Ega kesimga ergashib, kesimda ifodalangan ish-harakatning bajaruvchisini ko'rsatadi. *To'ldiruvchi, aniqlovchi, hol* bo'laklari ega va kesimga ergashib kelib, ularni to'ldiradi, aniqlaydi yoki izohlaydi. Shuning uchun ular *gapning ikkinchi darajali bo'laklari* deyiladi.

Qadimgi turkiy tilda hozirgi turkiy tillardagi kabi bosh bo'laklar (ega va kesim), ikkinchi darajali bo'laklar (aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol) bo'lgan. Ammo bu bo'laklar shakllanishi va o'rniga ko'ra turkiy tillardagi bo'laklardan farqlanadi.

*Ega* ish-harakat, belgi-xususiyatning egasi, gapning kim yoki nima haqida ekanligini bildiruvchi gap bo'lagidir. Shuning uchun ham ega bosh kelishik formasida bo'ladi: *Tabğaç qağan yağimiz ärti* - Tabğ'ach xoqon dushmanimiz erdi. Biroq qadimgi turkiy tilda har qanday bosh kelishikdagi so'z ham ega bo'la olmaydi. *Qağani sü tasiqdi* (To'n) - xoqoni lashkar bilan yo'lga chiqdi. Ega birinchi yoki ikkinchi shaxsга taalluqli bo'lganda ko'pincha ifodalanmaydi. Qadimgi turkiy tilda uchinchi shaxsга oid egalar ham ba'zan ifodalanmagan. Bunday eganing mazmuni umumiy matndan ayon bo'lib turgan: *Tegdimiz, yaydimizi* (To'n) – hujum qildik, tor-mor etdik.

I va II shaxsdagi ega ta'kidlash zarur bo'lgan o'rinlarda qo'llanadi: *Biz biz – biz ozmiz* (oz kishimiz) (O'ng). Qadimgi turkiy tilda bosh kelishikdan tashqari jo'nalish kelishigidagi ot ham ega vazifasida

qo'llangan: *Içrâ ašsiz, tašra tonsiz* (KT) - ichi oshsiz (oziq-ovqatsiz), to'nsiz (kiyim-kechaksiz).

**Kesim.** Kesim gapni shakllantiruvchi asosiy bo'lakdir. Qadimgi turkiy tilda kesim vazifasida fe'lning turli zamon va mayl formalari, funktsion shakllari qo'llanib, fe'l kesimli gaplarni yuzaga keltirgan. Ot kesimli gaplarning kesimi ot, sifat, son, olmosh, ravish orqali ifodalangan. Kesim kesimlar orqali turli zamon, mayl va modal munosabatlarni ifodalash uchun bog'lamlar va shu vazifadagi yordamchi so'zlar qo'llangan:

1) *är:* *Bir turuqi ärmis* – bir manzil ekan (To'n). Är mustaqil ravishda kesim vazifasini ham bajaradi: *Nañ nañ sabim ärsär banu tashqa uris* – Nimaiki so'zim bo'lsa, mangu toshga yozdim (BX).

2) *turur:* *bars ölgäli... turur* - bars o'lishga (yaqin) turibdi (Ot, yorug').

3) *bol-:* *Kültägin kargäk bolti* – Kultegin kerak bo'ldi (KT); *äl yemä el bolti* – El ham el bo'ldi (To'n).

Bu davr tilida kesimlarni qator, ketma-ket keltirish yo'li bilan murakkab fikrlar aks etgan: *Qağanqa qırqız boduni içikdi, yūkundi* – xoqonga qirg'iz xalqi taslim bo'ldi, yukundi (KT).

**To'ldiruvchi.** Qadimgi turkiy tilda to'ldiruvchilar, hozirgidek vositasiz yoki vositali bo'lib, ot, olmosh yoki otlashgan so'zlar bilan ifodalangan. Bu davrdagi to'ldiruvchiga xos xarakterli xususiyat quyidagilardir: vositali to'ldiruvchi ko'makchilar, kelishiklar bilan keladi. *Toquz oğuz bodun üzä qağan olurti* - to'qqiz o'g'uz ustidan xoqon bo'ldi; *...uduguzum, qazğantuqum üçün el yämä el bolti* - xushyorligim, zati qozonganim uchun el ham el bo'ldi; *Qağanqa qırqız boduni içikdi* - xoqonga qirg'iz xalqi taslim bo'ldi, *Uri oğlin qul bolti, silig qiz oğlin qul bolti* – yosh o'g'li bilan qul bo'ldi, go'zal qizi bilan cho'ri bo'ldi (KT).

Qadimgi turkiy tilda vositasiz to'ldiruvchi tushum kelishigi affiksalar orqali berilgan: *Ol sabıg esidip...* - ul so'zni eshitib; *Türk bodun qanı bulmayın tabğaçda adrıldı* – turk xalqi xonini topolmay tabg'achdan ayrildi (To'n). Bu davrda vositasiz to'ldiruvchi ko'p hollarda belgisiz qo'llangan. *Öd täpři yasar* – dunyoni tangri yaratadi (KT), *Qizil qanim tökti, qara terim yügürti* – qizil qonimni to'kdi, qora terimni oqizdi (KT).

**Aniqlovchi** bir narsa-buyumning boshqasiga qarashli ekanligini bildirib, matnda ot yoki otlashgan so'zga bog'lanadi. Aniqlovchining uch turi mavjud: **sifatlovchi, qaratqich, izohlovchi.** Qadimgi turkiy tilda **sifatlovchi aniqlovchilar** hozirgidek ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh bilan ifodalangan: *Qalti temir qazğuq yergä toqisar* - agar temir qoziqni yerga yursa (TT); *Silig qiz* - chiroyli qiz (KT), *Yäti yigirmi erin* – o'n etti bahodir

(KT); *Bu yolun yorisar, yaramaçi, tedim* – bu yol bilan yursa, yaramaydi, dedim (To'n); *...barmış bodun* – ketib qolgan xalq (KT).

**Qaratqich aniqlovchi** qaratqich va qaralmish munosabatida o'z o'zini topadi. Bu jarayonda qaratqich kelishigi qo'shimchasi ishtirok etishi qaratqich qatnashmasligi mumkin, ya'ni belgili va belgisiz holatda keladi: *Türk bodun aliñ törüsün* – turk xalqining eli, qonun – qoidalarini (KT); *Bilgä bodun bardi* – Bilga xoqonning xalqi ...bordi (O'n); *qağan at qanımning oti*; *Qanım qağan süsi bōritäk ermiş* - otam xoqonning lashkari bo'lgandek ekan (KT).

**Izohlovchi.** Ot bilan otni aniqlash qadimgi yodnomalarda ham, ya'ni izohlovchi-izohlanmish munosabatida ko'zga tashlanadi: *oğuz yaği* – o'g'uz xalqini; *alp kisig* – bahodir kishini; *ögüm qatuniğ* – onam xotin (malika, otamning ayol)ni(KT).

**Hol.** Qadimgi turkiy tilda hol ot, son, ravish, ravishdosh, olmoshlar bilan ifodalangan: *Türk qağan Ötükän yis olursar* – turk xoqoni Otukan otukan bo'lsa; *Kulteğin qo'y yilqa yäti yigirmikä uçdi* – Kultegin qo'yning o'n yettinchisida vafot etdi; *Anča temis* (KT) - shunday demish; *buçqalı tüşürtimiz* – sanagani to'xtatdik (To'n); *Ol sub qodı bardımız* - Otamning quyi tomoniga bordik (To'n).

**Uyushiq bo'laklar** bir xil so'roqqa javob bo'ladi, matnda biror bo'lakka bog'lanib keladi. Qadimgi turkiy tilda gapning bosh bo'laklari ham, ikkinchi darajali bo'laklari ham uyushib kelishi mumkin: *Bilgäsi, sabıy bän ök ärtim* (To'n) - Bilimdoni, mashhuri men o'zim edim; *Türk bodun ölti, alqintı, yoq bolti* - turk xalqi o'ldi, tugadi, yoq bo'ldi; *Qırqız, üç qurtıqan, otuz tatar, qıtay, tatabu* – *bunça bodun kälipän sığtamis* - qirg'iz, uch qurigan, ottiz tatar, qitoy, tatabi – shuncha xalq kelib yig'lagan (KT).

**Ajratilgan bo'laklar** ma'lum bo'lakning ma'nosini ta'kidlab, izohlab keladi, boshqa bo'laklardan to'xtam va ohang jihatdan ajralib turadi. Ajratilgan bo'laklarning uyushiq bo'laklardan farqi shundaki, ular bir tushunchaning ikki xil nomidir, uyushiq bo'laklar esa bir necha shaxs yoki narsani ifodalaydi. Ma'lumki, har bir gap bo'lagi muayyan tartibda joylashadi. Masalan, aniqlovchi va izohlovchi otdan oldin qo'llanadi, tartibning o'zgarishi shu gap bo'lagining o'zgarishiga olib keladi: *Türk qara qanıg bodun anča temis* – Turk (fuqarosi), qora (xalq), butun xalq shunday demish (To'n). Ma'lum gap bo'lagidan so'ng izohlovchi, mazmunan unga boshqa bo'lak - so'z yoki so'z birikma keltiriladi: *...säni tabğaçni durtäçi* – seni – tabg'achni o'ldirajak (To'n); *Türk bodun Tämir qapıgqa, Tinsi oğlı yatıgma tağqa tägmis* – Turk xalqi Temir qapiqqa, Tinsi o'gli yetadigan toqqa yetdi (To'n).

## GAP VA UNING TURLARI

Soʻzlar vositasida anglatilgan fikr *gap* deyiladi. Muomala vositasining eng kichik birligi gap hisoblanadi. Gap nisbiy tugallangan fikrni bildiradi.

Qadimgi turkiy tilda ham hozirgidagi kabi **darak, soʻroq, buyruq** gaplar mavjud. Biroq darak gaplar ikkalasiga nisbatan koʻproq qoʻllangan. Qadimiy turkiy tilda **darak gap** biror hodisa haqida xabar beradi, biror fakti yoki belgini bayon qiladi, tasdiqlaydi yoki inkor qiladi: *Qapaqan Altariş qağan aliña qilintim* – Qapagan, Eltarish xoqon eli (davlati)ni voyaga etdim; *Qamağ baliqa tağdim, qunladim, altim* – barcha shaharlarga yetib bordim, talon-taroj qildim, qoʻlga kiritdim (Oʻn).

**Buyruq gap.** Buyruq gap tinglovchiga biror ishni bajarish uchun buyurish, doʻq, iltimos, yalinish, nasihat, taʼkidlash, chaqirish va boshqa shu kabi maʼnolarni bildirgan. Buyruq gaplarning kesimi *-zun, -zyn, -ayin, alim, -alim, -qil, -kil, -ğil, -gil* kabi affikslar bilan shakllanadi. *Sabimni tugāti ishitgil* – soʻzimni toʻliq eshitgil (KT).

**Soʻroq gap.** Obidalarda qoʻllangan soʻroq gaplar baʼzan faqat soʻroqni, baʼzan soʻroq ham hayratlanish, taajjubni, baʼzan taxmin, gumon va shubha ottenkasini bildiradi. Soʻroq gap kesimi boʻlishli va boʻlishsiz shaklda voqelanishi mumkin: *Nakā qorqurbiz? Nagū kātār sizlār?* (Oltun yorugʻ).

Soʻroq gaplarni mazmuniga koʻra sof soʻroq gaplar, ritorik soʻroq gaplar va soʻroq –buyruq gaplarga ajratish mumkin.

Sof soʻroq gaplarda javob talab qilinadi. Bunday soʻroq gaplarda shubha va taajjub mazmuni ifodalanadi: *Qağanliğ bodun ärtim, qağanim qani* – xoqonli xalq edim, xoqonim qani? *irinç tinliğ bolğay mu* – baxtsiz jonzotlar topiladimi (Oltun yorugʻ).

Ritorik soʻroq gaplarda javob talab qilinmaydi. Ritorik soʻroq gap tasdiq maʼnosini anglatadi: *nā qağanqa işig kuçug berürmān?!* – qaysi xoqonga mehnatimni, kuchimni sarf qilayapman (KT).

Soʻroq-buyruq gaplarda ham soʻroq, ham buyruq ottenkasi boʻladi: *yiraya oğuzda iki üç biñ sümüz kältäcimiz barmu nā?* – shimoldan oʻgʻuzdan ikki uch ming keladigan lashkarimiz bormi, nima? (Toʻn).

Qadimgi turkiy tilda **koʻchirma gaplar** keng qoʻllangan. Koʻchirma gap muallif gapi bilan *tā* – feʼli orqali bogʻlanadi: *...bodun anča tāmisi «ällig bodun ärtim, älim amti qani? Kimkä älig qazğanurman?»* – *tār ärmis* – xalq shunday degan: “davlatli xalq edim, elim endi qani? Kimga davlatni egallab berayapman” – der ekan (KT).

Baʼzi koʻchirma va oʻzlashtirma gaplar *-mä* feʼli vositasida emas,

mazmunga koʻra birikadi. *Ol sabiğ ü(t)im: qantayin sabiğ yana kälti* – oʻsha sabarni aytdim: yana qandayin xabar keldi (Toʻn).

Gap emotsionallikka (his-tuygʻu ifodalanishiga) koʻra his-hayajon (undov) gap va his-hayajonsiz gaplarga ajratiladi. His-hayajonsiz gaplar *darak, soʻroq, buyruq* ohangi bilan aytiladi. His-hayajon gaplar oxirida undov belgisi qoʻyiladi. His-hayajon gaplar undov soʻzlari orqali hosil qilinadi: *kün ay azidim yita!* – kun va oyni koʻrmas boʻldim, afsus; *Tabğaç, birdanäyün tağ, qitan, oñdanayün tağ, bän yirdanayün tağäyün* – Tabgʻach, sen oʻngdan hujum qil! Qitan, sen oldindan hujum qil! Men chapdan hujum qilay (Toʻn).

Grammatik asoslarning miqdoriga koʻra gaplar **sodda** (bir grammatik asosli) va **qoʻshma** (ikki va undan ortiq grammatik asosli) **gaplarga** boʻlinadi. Sodda gap tarkibida bitta kesim boʻladi. Sodda gap tarkibidagi barcha boʻlaklar shu kesim atrofida birlashadi. Qoʻshma gap tarkibida esa ikki va undan ortiq (uyushmagan) kesim boʻladi.

Sodda gaplar eganing ishtirok etish yoki etmasligiga koʻra ikki xil boʻladi: egasi mavjud gaplar (Biz yangi filmni tomosha qildik) va egasiz gaplar (Yangi filmni tomosha qildik). Sodda gaplar ikkinchi darajali boʻlaklar ishtirokiga koʻra: sodda yigʻiq gaplar (*bod qalmadi* – urugʻ qolmadi), sodda yoyiq gaplar (*Yağimiz tegrä uçug tağirti* – dushmanimiz tegrä (atrof)da qanot yoydi)ga boʻlinadi (Toʻn).

Turkiy tillarning ilk taraqqiyot davrida sodda gaplar faol qoʻllangan. Bir grammatik asosga ega boʻlgan gap sodda gap hisoblanadi. Sodda gapning asosini kesim tashkil qiladi. Gapning asosiy mazmuni kesimda ifodalanadi. Sodda gaplarning eng qisqa koʻrinishi: ega+kesim modelida boʻladi: *qan bertim* – xon berdim (Toʻn); *Çan Sağun kälti* – Chan Cangun keldi (KT).

Qadimgi turkiy tilda, hozirgi zamon turkiy tillaridagidek, kesim qaysi turkum bilan ifodalanishiga koʻra ikki xil boʻladi: feʼl-kesim va ot-kesim.

Feʼl-kesim, asosan, feʼlning funksional shakllari orqali ifodalanadi: *anča bodun tüzmis ärti* – ozgina xalq qochgan edi (Toʻn); *Kütä tururlar* – kutib turarlar (Un); *Közüg yumup açqinča* – koʻzni yumib ochguncha (TT).

Ot-kesimli sodda gaplar qadimgi turkiy tilda keng tarqalgan boʻlib, murakkab ot-kesim tarkibida bogʻlamalar ishtirok etadi. Ot-kesim ot, sifat, son, olmosh, ravish bilan ifodalanadi. Kesimlik koʻrsatkichi vazifasida bogʻlamalar (*-man, -san, -di, ol, bol, tur, är*) qoʻllanadi: *Ozum tarduş üzä sad ärtim* – oʻzim tardush eli ustidan shod edim. *Qarluq bodun . . . yağı bolti* – qarluq xalqi yov boʻldi (KT). Ammo bu belgilar boʻlmasligi ham mumkin. Bunda kesim gapning mazmuni, intonatsiyasi, oʻrnidan bilinib

turadi. *Türk bodun yama bulğanç - ol, tamiş* - Turk xalqi ham sarosimad - debdi (To'n).

### Savol va topshiriqlar

1. Gap bo'laklarining xususiyatlarini tahlil qiling.
2. Gapning grammatik asosini izohlang.
3. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari haqida ma'lumot bering.
4. Gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan birlik xususida fikr yuriting.
5. Sodda gaplardagi predikativ munosabatni tushuntiring.
6. Gapning turlarini misollar asosida bayon eting.

### Test sinovi

1. *Tabğaç qağan yağimiz ärti* gapining egasini toping?  
A) tabğaç                      S) qağan  
B) tabğaç qağan              D) yağimiz ärti
2. *Näh näh sabim ärsär hanu taşqa urtim* gapida kesim qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan?  
A) ot                              S) fe'l  
B) olmosh                      D) ravish.
3. *Qaltı tämır qazğıuqış yergä toqısar* – keltirilgan gapda *tüm* so'zi qaysi bo'lak vazifasida kelgan?  
A) ega                            S) to'ldiruvchi  
B) aniqlovchi                 D) hol
4. *Bu yolun yorısar, yaramacı, tedim* – bu gapda aniqlovchi qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan?  
A) ot                              S) sifatdosh  
B) sifat                         D) olmosh
5. *Toquz oğuz bodun üzä qağan olurtı* – gapdagidan to'ldiruvchini toping?  
A) toquz oğuz                 S) üzä  
B) bodun                        D) bodun üzä
6. *Tabğaç, birdänäyin täg, qıtan, onđanayın täg, bän yirdanayın tädäyin* jumlası gapning qaysi turiga kiradi?  
A) darak gap                 S) buyruq gap  
B) his-hayon gap             D) his-hayonsız gap
7. *Türk qağan Ötükän yıš olursar* – ushbu gapda hol qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan?  
A) ot                              S) ravishdosh  
B) ravish                        D) olmosh

8. *Yıraya oğuzda iki üç biş sümüz kältäçimiz barmu nä?* - jumla gapning qaysi turiga kiradi?

- A) darak gap                      S) buyruq gap  
B) so'roq gap                      D) so'roq- buyruq gap

### ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. –Т.: Устатлари, 1982.
2. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tili tarixiy grammatikasi. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009.
3. Абдурахманов Г. Исследования по старотюркскому синтаксису. – М.: Наука, 1967.
4. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009.
5. Серебренников Б.А., Гаджиева Н.З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. -Баку, 1979.

### 11-§. QO'SHMA GAP SINTAKSISI

**Asosiy tushunchalar:** *sodda gap, qo'shma gap, bog'lovchisiz qo'shma gaplar, bog'langan qo'shma gaplar, ergashgan qo'shma gaplar, ega ergash gapli qo'shma gap, aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap, to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap, kesim ergash gapli qo'shma gap, shart ergash gap, shart ergash gap.*

Ikki va undan ortiq sodda gaplarning birikuvidan hosil bo'lgan gap qo'shma gap hisoblanadi. Qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar o'zaro teng yoki tobe munosabatda bo'ladi.

Turkiy tillar tarixiy taraqqiyotining ilk davrlarida kommunikativ vazifani, asosan, sodda gaplar bajargan. Murakkab fikrlarni ifodalashda sintaktik aloqaning eng qadimgi turi bo'lgan bitishuv yo'li bilan bog'langan konstruksiyalardan foydalanilgan.

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning grammatik munosabati deganda, shu sodda gaplarning bir-biri bilan ma'lum grammatik vositalar (bog'lovchilar, yuklamalar, olmoshlar, ohang) yordamida bog'lanishi tushuniladi. Mazmuniy munosabati deganda esa, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning mazmuniy muvofiqligi nazarda tutiladi. Qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar qo'shma gap qismlari sanaladi. Bu qismlarni bog'lash uchun xizmat qiladigan vositalar esa bog'lovchi vositalardir.



Qo'shma gap qismlari bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi vositalar ohang yordamida bog'lanadi.

Qismlarining qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishi ko'ra qo'shma gaplar quyidagi guruhlariga bo'linadi: bog'langan qo'shma gaplar; ergashgan qo'shma gaplar; bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

Barcha qo'shma gaplar tarkibida ikki yoki undan ortiq sodda gaplarni mujassamlantirishi bilan xarakterlanadi. Bu sodda gaplar o'zaro teng munosabatda bo'lishi yoki qo'shma gapning bir qismi ikkinchisini izohlab kelishii mumkin.

**Bog'lovchisiz qo'shma gaplar** qadimgi yodnomalar tilining asosiy tashkil etadi. Qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar tuzilishiga ko'ra oddiy (ko'pincha sodda yig'iq) bo'lib, ular umumiy bir fikrni ifodalash uchun xizmat qiladi, mazmunan va shaklan bir-biriga tobe bolmaydi. Bunda sodda gaplar, asosan, sanash ohangi, intonatsiya vositasida bog'lanadi, bir paytda, ketma-ket ro'y bergan voqea-hodisa, belgi-xususiyat, shuningdek, ziddlik, qiyoslash, sabab-natija, izohlash munosabatlarini ifodalaydi. *Udar Saqun kal'ti, Tabgac qaganta Isyi Likan kal'ti, bir tumän aqi, altun kümüş kargaksiz kalürti* – Udar Sangun keldi, tabg'achdan Isyi Likan keldi, bir tuman (o'n ming) ipak, oltin, kumushni haddan ortiq keltirdi (KT); *Ol sabig' asüdiq, tün udisiqim kälmedi, küntüz olursiqim kälmedi* – Bu so'zni eshitib, kechasi uyqum kelmadi, kunduz o'tirgim kelmadi (To'n); *Toqay o'guz bodun kántü bodunim ärti, täjri yär bulgäqin üçün yaqi bolti* - to'qqin o'g'uz xalqi o'z xalqim edi, ko'k, yer fitnaga to'lgani uchun dushman bo'ldi (KT); *Täjri küc bærtük üçün qajim qaqan süsi börtäg ärmis, yaqisi qonitäg ärmis* – Tangri kuch bergani uchun otam xoqonning lashkari bo'riday ekan, dushmani qo'ydek ekan (KT); *Özi yanildi, qaqani olti boduni küq qul bolti* – o'zi adashdi, xoqoni halok bo'ldi, xalqi cho'ri, qul bo'ldi (KT); *Üc körüg kiši kal'ti, sabi bir: qaqani sü tašiqdi, on oq süsi qalisiz tašiqdi* – uch ko'ruvchi kishi keldi, so'zi bir: xoqoni qo'shin tortdi, o'n o'q qo'shini tamom yurishga chiqdi (To'n).

**Bog'langan qo'shma gaplarni** hosil qilishda teng bog'lovchilar va ayrim yuklamalar qatnashgan. Bu tipdagi qo'shma gaplar qadimgi turkiy tilda ozchilikni tashkil etadi: *azu uluq baqaq kün, azu kiçig baqaq künke qilsar* – yoki ulug' ro'za kuni, yoki kichik ro'za kuniga qilsa (TT); *azu muq üçün, azu basu birgali qizganip* – yoki qayg'u uchun, yoki qurbon berishga qizganib (Mon); *bu muntaq qilinçin öz ütünüz boşunmağay taqi diqi dindär kelmägäy* – bunday qilmishi o'z vujudini ozod qilmaydi va diqi dindor kelmagay (TT); *Er buşuşluq, täjri bulitlig bolti, ara kün toqmış buşac, ara manji kälmiş* - inson qayg'uli, osmon bulutli bo'ldi, gohi kun

shuqanda qayg'u, gohi shodlik keladi (TT).

Qadimgi turkiy tilda qismlari o'zaro hokim-tobe munosabatlari orqali bog'langan **ergash gapli qo'shma gaplar** bosh gapga **sifatdosh, tabishdosh, shart mayli** qoshimchasi, **ko'makchi, bog'lovchi va kelishik qo'shimchasini olgan sifatdoshlar, nisbiy olmoshlar** yordamida birikadi: *Temiz apamiz tutmis yär sub idisiz bolmazun täyin* - ajdodlarimiz qo'l ostida bo'lgan er-suv egasiz qolmasin deb (KT); *Oza kälmis süsin Kültegin ägrip, at oqara bir oquş alpägu on ärig, Toqa tegin yoqinta ägrip ölutimiz* - Oldin kelgan lashkarini Kultegin turg'izib otlantirib, bir qavmga mansub o'n qahramonni qurshab o'ldirdik (KT); *Kültegin yoq ärsär, qop öltäci ärtinüz* - Kultegin bo'lmasa, o'lar edingiz; *Bäglari boduni tüzsüz üçün, ... türk bodun ällädük älin içginu idmis* - beklari, xalqi insofsizligi uchun turk xalqi ushlab turgan davlatini qo'ldan chiqarib yuborgan (KT); *Sogdaq bodun ätäyin täyin, Yinçü ögüzüg kää Tämir qapigqa tägi sulädimiz* - bo'g'daq xalqini tuzatayin deb, Yinju (Sir) daryosini kechib Temir darvozagacha qo'shin tortdik (KT); *Äcim qaqan olurtuqda, özüm Tarduş bodun üzä šad ärtim* – amakim xoqon bo'lganda, o'zim tardush xalqi uza shad erdim (KT); *Nän, nän sabim ärsär, bänü taşqa urtum, anar körü bilin* - Qanday nima so'zim bolsa, mangu toshga yozdim, unga qarab biling (KT).

Qadimgi turkiy tilda ergashgan qo'shma gaplarning bir qator turlari qo'llanishda bo'lgan:

**Ega ergash gapli qo'shma gap** bosh gapda ishtirok etgan yoki tushirib qoldirilgan egani izohlab keladi: *İda taşda qalmışi qobranib yäti yoq bolti* – Toqayda, toshda qolgan to'planib, yetti yuz kishi bo'ldi; *Äki biq ärtimüz biz, äki sü bolti* - ikki ming kishi edik biz, ikki qo'shin bo'ldi (To'n).

**Kesim ergash gapli qo'shma gapda** bosh gapda ishtirok etgan yoki tushirib qoldirilgan kesim izohlanadi: *Apa tarqanqaru icrä sab idmis: Bilgä Tonyuquq aniq ol* – apa tarxonga yashirin xat yubormish: Bilga To'nyuquq yomon u ((To'n); *Ol äki kiši bar ärsär, säni tabgäciq ölürtäci tirmän* - O'sha ikki kishi bor bo'lsa, seni - tabg'achni o'ldirajak, derman.

**Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.** Bu xil ergash gaplar bosh gap tarkibida kelib, bevosita o'zi aniqlab kelayotgan otning oldida qo'llanadi: *Qunjimiz äcimiz qazganmiş bodun äti, küsi yoq bolmazun yin türk bodun üçün tün udimadim, küntüz olurmadim* - otamiz, akamiz qozongan xalqning nomi, shuhrati yo'q bo'lmasun deb turk xalqi uchun kechasi uxlamadim, kunduzi o'tirmadim (KT); *Közün körmädük qulgaqin äsidmädük* bodunim - ko'z bilan ko'rmagan, quloq bilan eshitmagan xalqim (KT).

**To'ldiruvchi ergash gap** bosh gap tarkibidagi olmosh-to'ldiruvchi yoki fe'l-kesimning ma'nosini izohlaydi va bosh gap mazmunini to'ldiradi:

Áki šad ulayu ini yigünim, oğlanim, baglarim, bodunim közi, qaşı yabba boltači tıp, saqintim – ikki shad keyingi ini jiyanim, bolam, beklunim xalqimning ko'zi, qoshi yomon bo'ladi deb, o'yladim (KT).

**Maqsad ergash gapli qo'shma gapda** qismlarning biri ikkinchisi bilan anglashilgan mazmun nima maqsadda ro'y berishini ifodalaydi, *tayin* uning variantlari vositasida bosh gapga bog'lanadi. Masalan: *Türk bodun yitmazün tayin yoluq ärmazün tayin üzä täyri tär ärmis...* - turk sira yo'qolmasin deb, qurbon bo'lmasin deb, ko'kdagi Tangri der emish...(O'n) *Yalabači ädgu sabi ötügi kälmez tayin yayin süladim* – elcnisi, ezgu so'z arzi dodi kelmayapdi deb, yozda lashkar tortdim (BX).

**Payt ergash gap** bosh gapdan anglashilgan mazmunning ro'y berish vaqtini ifodalaydi va bosh gapga o'rin –payt, chiqish kelishigi shakli orqali bog'lanadi: *Äcim qağan qamšağ boltuqinta, bodun ölüg iglig boltuqinta. Izgil bodun birlä süñüşdimiz* – amakim xoqonning davlati zaif bo'lganda, xalq o'lib, kasal bo'lib turganda izgil xalqi bilan jang qildim; *Üzä kök täm asra yağiz yär qilintuqda, akin ara kisi oğli qilinmis* – Yuqorida ko'k osmon pastda qo'ng'ir yer yaratilganda ikkisining o'rtasida inson bolasi yaratilgan (KT).

**Sabab ergash gapli qo'shma gap.** Sabab ergash gapni tashkil etgan gap bosh gapdan anglashilgan harakat-holatning ro'y berish sababini bildiradi, ergash gapni bosh gapga bog'lashda *üçün* ko'makchisi xizmat qiladi. Bunda ergash gap kesimi sifatdosh yoki ot, sifat orqali ifodalanadi. Masalan: *Täyri yarliqaduq üçün öküs täyin biz qorqmadimiz süñüşdimiz* – Tangri yorlaqagani uchun ko'p, biz qo'rqmadik, jang qildik (To'n); *Tänri küç bärtük üçün qanım qağan süsi höritäg ärmis* - Tangri kuch bergani uchun otam xoqonning qo'shini bo'riday ekan (KT).

**Shart ergash gap** bosh gapdan anglashilgan mazmun qanday shart-sharoitlarda ro'y berishini ko'rsatadi va kesimi shart fe'li yoki ot bilan ifodalanadi: *Üzä täyri basmasar, asra yär talinmasär, türk bodun äliyn törünin artati?* – Tepadan osmon bosmagan bo'lsa, pastda yer yorilmagan bo'lsa, turk xalqi eling, qonun-qoidangni kim buzdi? (KT); *Altäriš qağan qazğanmasar, udu bän özüm qazğanmasar, äl yämä, bodun yämä yoq ärtäči ärti* – Eltariš xoqon (g'alaba) qozonmasa, so'ngra men o'zim qozonmasam, el ham, xalq ham yoq bo'lar edi (To'n).

**Bir necha ergash gapli qo'shma gaplar.** Qadimgi yodnomalar til ma'lum darajada shakllangan yozma adabiy til edi. Shuning uchun ham bu yodnomalarda qo'shma gapning turli shakllari - bir necha ergash gapli qo'shma gaplar, ergash va bog'lovchisiz gaplarni o'z ichiga olgan murakkab tarkibli qo'shma gaplar qo'llaniladi: *Altäriš qağan qazğanmasar, yoq äri*

*asar, bän özüm Bilgä Tonyuquq qazğan- masar, bän yoq ärtim ärsär* Qapagan qağan türk sir bodun yärintä bod yämä kiši yämä idi yoq ärtäči ärti – Eltariš xoqon qozonmasa, yo'q bo'lsa, men o'zim Bilga To'nyuquq qozonmasam, men yoq bolsam, Qapagan xoqon, turk sir xalqi erida urug' tam, kishi ham, ega ham yo'q bo'lgan bo'lardi (To'n).

Tarkibi turli tipli konstruksiyalardan tuzilgan **murakkab tarkibli qo'shma gaplar** uchraydi: *Yuyqa ärklig topulğali uçuz ärmis, yinçgä ärklig topulğali uçuz, yuyqa qalin bolsar, topulğuluq alp ärmis, yinçkä yoğan bolsar, topulğuluk alp ärmis* – Yupqa narsa engishga oson emish, ingichka narsa to'paloqga oson, yupqa qalin bo'lsa, to'plovchi bahodir emish, ingichka to'paloq bo'lsa, uzuvchi bahodir emish (To'n).

### Savol va topshiriqlar

1. Sodda gapning xususiyatlarini bayon eting.
2. Qo'shma gapning grammatik asosini izohlang.
3. Bog'langan qo'shma gaplar haqida ma'lumot bering.
4. Ergash gapli qo'shma gaplarning bosh gapga birikish yollarini tushuntiring.
5. Bir necha ergash gapli qo'shma gaplarning xususiyatlarini haqida izohlang.

### Test sinovi

1. *Üç közüg kiši kälti, sabi bir: qağani sü tašiqdi, on oq süsi qalisiz tašiqdi* gapida qanday munosabat ifodalangan?  
A) zidlik S) sabab-natija  
B) qiyoslash D) izohlash
2. *azu uluğ baçağ kün, azu kiçig baçağ künkä qilsar* jumlasida qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?  
A) bog'langan qo'shma gap S) bog'chisiz qo'shma gap  
B) ergashgan qo'shma gap D) murakkab qo'shma gap
3. *Täyri küç bärtük üçhün qanım qağan süsi höritäg ärmis, yağisi qonitäg ärmis*– keltirilgan gapda *qañ* so'zi qaysi ma'noda kelgan?  
A) xon S) ota  
B) ona D) qon
4. *Oza kälmis süsin Kültegin ağıtip, at onara bir oğuş alpağu on ärig, Toña tegin yoğinta ägirip ölütimiz* jumlasida qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?  
A) bog'langan qo'shma gap S) bog'chisiz qo'shma gap  
B) ergashgan qo'shma gap D) murakkab qo'shma gap

5. *Ācūmiz apamiz tutmīs yār sub idisiz bolmazun tāyin jumlasida ergash gap bosh gapga qanday bog'langan?*

- A) sifatdosh yordamida S) shart mayli qoshimchasi yordamida  
B) rabishdosh yordamida D) ko'makchi yordamida

6. *Udar Sanjun kālti, Tabğaç qağanta Isyi Likanj kālti, bir tūmūn qaltun, kūmūs kārgāksiz kālūrta jumlasida qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?*

- A) bog'langan qo'shma gap S) bog'chisiz qo'shma gap  
B) ergashgan qo'shma gap D) murakkab qo'shma gap

7. *Īda tašda qalmīsī qobranib yāti yūz boltū – ushbu jumlasida ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?*

- A) ega ergash gap S) aniqlovchi ergash gap  
B) kesim ergash gap D) to'ldiruvchi ergash gap

8. *Türk bodun yitmāzūn tāyin yoluq ārmāzūn tāyin üzā tāñri tōrmīs... jumlasida ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?*

- A) payt ergash gap S) sabab ergash gap  
B) maqsad ergash gap D) to'ldiruvchi ergash gap

#### ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. - Т.: Ўқитувчи, 1982.
2. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. - T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008.
3. Абдурахманов Г. Исследования по старотюркскому синтаксису. - М.: Наука, 1967.
4. Малов С. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. - М.-Л., 1951.
5. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009.
6. Серебрянников Б.А., Гаджиева Н.З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. - Баку, 1979.

#### SHARTLI QISQARTMALAR

- IX - Bilga xoqon bitiktoshi  
KT - Kultegin bitiktoshi  
KCh - Kulichur bitigi  
MCh - Mo'yunchur bitigi  
Oltun yorug' - Oltin yoruq bitiktoshi  
To'n - To'nyuquq bitiktoshi  
TT - Turfon matnlari  
O'n - O'ngin bitiktoshi

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### I. Manbalar

- 1.1. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. Т. I-III. -Т.: Фан, 1960-1963. Т. I. 1960. -499 б. Т. II. 1961. 427 б. Т. III. 1963. -466 б.
- 1.2. Махмудов Қ. Аҳмад Югнакийнинг «Хибатул-ҳакойик» лугати: кириш, фонетика, морфология, матн, транскрипция, шарҳлар. -Т.: Фан, 1972.- 298 б.
- 1.3. Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. -Самарқанд, 1928. 128 б.
- 1.4. Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадгу билиг (Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов). -Т.: Фан, 1971. 786 б.

### II. Kitoblar

- 2.1. Абдурахмонов А., Рустамов А. Қадимги туркий тил. -Т.: Ўқитувчи, 1982. - 166 б.
- 2.2. Абдурахмонов Ф. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ва ҳақида. -Т., 1999. -88 б.
- 2.3. Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. -Т.: Ўқитувчи, 1973. -320 б.
- 2.4. Алиев А., Содиков Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. -Т.: Ўзбекистон, 1994. -118 б.
- 2.5. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. Т. I-IV. Э.Фозилов тахрири остида. -Т.: Фан, 1983-85. Т. I. 1983. -782 б. Т. II. 1983. -642 б. Т. III. 1984. -622 б. Т. IV. 1985. - 636 б.
- 2.8. Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. -Т.: ФАН, 1981. -98 б.
- 2.9. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. -Т.: Университет, 2007. -339 б.
- 2.10. Аширбоев С., Азимов И. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси (Ўқув-услубий қўлланма). -Т.: Тошкент давлат педагогика университети, 2002. -137 б.
- 2.11. Базарова Д. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка. -Т.: Фан, 1978. -223 с.
- 2.12. Базарова Д., Шарипова К. Развитие лексики тюркских языков Средней Азии и Казахстана. -Т.: Фан, 1990. -274 с.
- 2.14. Багманов Й. Язык енисейских памятников древнетюркской письменности. - Фрунзе: АН Киргизистан, 1959. -218 с.
- 2.15. Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи. -Т.: Фан, 1991.-152 б.

2.16. Дадабоев Ҳ. Тарихий ҳарбий терминлар лугати. - Т.: Университет, 2003. -240 б.

- 2.17. Дадабоев Ҳ., Ҳамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили тарихи. -Т.: Фан, 2007. 156 б.
- 2.18. Древнетюркский словарь. -Л.: Наука, 1969. -676 с.
- 2.19. Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари (Ўзбек, уйғур, қозок, қирғиз, қорақалпоқ, туркман тиллари материаллари асосида). -Т.: Фан, 1966. -150 б.
- 2.20. Исмоилов И. ва бошқалар. Ўрта Осиё ва Қозоғистон туркий тиллар лексикасидан (полиэкинлари, мевали дарахт номлари ва уйғур буюмлари лексикаси материаллари асосида). -Т.: Фан, 1990. -158 б.
- 2.21. Исследование по лексике и грамматике тюркских языков. -Т.: Фан, 1980. -148 с.
- 2.22. Исҳоқов М., Содиков Қ., Омонов Қ. Мангу битиклар. -Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2009. -115 б.
- 2.23. Малов С. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. -М.-Л., 1951. -452 с.
- 2.24. Махмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. -Т.: Ўқитувчи, 2006.
- 2.25. Мусаев К. Лексика тюркских языков в сравнительном отношении (Западно-кыпчакская группа). -М., 1975. -359 с.
- 2.26. Мусаев К. Лексикология тюркских языков. -М.: Наука.- 1984. -228 с.
- 2.27. Мухторов А., Санақулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. -Т.: Ўқитувчи, 1995. -160 б.
- 2.28. Насипов В. Язык орхон-енисейских памятников. -М., 1960. -248 с.
- 2.29. Sanaqulov U. O'zbek yozma adabiy tili fonetik, morfologik va yozma shakllanishi va taraqqiyoti bosqichlari. - Т.: Navro'z, 2015.
- 2.30. Севортян Э. Аффиксы словообразования в азербайджанском языке. Опыт сравнительного исследования. -М.: Наука, 1966. -117 с.
- 2.31. Севортян Э. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. -М.:Наука, 1974. -167 с.
- 2.32. Севортян Э. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на букву «Б». -М.: Наука, 1978. -149 с.

2.33. Севортян Э. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на букву «В», «Г», «Д». -М. Наука, 1980. -395 с.

